# Centrum

N°4 | Autumn-Winter 2024-2025

Travel magazine



*Welcome to Uzbekistan*

мобильное приложение связи




подключайся онлайн, собирай в свой тариф только нужное
и получай доступ к эксклюзивному контенту







# Волшебные праздники в
## Hilton Tashkent City

**Когда зима стучится в окна, начинается сказочное время – время чудес и волшебных мгновений.**

Новый год и Рождество объединяют людей по всему миру, и мы приглашаем вас провести эти особенные дни в отеле Hilton Tashkent City, где каждая деталь создана для незабываемых моментов.

В декабре Hilton Tashkent City окутает вас атмосферой праздника. Элегантный пятизвездочный отель в центре столицы преображается: сияющие елки, сказочные олени, милые эльфы и снеговики создают неповторимое предновогоднее настроение. Приглашаем вас стать частью наших торжеств: Ужин в Сочельник, детские новогодние праздники, новогодние корпоративы, новогодний бранч и, конечно, Новогодний гала-ужин подарят вам незабываемые впечатления.

РЕКЛАМА



# Hilton Tashkent Cityda
## Sehrli bayramlar

Yangi yil va Rojdestvo butun dunyo odamlarini birlashtiradi, va biz sizni ushbu maxsus kunlarni bizning mehmonxonamizda o'tkazishga taklif qilamiz, bu yerda har bir tafsilot unutilmas lahzalar uchun yaratilgan.

Dekabr oyida Hilton Tashkent City bayram kayfiyatini sizga taqdim etadi. Poytaxt markazidagi nafis besh yulduzli mehmonxona, porloq archa daraxtlari, sehrli kiyiklar, shirin elflar va qorbobo bilan o'ziga xos Yangi yil oldi muhitini yaratadi.Sizni bizning bayramlarimizning bir qismiga aylanishga taklif qilamiz: Ro'zhdestvo kechasi, bolalar uchun Yangi yil bayramlari va, albatta, Yangi yil kechasi sizga unutilmas taassurotlar ulashadi.

**24 декабря**
- Рождественский ужин в Сочельник

**22, 29 декабря и 5 января**
- Детские новогодние вечеринки

**20 - 31 декабря**
- Новогодние корпоративные вечера

**31 декабря**
- Новогодняя ночь в City 21 Restaurant
- Новогодняя ночь в Tumbler Bar & Lounge

**1 января**
- Новогодний бранч

**24-dekabr**
- Rojdestvo kechasi bayrami

**22, 29-dekabr va 5-yanvar**
- Bolalar uchun Yangi yil bayramlari

**20 - 31-dekabr**
- Yangi yil korporativ kechalari

**31-dekabr**
- City 21 Restaranida Yangi yil kechasi
- Tumbler Bar & Loungeda Yangi yil kechasi

**1-yanvar**
- Yangi yil branchi

hilton.com/tashkentcity
@HiltonTashkentCity
@hiltontashkentcityhotel

**Телефоны для бронирования**
**Bron qilish uchun raqamlar:**

+99871 210 88 88
+99894 940 40 01

Hilton
TASHKENT CITY



CENTRUMAIR



# СОДЕРЖАНИЕ
# MUNDARIJA


*10* **Топ-5 городов Узбекистана**
O'zbekistonning Top-5 shaharlari

*22* **Узбекистан с неожиданной стороны**
O'zbekiston kutilmagan rakursdan

*28* **События в Узбекистане, достойные внимания**
O'zbekistondagi e'tiborga loyiq voqealar

*36* **Сундучок счастливой птицы**
Baxtiyor qush sandiqchasi

*54* **Древо жизни**
Hayot shajarasi

*70* **Путешествие по истории кино**
Kino tarixiga sayohat

*82* **Узбекская лепешка: от колыбели и на всю жизнь**
O'zbek noni: beshikdan boshlab bir umrga

*106* **Авиация и мода**
Aviatsiya va moda

*120* **Авиаспоттинг: как страсть к самолётам становится услекательным хобби**
Aviaspotting: samolyotlarga bo'lgan qiziqish qanday qilib maroqli xobbiga aylanadi





TOUS HOLD

РЕКЛАМА



Испанский ювелирный бренд Tous

+998 90 819 08 80

ул. Олмазор, 2А,
Tashkent City Mall

# Centrum
Travel magazine

**Директор по маркетингу**
*Андрей Осинцев*

**Бренд-менеджер**
*Софья Заверщинская*

**Главный редактор:**
*Елизавета Алмазова*

**Авторы:**
*Марина Гулящева*
*Анастасия Черепанова*
*Ислам Рахманов*

**Перевод, узбекский язык:**
*Камол Назаров*

**Редактор и корректор, узбекский язык:**
*Нилуфар Мавланова*

**Редактор и корректор, русский язык:**
*Марина Исайчева*

**Дизайн и верстка:**
*Эмиль Зубаиров*
*Афзал Хамидов*

**Фотографы:**
*Лилия Насырова*
*Илья Гомыранов*
*Арлан Байходжаев*

**Адрес редакции:**
*г. Ташкент, Мирабадский район, ул. Ойбека, 36.*

**Отдел рекламы**
*Телефон: +998 91 030 82 21*

**Marketing bo'yicha direktor:**
*Andrey Osintsev*

**Brend-menejeri:**
*Sofiya Zavershinskaya*

**Bosh muharrir:**
*Yelizaveta Almazova*

**Mualliflar:**
*Marina Gulyashcheva*
*Anastasiya Cherepanova*
*Islam Raxmanov*

**Tarjima, o'zbek tili:**
*Kamol Nazarov*

**Muharrir va musahhih, o'zbek tili:**
*Nilufar Mavlanova*

**Muharrir va musahhih, rus tili:**
*Marina Isaycheva*

**Dizayn va sahifalash:**
*Emil Zubairov*
*Afzal Xamidov*

**Fotosuratchilar:**
*Liliya Nosirova*
*Ilya Gomiranov*
*Arlan Bayxo'jayev*

**Tahririyat manzili:**
*Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'ch., 36.*

**Reklama bo'limi**
*Telefon: +998 91 030 82 21*

**На обложке: амбассадор авиакомпании Centrum Air Лола Юлдашева**

Лицензия №435507
Распространяется бесплатно.

Редакция не несёт ответственности за содержание рекламных материалов. Использование материалов или их фрагментов в любой форме допускается исключительно с письменного разрешения редакции.

Отпечатано в типографии ООО "PRINTUZ": г. Ташкент, Мирабадский р-н., ул. Кушкуприк, д. 28/1. Формат 210×297 мм. Печать офсетная. Тираж 4 000 экземпляров.

*Редакция благодарит за сотрудничество арт-галерею Human House и лично Лолу Сайфи*

---

**Muqovada: Centrum Air aviakompaniyasining ambassadori Lola Yo'ldosheva**

Litsenziya №435507
Bepul tarqatiladi.

Tahririyat reklama materiallarining mazmuni uchun javobgar emas. Materiallar yoki ularning qismlaridan har qanday shaklda foydalanishga faqat tahririyatning yozma ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

"PRINTUZ" MCHJ bosmaxonasida chop etilgan: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Qo'shko'prik ko'chasi, 28/1-uy. Qog'oz bichimi 210×297 mm, ofset qog'ozi. Adadi 4 000 nusxa.

*Tahririyat Human House san'at galereyasi va shaxsan Lola Sayfiga hamkorlik uchun o'z minnatdorchiligini bildiradi*



РЕКЛАМА



TI'ME
WATCHES AND JEWELLERY

+99890 019 08 80

Адреса Магазинов Ti'me в Узбекистане:
ТРЦ Tashkent City Mall, г. Ташкент,
ул. Ботира Закирова 7, 1 этаж



## Уважаемые путешественники, добро пожаловать в семью Centrum!

## Hurmatli sayohatchilar, Centrum oilasiga xush kelibsiz!

Этот выпуск для меня и всей нашей команды – особенный, ведь он посвящен нашей стране – Узбекистану. Я много летаю по миру, изучаю разные культуры, но всякий раз, когда выдается свободное время, бесконечно рад отправиться в путешествие по родным краям, где заново открываю для себя наши города: общаюсь с ремесленниками, наслаждаюсь утренним солнцем, прогуливаясь по комплексу Шахи-Зинда, шагаю по улицам Бухары или просто дышу горным воздухом под Ташкентом.

Узбекистан – край с богатой историей и культурой, и я рад сообщить, что мы запускаем программу въездного туризма, которая позволит путешественникам почувствовать наше гостеприимство, отведать блюда национальной кухни, обрести друзей, а местным жителям – узнать свою страну ещё ближе и посетить новые города.

Страницы журнала не уместят всей красоты и многослойности Узбекистана, но мы уверены, что вдохновим вас на исследование его богатого наследия.

Вы – в центре Узбекистана и всего мира.
Вы – в центре Centrum!

С уважением,
генеральный директор Centrum Holding
**Абдулазиз Абдурахманов**

Jurnalning ushbu soni men va butun jamoamiz uchun alohida, maxsus son bo'ladi, chunki u sevimli mamlakatimiz – O'zbekistonga bag'ishlangan. Men kasbim tufayli dunyo bo'ylab ko'p parvoz qilaman, turli madaniyatlarni o'rganaman, lekin har safar bo'sh vaqtim topilganda jonajon o'lkamizni sayohat qilishga otlanaman va bundan cheksiz mamnun bo'laman. Har gal men o'z shaharlarimizni qaytadan kashf etaman: hunarmandlar bilan muloqot qilaman, tonggi quyoshdan bahramand bo'laman, Shohi Zinda majmuasi bo'ylab sayr qilaman, Buxoro ko'chalarida yuraman yoki shunchaki, Toshkent yaqinidagi tog' havosidan nafas olaman.

O'zbekiston – boy tarix va madaniyatga ega diyor. Men kirish turizmi dasturi ishga tushirilganligi to'g'risida sizlarga mamnuniyat bilan xabar bermoqchiman. Bu dastur sayohatchilarga mehmondo'stligimizni his qilish, milliy taomlarimizni tatib ko'rish, do'stlar orttirish, aholiga esa – o'z mamlakatini yanada yaqinroq bilish va yangi shaharlarga tashrif buyurish imkonini beradi.

Jurnal sahifalariga O'zbekistonning butun go'zalligini va rang-barangligini sig'dirib bo'lmaydi, ammo biz uning boy merosini o'rganishga sizni ruhlantira olamiz, deb ishonamiz.

Siz – O'zbekiston va butun dunyoning markazida turibsiz.
Siz – Centrum markazidasiz!

Hurmat bilan,
Centrum Holding bosh direktori
**Abdulaziz Abdurahmonov**

# ТОП-5 ГОРОДОВ УЗБЕКИСТАНА

## O‘zbekistonning Top-5 shaharlari



# ТАШКЕНТ
## Toshkent



Столица Узбекистана – город, полный контрастов. Здесь можно увидеть ультрасовременные здания рядом с вековыми мечетями и медресе, зелёные парки и фонтаны, создающие неповторимую атмосферу спокойствия. Ташкент привлекает туристов культурными достопримечательностями, оживлёнными базарами и гостеприимством местных жителей. Это идеальное место для тех, кто хочет прикоснуться к богатому наследию Центральной Азии, не отказываясь при этом от комфорта современных мегаполисов.

O'zbekiston poytaxti – kontrastlarga to'liq shahar. Bu yerda ko'p asrlik masjidlar va madrasalar yonidagi o'ta zamonaviy binolarni ko'rish mumkin, yashil bog'lar va favvoralar betakror osoyishtalik muhitini yaratadi. Toshkent madaniy diqqatga sazovor joylari, gavjum bozorlari va mahalliy aholining mehmondo'stligi bilan sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Bu zamonaviy megapolislarning qulayliklaridan voz kechmagan holda Markaziy Osiyoning boy merosi bilan tanishishni istaganlar uchun eng maqbul joy hisoblanadi.

- Посетите площадь Хаст-Имам – центр духовной жизни столицы
- Исследуйте старый город, гуляя по узким улочкам и древнему рынку Чорсу
- Прогуляйтесь по бродвею – зелёному оазису в сердце Ташкента, где много кафе и уличных художников
- Загляните в Музей прикладного искусства – место, где можно ознакомиться с традиционными ремёслами
- Сфотографируйте здания ташкентского сейсмического модернизма
- Посетите католический костел, немецкую кирху, буддийский храм: Ташкент гостеприимен для всех мировых религий
- Сходите на экскурсию «Говорит Ташкент», чтобы послушать уникальные истории о городе
- Спуститесь в метрополитен полюбоваться уникальными станциями
- Совершите поездку в Чимган – у вас захватит дух от горных пейзажей, находящихся в такой близи от большого города

### ОБЯЗАТЕЛЬНО ПОПРОБУЙТЕ:
- Плов – коронное блюдо узбекской кухни
- Лагман – богатое вкусом блюдо из лапши с насыщенным бульоном
- Самсу – выпечку с мясом, картошкой, тыквой или зеленью
- Манты – традиционные паровые пельмени
- Лепёшку из сдобного теста

### ЗАПЕЧАТЛИТЕ:
- Медресе Кукельдаш – одно из крупнейших учебных заведений XVI века
- Площадь Независимости
- Музей искусств Узбекистана – дом уникальных произведений искусства и ремёсел
- Комплекс Хазрати Имам – важный религиозный и культурный центр, где хранится Коран Османа
- Дворец великого князя Романова, Центр современного искусства и другие образцы туркестанской архитектуры
- Чорсу-базар – один из старейших рынков Ташкента, известный своим восточным колоритом
- Гелиокомплекс «Солнце» в Ташкентской области

### НЕ ЗАБУДЬТЕ ЗАБРАТЬ С СОБОЙ:
- Вкуснейшие сухофрукты
- Традиционные узбекские ковры и изделия ручной работы
- Виноград






- Poytaxtning ma'naviy hayoti markazi – Hazrati imom majmuasiga tashrif buyuring
- Tor ko'chalar va qadimiy Chorsu bozori bo'ylab sayr qilib, eski shaharni o'rganing
- Toshkent markazidagi kafe va ko'cha rassomlari ko'p bo'lgan yashil voha – Brodvey bo'ylab sayr qiling
- An'anaviy hunarmandchilik namunalari bilan tanishish mumkin bo'lgan maskan – Amaliy san'at muzeyiga tashrif buyuring
- Toshkent seysmik modernizmi binolarini suratga oling
- Katolik cherkovi, nemis kirxasi, buddistlar ibodatxonasiga tashrif buyuring: Toshkent butun dunyo dinlari uchun mehmondo'st shahar
- Shaharning o'ziga xos tarixi haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun "Toshkentdan gapiramiz" loyihasining ekskursiyasiga boring
- Noyob stansiyalarni tomosha qilish uchun metropolitenga tushing
- Katta shaharga juda yaqin bo'lgan tog' manzaralaridan zavqlanish uchun Chimyonga sayohat qiling

### ALBATTA TATIB KO'RING:
- Palov – o'zbek oshxonasining shohona taomi
- Lag'mon – to'yimli bulonli ta'mga boy ugra
- Somsa – go'sht, kartoshka, qovoq yoki ko'katli pishiriq
- Manti – an'anaviy bug'da pishirilgan chuchvaralar
- Yopgan non – yumshoq xamirdan pishirilgan non

### SURATGA OLING:
- Ko'kaldosh madrasasi – XVI asrning eng yirik ta'lim muassasalaridan biri
- Mustaqillik maydoni
- O'zbekiston san'at muzeyi – mintaqaning noyob san'at asarlari va hunarmandchilik uyi hisoblanadi
- Hazrati Imom majmuasi muhim diniy va madaniy markaz bo'lib, unda Usmon Qur'oni saqlanadi
- Buyuk knyaz Romanov saroyi, Zamonaviy san'at markazi va Turkiston me'morchiligining boshqa namunalari
- Chorsu bozori – Toshkentning eng qadimiy bozorlaridan biri bo'lib, o'zining sharqona koloriti bilan mashhur
- Toshkent viloyatidagi "Quyosh" gelio-majmuasi

### O'ZINGIZ BILAN OLIB KETISHNI UNUTMANG:
- Mazali quruq mevalar
- An'anaviy o'zbek gilamlari va qo'l mehnati buyumlari
- Uzum

# САМАРКАНД
## Samarqand



Самарканд – древний город в сердце Узбекистана, являющийся настоящей сокровищницей восточной культуры. Исторический и культурный центр Великого шелкового пути, Самарканд сочетает в себе величие древних империй и комфорт современного Востока. Этот город с более чем 2500-летней историей приглашает своих гостей прикоснуться к красоте уникальной архитектуры, легендам и традициям, которые создают удивительное сочетание прошлого и настоящего.

Samarqand – O'zbekiston markazidagi qadimiy shahar, Sharq madaniyatining haqiqiy xazinasi. Buyuk Ipak yo'lining tarixiy va madaniy markazi bo'lgan Samarqand qadimgi imperiyalarning ulug'vorligini va zamonaviy Sharqning qulayliklarini o'zida mujassam etgan. 2500 yildan ortiq tarixga ega bo'lgan bu shahar o'z mehmonlarini o'tmish va bugungi kunning ajoyib uyg'unligini yaratuvchi noyob me'morchilik go'zalligi, afsona va an'analarini his qilishga chorlaydi.

- Исследуйте старый город и загляните на базар Сиаб. Зайдите туда не с парадного входа, а с задней стороны – там вы увидите настоящий восточный базар
- Посетите обсерваторию Улугбека – место, где когда-то находилась одна из самых больших обсерваторий своего времени
- Прогуляйтесь в вечернее время по историко-этнографическому парку «Вечный город»
- Сходите на экскурсию на бумажную фабрику «Мерос»

### ЗАПЕЧАТЛИТЕ:
- Регистан – сердце Самарканда, великолепный ансамбль медресе, отражающий красоту восточной архитектуры. Особенно прекрасен в вечернее время
- Мавзолей Гур-Эмир – усыпальница великого Тамерлана, шедевр средневекового зодчества
- Мечеть Биби-Ханым – грандиозное строение в честь жены Тамерлана
- Некрополь Шахи-Зинда – уникальный ансамбль мавзолеев, где можно ощутить дух древнего Самарканда
- Обязательно попробуйте:
- Самаркандский плов – коронное блюдо региона
- Тандыр-кабоб – мясо с восхитительным ароматом специй, приготовленное в тандыре
- Казылык – традиционную узбекскую колбасу из конины

### НЕ ЗАБУДЬТЕ ЗАБРАТЬ С СОБОЙ:
- Шёлк и ткани ручной работы, известные своим отменным качеством
- Самаркандскую бумагу – знаменитую шёлковую бумагу, изготовленную вручную по древним технологиям в мастерских, расположенных вблизи города
- Ляган – уникальную расписную керамическую посуду, в которой традиционно подают плов
- Самаркандский хлеб
- Самаркандское вино – винодельни Самарканда производят вино с богатой историей и традициями
- Халву
- Украшения из полудрагоценных камней – Самарканд славится многообразием ювелирных изделий, выполненных с использованием местных полудрагоценных камней





- Eski shaharni o'rganing va Siyob bozoriga tashrif buyuring. U yerga asosiy eshikdan emas, orqa tomondan kiring, ana shunda haqiqiy sharq bozorini ko'rasiz
- Bir vaqtlar o'z davrining eng katta rasadxonalaridan biri hisoblangan Ulug'bek rasadxonasiga tashrif buyuring
- Kechqurun "Boqiy shahar" tarixiy –etnografik bog'ida sayr qiling
- "Meros" qog'oz fabrikasiga ekskursiya qiling

### SURATGA OLING:
- Registon – Samarqandning yuragi, Sharq me'morchiligining go'zalligini aks ettiruvchi muhtasham madrasa ansambli. Ayniqsa, kechqurunlari juda chiroyli bo'ladi
- Go'ri Amir maqbarasi – buyuk Temurning maqbarasi, o'rta asr me'morchiligining durdonasi
- Bibixonim masjidi – Amir Temurning xotini sharafiga qurilgan ulkan masjid
- Shohi Zinda nekropoli – qadimiy Samarqand ruhini his qilish mumkin bo'lgan noyob maqbaralar ansambli

### ALBATTA TATIB KO'RING:
- Samarqand palovi – mintaqaning shohona taomi
- Tandir kabob – tandirda pishirilgan xushbo'y ziravorli go'sht
- Qazi – ot go'shtidan tayyorlangan an'anaviy o'zbek kolbasasi

### O'ZINGIZ BILAN OLIB KETISHNI UNUTMANG:
- A'lo sifati bilan mashhur bo'lgan shoyi va qo'lda to'qilgan gazlamalar
- Samarqand qog'ozi – shahar yaqinidagi ustaxonalarda qadimiy texnologiyalar asosida qo'lda tayyorlangan mashhur ipak qog'oz
- Lagan – an'anaviy ravishda palov tortiladigan betakror naqshli sopol idish
- Samarqand noni
- Samarqand vinosi – Samarqand vinochilik korxonalari boy tarix va an'analarga ega sharob ishlab chiqaradi
- Holva
- Yarim qimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoqlar – Samarqand mahalliy yarim qimmatbaho toshlar yordamida yasalgan zargarlik buyumlarining xilma-xilligi bilan mashhur

# БУХАРА
## Buxoro



Бухара – один из древнейших городов Узбекистана, хранящий богатейшее наследие Великого шелкового пути. Его многовековая история, прославленные памятники архитектуры и уникальная атмосфера делают Бухару одним из самых посещаемых культурных центров Центральной Азии. Город пропитан духом Востока и приглашает каждого погрузиться в сказку, где каждый камень рассказывает свою историю.

Buxoro – Oʻzbekistonning eng qadimiy shaharlaridan biri boʻlib, Buyuk Ipak yoʻlining boy merosini oʻzida mujassam etgan. Uning koʻp asrlik tarixi, mashhur meʼmoriy obidalari va betakror muhiti Buxoroni Oʻrta Osiyoning eng koʻp tashrif buyuriladigan madaniy markazlaridan biriga aylantiradi. Shahar Sharq ruhi bilan sugʻorilgan va har bir tosh oʻz tarixini hikoya qiladigan ertakka oshno boʻlishga chorlaydi.

- Прогуляйтесь по узким улочкам старого города
- Окунитесь в прошлое в летней резиденции эмира Бухарского
- Проведите вечер на площади Ляби-Хауз
- Поднимитесь на смотровую площадку возле цитадели Арк
- Уделите время себе в бухарской средневековой бане
- Остановитесь в гостевом доме, расположенном в старом городе
- Восхититесь экспозицией в Bukhara Photo Gallery

### ОБЯЗАТЕЛЬНО ПОПРОБУЙТЕ:

- Шурпу – популярный в регионе густой суп из мяса и овощей
- Нарын – тонко нарезанную конину с домашней лапшой, подаваемую с луком и специями
- Самсу бухарскую – традиционные пирожки с мясной начинкой, запеченные в тандыре
- Оши-софи – бухарский вид плова

### ЗАПЕЧАТЛИТЕ:

- Арк – величественную цитадель, которая была резиденцией бухарских эмиров
- Медресе Мири-Араб – одно из самых известных исламских учебных заведений региона, действующее и по сей день
- Минарет Калян – древнее сооружение, возвышающееся над городом, которое в своё время служило ориентиром для караванов
- Мавзолей Саманидов – один из старейших памятников мусульманской архитектуры, который выделяется своим изысканным узорным кирпичным фасадом
- Ляби-Хауз – центральную площадь Бухары, окруженную старинными зданиями и живописным прудом – идеальное место для отдыха. Сделайте традиционное фото памятника Ходжи Насреддина на ослике

### НЕ ЗАБУДЬТЕ ЗАБРАТЬ С СОБОЙ:

- Вышитые изделия сюзане, традиционный текстиль с яркими узорами
- Бухарские ковры – уникальные ковры ручной работы с характерными узорами, которые не найти в других регионах
- Сувенирные миниатюры из меди – традиционные бухарские изделия, например, миниатюрные чайники, лампы и посуда
- Керамику – изделия из глины с яркой росписью и особенными орнаментами
- Бухарскую тюбетейку – традиционный головной убор, часто украшенный искусной вышивкой
- Кисет для табака или зелёного чая – сшитые вручную с традиционными орнаментами, они считаются одним из символов старой Бухары





- Eski shaharning tor koʻchalarida sayr qiling
- Buxoro amirining yozgi qarorgohida oʻtmishga nazar soling
- Kechani Labi-hovuz maydonida oʻtkazing
- Ark qalʼasi oldidagi tomosha maydonchasiga chiqing
- Oʻrta asr Buxoro hammomida oʻzingiz uchun vaqt ajrating
- Eski shaharda joylashgan mehmon uyiga tashrif buyuring
- Bukhara Photo Gallery ekspozitsiyasidan zavq oling

### ALBATTA TATIB KOʻRING:

- Shoʻrva – goʻsht va sabzavotlardan tayyorlanadigan, mintaqada mashhur boʻlgan quyuq shoʻrva
- Norin – mayda toʻgʻralgan pishirilgan xamir va ot goʻshtidan tayyorlanadigan, piyoz va ziravorlar bilan tortiladigan taom
- Buxoro somsasi – tandirda pishirilgan goʻshtli anʼanaviy pishiriq
- Oshi-sofi – palovning buxorocha turi

### SURATGA OLING:

- Ark – Buxoro amirlarining qarorgohi boʻlgan muhtasham qalʼa
- Mir Arab madrasasi – mintaqadagi eng mashhur islom taʼlim maskanlaridan biri boʻlib, bugungi kunda ham faoliyat koʻrsatmoqda
- Minorai Kalon – shahar ustida qad koʻtargan qadimiy inshoot boʻlib, oʻz vaqtida karvonlar uchun moʻljal boʻlib xizmat qilgan
- Somoniylar maqbarasi – musulmon meʼmorchiligining eng qadimiy yodgorliklaridan biri boʻlib, oʻzining nafis naqshli gʻishtin peshtoqi bilan ajralib turadi
- Labi-hovuz – Buxoro shahrining markaziy maydoni, qadimiy binolar va xushmanzara hovuzlar bilan oʻralgan, dam olish uchun eng yaxshi maskan. Anʼanaga koʻra, Xoʻja Nasriddinning eshak mingan haykalini ham suratga oling

### OʻZINGIZ BILAN OLIB KETISHNI UNUTMANG:

- Soʻzana kashtalari, yorqin naqshli anʼanaviy toʻqimachilik buyumlari
- Buxoro gilamlari – boshqa hududlarda topilmaydigan, oʻziga xos naqshlarga ega, qoʻlda toʻqilgan betakror gilamlar
- Misdan yasalgan esdalik uchun miniatyuralar – anʼanaviy Buxoro buyumlari, masalan, miniatyura choynaklar, chiroqlar va idishlar
- Kulolchilik buyumlari – yorqin naqshlar va oʻziga xos naqshlar bilan mashhur sopol buyumlari
- Buxoro doʻppisi - anʼanaviy bosh kiyim, koʻpincha yorqin kashtalar bilan bezatiladi
- Tamaki yoki koʻk choy xaltasi – anʼanaviy naqshlar bilan qoʻlda tikilgan boʻlib, ular qadimiy Buxoroning ramzlaridan biri hisoblanadi

# ФЕРГАНА
## Farg‘ona



Фергана – жемчужина Ферганской долины, расположенная на востоке Узбекистана. Это город с богатой историей и культурой, где современные достижения гармонично переплетаются с традициями прошлого. Фергана привлекает туристов архитектурой, природой и гостеприимством жителей. Приезжайте сюда, чтобы исследовать историю региона, насладиться красотой садов и парков, познакомиться с народными промыслами и открыть для себя настоящий восточный колорит.

Farg‘ona - Farg‘ona vodiysining durdonasi, u O‘zbekistonning sharqiy qismida joylashgan. Bu boy tarix va madaniyatga ega bo‘lgan shahar bo‘lib, unda hozirgi zamon yutuqlari o‘tmishning an’analari bilan uyg‘unlashib ketgan. Farg‘ona me’morchiligi, tabiati va aholisining mehmondo‘stligi bilan sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. Mintaqa tarixini o‘rganish, bog‘ va xiyobonlarning go‘zalligidan bahra olish, xalq hunarmandchiligi bilan tanishish va haqiqiy sharqona koloritni kashf etish uchun bu yerga tashrif buyuring.

- Посетите местные мастерские – познакомьтесь с традиционными ремеслами, такими как изготовление узбекских ковров и керамики
- Полюбуйтесь красотой ущелья Гиссар – насладитесь живописными видами и уникальной природой этого региона
- Совершите экскурсию по окрестным деревням – познакомьтесь с жизнью и бытом местных жителей и узнайте больше о ферганской культуре
- Зайдите в исторический музей Ферганы

### ОБЯЗАТЕЛЬНО ПОПРОБУЙТЕ:

- Маставу – густой суп с рисом и мясом, типичный для региона
- Ханум – блюдо из теста с начинкой из картофеля или мяса, приготовленное на пару
- Плов из риса девзира
- Нарын – блюдо из мелко нарезанного отварного мяса и лапши, особенно популярное в холодное время года

### ЗАПЕЧАТЛИТЕ:

- Вид на Ферганскую долину с окружающих холмов, открывающий захватывающие панорамы
- Традиционные узоры на керамике Риштана, которые продолжают создавать по древним технологиям
- Базары Ферганы, где можно почувствовать настоящий дух восточной торговли и приобрести уникальные изделия ручной работы
- Местные сады и фруктовые плантации, особенно в период сбора урожая
- Дворец Худаяр-хана в соседнем Коканде

### НЕ ЗАБУДЬТЕ ВЗЯТЬ С СОБОЙ:

- Риштанскую керамику – расписные тарелки, кувшины и другие изделия ручной работы
- Ферганский шёлк – традиционные узбекские шёлковые ткани с уникальными узорами
- Местные сухофрукты – особенно знаменит ферганский урюк и другие сушеные фрукты, которые сохраняют свой вкус на протяжении всего года
- Изделия из дерева, выполненные местными мастерами – резные шкатулки и посуду





- Mahalliy ustaxonalarga tashrif buyuring – o‘zbek gilamlarini ishlab chiqarish va kulolchilik kabi an’anaviy hunarmandchilik turlari bilan tanishing
- Hisor darasining go‘zalligidan bahramand bo‘ling – bu hududning go‘zal manzaralari va betakror tabiatidan rohatlaning
- Atrofdagi qishloqlar bo‘ylab sayohat qiling – mahalliy aholining hayoti va turmushi bilan tanishing va Farg‘ona madaniyati haqida ko‘proq bilib oling
- Farg‘ona tarixi muzeyiga tashrif buyuring

### ALBATTA TATIB KO‘RING:

- Mastava – bu mintaqaga xos bo‘lgan, guruch va go‘shtli quyuq sho‘rva
- Xonim – xamir orasiga kartoshka yoki go‘sht solib, bug‘da pishiriladigan taom
- Devzira guruchli palov
- Norin – mayda to‘g‘ralgan pishirilgan xamir va go‘shtdan tayyorlanadigan taom, ayniqsa, yilning sovuq mavsumida juda mashhur

### SURATGA OLING:

- Farg‘ona vodiysining atrofidagi tepaliklardan turib vodiyning hayratga soluvchi manzaralarini
- Qadimiy texnologiyalar asosida yaratilib kelinayotgan Rishton kulolchiligidagi an’anaviy naqshlar
- Farg‘ona bozorlari, u yerda sharqona savdoning haqiqiy ruhini his qilish va noyob qo‘l mehnati mahsulotlarini xarid qilish mumkin
- Mahalliy bog‘lar va meva plantatsiyalarini, ayniqsa, yig‘im-terim davrida
- Qo‘shni Qo‘qondagi Xudoyorxon saroyi

### O‘ZINGIZ BILAN OLIB KETISHNI UNUTMANG:

- Rishton keramikasi – naqshinkor likopchalar, ko‘zalar va boshqa qo‘l mehnati buyumlari
- Farg‘ona shoyisi – betakror naqshli, an’anaviy o‘zbek ipak matolari
- Mahalliy quruq mevalar – ayniqsa, Farg‘onaning o‘rik va boshqa quritilgan mevalari mashhur bo‘lib, ular yil davomida o‘z ta’mini saqlab qoladi
- Mahalliy ustalar tomonidan yog‘ochdan yasalgan buyumlar – o‘ymakor qutichalar va idishlar.

# ХИВА
## Xiva



Хива – древний город на западной границе Узбекистана, окружённый пустынями и степями. Его старинная часть, Ичан-Кала, является музеем под открытым небом и внесена в список объектов Всемирного наследия ЮНЕСКО. Прогуливаясь по мощеным улочкам и дворцам, погружаясь в атмосферу восточного базара, каждый посетитель чувствует, что перенесся на несколько веков назад. Город словно застыл во времени, сохранив свой неповторимый исторический облик. Хива приглашает вас окунуться в мир древнего Хорезма и почувствовать живое дыхание истории.

Xiva – O'zbekistonning g'arbiy chegarasidagi qadimiy shahar, u cho'l va dashtlar bilan o'ralgan. Uning qadimiy qismi – Ichan qal'a ochiq osmon ostidagi muzey bo'lib, YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Har bir tashrif buyuruvchi tosh yotqizilgan ko'chalar va saroylar bo'ylab sayr qilganda, sharqona bozor muhitiga sho'ng'iganda, o'zini bir necha asr orqaga tushib qolgandek his qiladi. Shahar o'zining betakror tarixiy qiyofasini saqlab qolgan, go'yoki, o'sha zamonda qotib qolgandek tuyuladi. Xiva sizni qadimiy Xorazmga tushib qolishga, tarixning jonli nafasini his etishga chorlaydi.

- Поднимитесь на дозорную башню Куня-арк, чтобы встретить там закат
- Прогуляйтесь по стене Ичан-Калы
- Загадайте желание в мавзолее Пахлаван-Махмуда
- Станцуйте лазги
- Зайдите в магазин кукол на главной улице Ичан-Калы

### ОБЯЗАТЕЛЬНО ПОПРОБУЙТЕ:
- Жареную рыбу
- Хивинскую гумму
- Шивит оши – зелёный лагман, лапша для которого готовится с добавлением большого количества укропа и его сока
- Хорезмский плов – особую версию плова, в которой использованы различные специи и местные ингредиенты
- Тухум-барак – тесто, начиненное вареными яйцами и зеленью, приготовленное на пару
- Чучвару – небольшие пельмени с мясом, заправленные пряным бульоном

### ЗАПЕЧАТЛИТЕ:
- Массивные стены Ичан-Калы на фоне бескрайней пустыни
- Восточный базар, где можно увидеть ремесленников за работой и купить уникальные товары ручной работы
- Дворец Таш-Хаули – резиденцию хивинских ханов с красивыми внутренними двориками, богато украшенными плиткой и резьбой по дереву
- Вид с минарета Ислам-Ходжа, открывающий панораму старинной Хивы
- Красочные узоры на фасадах древних зданий и мечетей
- Жанровые скульптуры, вписанные в пейзаж Ичан-Калы
- Карету печника при входе во дворец Таш-Хаули
- Молельную комнату Джума-мечети – своего рода музей, рассказывающий о стиле хивинской резьбы по дереву в разные времена

### НЕ ЗАБУДЬТЕ ВЗЯТЬ С СОБОЙ:
- Хорезмские ковры – уникальные по орнаментам и цветам изделия ручной работы
- Изделия из кожи – сумки, ремни и обувь, изготовленные ремесленниками Хивы
- Традиционные восточные платки и шёлковые ткани, которые можно найти на местных базарах





- Ko'hna arkning kuzatuv minorasiga chiqib, u yerda kun botishini kuzating
- Ichan-Qal'a devori bo'ylab sayr qiling
- Pahlavon Mahmud maqbarasida niyat qiling
- Lazgi raqsiga tushing
- Ichan-qal'a bosh ko'chasidagi qo'g'irchoq do'koniga kiring

### ALBATTA TATIB KO'RING:
- Qovurilgan baliq
- Xiva go'mmasi
- Shivit oshi – yashil lag'mon, lag'mon xamiriga ko'p miqdorda shivit va uning sharbati qo'shib tayyorlanadi
- Xorazm palovi – palovning maxsus turi bo'lib, uni tayyorlashda turli ziravorlar va mahalliy masalliqlardan foydalaniladi
- Tuxum-barak – qaynatilgan tuxum va ko'katlar bilan to'ldirilgan, bug'da pishirilgan xamir
- Chuchvara – ziravorli bulon bilan tortiladigan go'shtli kichik chuchvaralar

### SURATGA OLING:
- Bepoyon sahro fonida Ichan-qal'aning ulkan devorlari
- Sharq bozori, u yerda hunarmandlarning ish jarayonini ko'rish va betakror qo'l mehnati mahsulotlarini xarid qilish mumkin
- Toshhovli saroyi – Xiva xonlarining qarorgohi, chiroyli ichki hovlilari plitka va yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan
- Islomxo'ja minorasidan qadimiy Xivaning manzarasini
- Qadimiy bino va masjidlarning tashqi tomonidagi rang-barang naqshlar
- Ichan-Qal'a manzarasiga chizilgan janr haykaltaroshliklari
- Toshhovli saroyiga kiraverishdagi pechkachining aravachasi
- Juma masjidi ibodatxonasi – turli davrlardagi Xiva yog'och o'ymakorligi uslubidan hikoya qiluvchi o'ziga xos muzey

### O'ZINGIZ BILAN OLIB KETISHNI UNUTMANG:
- Xorazm gilamlari – bezaklari va ranglari betakror bo'lgan qo'l mehnati buyumlari
- Charm mahsulotlari – Xiva hunarmandlari tomonidan yasalgan sumka, kamar va poyabzallar
- Mahalliy bozorlarda topish mumkin bo'lgan an'anaviy sharqona ro'mollar va ipak matolar



# Узбекистан с неожиданной стороны

## O‘zbekiston kutilmagan rakursdan

*О каждой стране можно узнать что-то необычное, и Узбекистан – не исключение. Предлагаем погрузиться в детали, которые помогут увидеть нашу удивительную страну с новой, неожиданной стороны.*

*Har bir mamlakat haqida g‘ayrioddiy ma’lumotlarni bilib olish mumkin, O‘zbekiston ham bundan mustasno emas. Ajoyib yurtimizni yangi, kutilmagan rakursdan ko‘rishga yordam beradigan tafsilotlar bilan tanishishni taklif etamiz.*



Ташкент, один из самых древних и крупнейших городов региона, впечатляет не только своей историей, но и масштабом. Сегодня его площадь составляет 334 квадратных километра, а население превышает 3 миллиона человек. Он занимает почетное 4-е место среди городов СНГ по численности. В 2009 году жители Ташкента отметили юбилейную дату – 2200 лет существования города, в то время как 2750-летний Самарканд – ровесник Рима.

Mintaqaning eng qadimiy va yirik shaharlaridan biri bo‘lgan Toshkent nafaqat tarixi, balki ko‘lami bilan ham hayratda qoldiradi. Bugungi kunda uning maydoni 334 kvadrat kilometrni tashkil qiladi, aholisi esa 3 million kishidan oshadi. U aholi soni bo‘yicha MDH shaharlari orasida faxrli 4-o‘rinni egallaydi. 2009-yilda toshkentliklar shaharning 2200 yilligini nishonladilar, ayni vaqtda esa, 2750 yoshli Samarqand Rim bilan tengdosh hisoblanadi.







На территории Узбекистана найдены следы старейших поселений. Например, останки неандертальца, возраст которых не менее 50 000 лет, а самые ранние обнаруженные петроглифы датированы эпохой мезолита (15 000–6000 лет до н.э.)

O‘zbekiston hududida eng qadimgi odamlar manzilgohlarining izlari topilgan. Masalan, yoshi kamida 50 ming yil bo‘lgan neandertal qoldiqlari va eng qadimgi topilgan petrogliflar mezolit davriga (miloddan avvalgi 15000-6000-yillar) oid.

Узбекистан – страна открытых дверей: в 2023 году республику посетило более 6,6 миллиона туристов преимущественно из стран СНГ: Таджикистана, Казахстана, Кыргызстана и России, но и гостей из Турции, Индии, Китая и Европы становится всё больше.

O‘zbekiston – ochiq eshiklar mamlakati: 2023-yilda respublikamizga 6,6 milliondan ortiq sayyoh tashrif buyurdi. Asosan MDH mamlakatlari: Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Rossiyadan, shuningdek, Turkiya, Hindiston, Xitoy va Yevropadan keluvchilar soni tobora ortib bormoqda.





Базар Чорсу – не просто торговая площадка, а живая история, которая началась ещё в VIII веке, он считается одним из крупнейших в Центральной Азии. Название базара обусловлено особенностью его строения: в переводе с персидского "чорсу" означает четыре дороги и столько же входов, через которые вы можете попасть в куполообразное здание.

Chorsu bozori – shunchaki savdo maydoni emas, balki VIII asrdayoq boshlangan jonli tarix. Bundan tashqari, u Markaziy Osiyodagi eng yirik bozorlardan biri sanaladi. Bozorning nomi uning tuzilish xususiyatidan kelib chiqqan: forscha "Chorsu" to'rt yo'l va gumbazsimon binoga kirish mumkin bo'lgan shuncha kirish joyi degan ma'noni anglatadi.

Сырдарья – самая длинная река Центральной Азии, протекает по территории нескольких стран: Кыргызстана, Узбекистана, Таджикистана и Казахстана. Протяжённость этой живой артерии составляет более 2200 километров.

Sirdaryo – Markaziy Osiyoning eng uzun daryosi bo'lib, bir necha davlatlar: Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Qozog'iston hududidan oqib o'tadi. Bu hayot arteriyasining uzunligi 2200 kilometrdan oshadi.



Ташкентское метро было открыто в 1977 году и долгое время являлось единственным в Центральной Азии. При строительстве применялся опыт шести городов бывшего СССР и Японии – из-за сложных и уникальных сейсмотектонических, геологических и климатических условий. При оформлении многих станций использовался нуратинский, газганский мрамор и узбекский гранит.

Toshkent metropoliteni 1977-yilda ochilgan va uzoq vaqt davomida Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan. Murakkab va noyob seysmotektonik, geologik va iqlim sharoitlari tufayli, qurilishda sobiq SSSR ning oltita shahri va Yaponiya tajribasi qo'llanilgan. Ko'plab stansiyalarni bezatishda Nurota, G'ozg'on marmarlari va o'zbek granitidan foydalanilgan.

Гиссарский хребет – самая высокая точка Узбекистана. Гора Хазрет-Султан расположена на вершине хребта, и ее высота достигает отметки в 4643 метра над уровнем моря.

Hisor tizmasi – O'zbekistonning eng baland nuqtasi. Hazrati Sulton tog'i tizmaning cho'qqisida joylashgan bo'lib, uning dengiz sathidan balandligi 4643 metrga yetadi.









Юго-западнее от хребта находится Гиссарский государственный заповедник, где под охраной обитают исчезающие виды: тянь-шаньский бурый медведь, белокоготный медведь, снежный барс, туркестанская рысь, среднеазиатская выдра, среднеазиатская кобра, бородач, снежный гриф, беркут, белоголовый сип, черный гриф, балобан, орел-карлик и многие другие.

Tog' tizmasining janubi-g'arbida Hisor davlat qo'riqxonasi joylashgan, u yerda yo'qolib borayotgan hayvonlar va qushlar muhofaza qilinadi: Tyanshan qo'ng'ir ayig'i, oq tirnoqli ayiq, qor qoploni, Turkiston silovsini, O'rta Osiyo suvsarlari, O'rta Osiyo kobrasi, qoraburgut, qor tasmasimon qushi, burgut, oq boshli qumoy, qora tasma, itolg'i, mitti burgut va boshqalar.



Узбекистан – родина телевидения. Именно здесь 26 июля 1928 года было передано первое изображение на расстоянии.

Oʻzbekiston – televideniyening vatani. Aynan shu yerda 1928-yil 26-iyulda birinchi marta masofadan turib tasvir uzatilgan.



В Ташкентском государственном университете востоковедения хранится одна из самых крупных коллекций средневековых рукописей на арабском, персидском и турецком языках – более 25 000 экземпляров. Это настоящая библиотека сокровищ, которая позволяет заглянуть в далёкое прошлое.

Toshkent davlat Sharqshunoslik universitetida arab, fors va turk tillaridagi oʻrta asr qoʻlyozmalarining eng yirik toʻplamlaridan biri – 25 000 dan ortiq nusxasi saqlanadi. Bu haqiqiy xazinalar kutubxonasi boʻlib, uzoq oʻtmishga nazar tashlash imkonini beradi.



Завод UzAuto Motors в Асаке – ведущий производитель автомобилей в Центральной Азии, который ежегодно выпускает свыше 250 000 машин.

Asakadagi UzAuto Motors zavodi – Markaziy Osiyodagi yetakchi avtomobil ishlab chiqaruvchisi, u yiliga 250 000 dan ortiq avtomobil ishlab chiqaradi.



В Узбекистане самая длинная сеть высокоскоростных железных дорог в Центральной Азии. Поезда «Афросиаб» связывают основные города страны и могут похвастаться скоростью, которая позволит вам забыть о пробках и задержках.

Oʻzbekiston Markaziy Osiyodagi eng uzun tezyurar temir yoʻl tarmogʻiga ega. "Afrosiyob" poyezdlari mamlakatning asosiy shaharlarini bogʻlaydi va tirbandlik hamda kechikishlarni unutish imkonini beradigan tezligi bilan maqtana oladi.



Туямуинское водохранилище – это крупнейшее искусственное озеро в Центральной Азии, расположено на границе Узбекистана и Казахстана.

Tuyamoʻyin suv ombori – Markaziy Osiyodagi eng katta sun'iy koʻl boʻlib, Oʻzbekiston va Qozogʻiston chegarasida joylashgan.



По запасам золота Узбекистан занимает четвертое место в мире, уступая только ЮАР, США и России, а по добыче золота – второе место среди стран СНГ после России. Рудник Мурунтау в пустыне Кызылкум – одно из крупнейших месторождений на планете.

Oltin zaxiralari boʻyicha Oʻzbekiston dunyoda faqat Janubiy Afrika, AQSH va Rossiyadan keyin toʻrtinchi oʻrinda, oltin qazib olish boʻyicha esa MDH davlatlari orasida Rossiyadan soʻng ikkinchi oʻrinda turadi. Qizilqum choʻlidagi Muruntov koni sayyoramizdagi eng yirik konlardan biridir.

В Ташкенте расположена самая высокая телебашня Центральной Азии, занимающая 11-е место в мире по высоте. С её смотровой площадки открываются потрясающие виды, которые стоят того, чтобы туда подняться.

Toshkentda Markaziy Osiyodagi eng baland teleminora joylashgan boʻlib, u balandligi boʻyicha dunyoda 11-oʻrinni egallaydi. Uning kuzatish maydonchasidan bu balandlikka chiqishga arzigulik ajoyib manzaralar koʻrinib turadi.





Около 20% территории Узбекистана занимают горы, предлагая потрясающие виды и возможности для активного отдыха.

Oʻzbekiston hududining qariyb 20% togʻlar egallaydi, ular ajoyib manzaralar va faol dam olish uchun imkoniyatlarni taklif etadi.

# ORIENT MOTORS




# ВМЕСТЕ К МЕЧТЕ

+998 71 205 0990 | Адрес: Мирабадский район, Туркистон 7а












+998 71 205 0990 | Адрес: Мирабадский район, Туркистон 7а
orientmotors | www.orientmotors.uz



# Своими глазами: события в Узбекистане, достойные внимания

## O‘z ko‘zingiz bilan: O‘zbekistondagi e’tiborga loyiq voqealar



### ГАСТРОНОМИЧЕСКИЙ ФЕСТИВАЛЬ «99 БЛЮД ИЗ АРАЛЬСКОЙ РЫБЫ»

**Когда:** *25 сентября*
**Где:** *Муйнак, Каракалпакстан*
Готовы к гастрономическому приключению? Добро пожаловать в Муйнак! Этот фестиваль на берегу Арала завоевал сердца гурманов со всего мира. Здесь вы сможете попробовать блюда из аральской рыбы, о которых, возможно, даже не подозревали. Не упустите шанс отведать 99 различных рецептов – и поверьте, вам захочется попробовать все!

### "OROL BALIQLARIDAN 99 TA TAOM" GASTRONOMIK FESTIVALI

**Qachon:** *25-sentyabr*
**Qayerda:** *Mo‘ynoq, Qoraqalpog‘iston*
Gastronomik sarguzashtga tayyormisiz? Mo‘ynoqqa marhamat! Sobiq Orol qirg‘og‘idagi ushbu festival butun dunyo gurmanlarining qalbini zabt etdi. Bu yerda siz Orol balig‘idan tayyorlangan, hatto tasavvur qilmagan taomlarni tatib ko‘rishingiz mumkin. 99 xil retseptni tatib ko‘rish imkoniyatini qo‘ldan boy bermang – ishonchim komilki, barchasini mazasini bilib olishni istaysiz!

---

### X ТАШКЕНТСКАЯ МЕЖДУНАРОДНАЯ БИЕННАЛЕ СОВРЕМЕННОГО ИСКУССТВА

**Когда:** *14–18 октября*
**Где:** *выставочный зал Академии художеств Узбекистана, Ташкент*
В октябре Ташкент вновь станет эпицентром современного искусства. На биеннале вас ждёт уникальная возможность увидеть, как художники со всего мира отражают творческие процессы, происходящие в мире. Это событие не только об искусстве, но и о дружбе, креативности и культурном обмене между народами. Присоединяйтесь к творческому диалогу, объединяющему людей!




### X TOSHKENT XALQARO ZAMONAVIY SAN’AT BIYENNALESI

**Qachon:** *14-18 oktyabr*
**Qayerda:** *San’at akademiyasining ko‘rgazma zallari, Toshkent*
Oktyabr oyida Toshkent yana zamonaviy san’at markaziga aylanadi! Biyennaleda butun dunyodan kelgan zamonaviy rassomlar san’at olamida sodir bo‘layotgan jarayonlarni qanday aks ettirayotganini ko‘rish uchun ajoyib imkoniyatga ega bo‘lasiz. Bu nafaqat san’at, balki xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, ijodkorlik va madaniy almashinuv haqidagi tadbirdir. San’at orqali insonlarni birlashtiruvchi ijodiy muloqotga qo‘shiling!

### БОЛЬШОЙ ФЕСТИВАЛЬ ГОСУДАРСТВЕННОГО СИМФОНИЧЕСКОГО ОРКЕСТРА УЗБЕКИСТАНА

**Когда:** *15 октября – 27 декабря*
**Где:** *Ташкент*

В этом году Государственный симфонический оркестр Узбекистана отмечает свой десятилетний юбилей, и делает это с размахом. На протяжении трёх месяцев вас ждет настоящая феерия классической музыки – масштабная программа с шедеврами, которые заставят ваше сердце биться в такт с оркестром. На сцене – музыканты мирового уровня, признанные за пределами Узбекистана, и это действительно будет событие, которое невозможно пропустить.

### O'ZBEKISTON DAVLAT SIMFONIK ORKESTRINING KATTA FESTIVALI

**Qachon:** 15 oktyabr - 27 dekabr
**Qayerda:** Toshkent

Bu yil O'zbekiston davlat simfonik orkestri o'zining o'n yillik yubileyini keng nishonlamoqda! Uch oy davomida sizni klassik musiqaning haqiqiy bayrami – yuragingizni orkestr bilan bir maromda urishga majbur qiladigan durdonalarga to'liq dastur kutmoqda. Sahnaga O'zbekistondan tashqarida tan olingan jahon miqyosidagi musiqachilar chiqadi va bu, haqiqatan ham o'tkazib yuborib bo'lmaydigan voqea hisoblanadi.






### КОНЦЕРТ ОРГАННОЙ МУЗЫКИ

**Когда:** *25 октября*
**Где:** *Государственная консерватория Узбекистана, Ташкент*

Для истинных ценителей музыки и тех, кто хочет открыть для себя новые горизонты, этот концерт станет настоящим открытием. Камерный оркестр «Солисты Узбекистана» представит органные произведения японского композитора Хиро Фуджикаки. Вы даже не догадывались, что орган может звучать так, словно он рассказывает историю природы – от звуков воды до смены времён года. Уникальная возможность услышать музыку, которая впервые звучит в Узбекистане!

### ORGAN MUSIQASI KONSERTI

**Qachon:** *25-oktyabr*
**Qayerda:** *O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Toshkent*

Musiqa ixlosmandlari va o'zlari uchun yangi ufqlarni kashf etishni istovchilarga ushbu konsert haqiqiy mo'jiza bo'ladi. "O'zbekiston solistlari" kamer orkestri yaponiyalik kompozitor Xiro Fujikakaning organ asarlarini ijro etadi. Organ tabiat tarixini – suv tovushidan tortib fasllarning almashinuvigacha hikoya qilayotgandek yangrashi mumkinligini siz hatto tasavvur qilmagansiz. O'zbekistonda ilk bor yangrayotgan musiqani eshitish uchun ajoyib imkoniyat!





### ФЕСТИВАЛЬ «ХОРЕЗМСКИЕ РЫБНЫЕ БЛЮДА»

**Когда:** *25–26 октября*
**Где:** *Хорезмская область, Хивинский район*

Кто готов к кулинарному поединку? Два региона, Каракалпакстан и Хорезм, ведут многолетний спор о том, где готовят самую вкусную рыбу. Приезжайте в Муйнак, а именно туркомплекс «Хива Каракол», и вы сможете стать судьёй в этом вкуснейшем споре. Обещаем, здесь вам не дадут остаться голодным – рыба будет на любой вкус!

### "XORAZM BALIQ TAOMLARI" FESTIVALI

**Qachon:** *25-26 oktyabr*
**Qayerda:** *Xorazm viloyati, Xiva tumani*

Pazandachilik bellashuviga tayyormisiz? Ikki mintaqa, Qoraqalpog'iston va Xorazm ko'p yillik bahsda: eng mazali baliq qayerda tayyorlanadi? Mo'ynoqqa va "Xiva Qorako'l" sayyohlik majmuasiga tashrif buyuring hamda ushbu lazzatli bahsda hakam bo'ling. Va'da beramizki, bu yerda och qolmaysiz - har qanday didga mos baliq taomlarini topasiz!

### THE WORLD OF HANS ZIMMER

**Когда:** *26 октября*
**Где:** *Дворец искусств «Туркистон», Ташкент*

Когда-то вы слышали эти мелодии в кино, а теперь они оживут на ташкентской сцене. Погрузитесь в мир музыки Ханса Циммера и Говарда Шора – саундтреки к любимым фильмам зазвучат по-новому благодаря симфоническому оркестру и хору. Более ста артистов, грандиозное мультимедийное шоу и спецэффекты заставят вас заново прочувствовать кинематографические шедевры. Готовьтесь к мурашкам по коже и звуковому погружению, от которого просто захватит дух.

### THE WORLD OF HANS ZIMMER

**Qachon:** *26-oktyabr*
**Qayerda:** *"Turkiston" san'at saroyi, Toshkent*

Bir paytlar siz bu kuylarni kinoda eshitgansiz, endi ular Toshkent sahnasida jonlanadi. Hans Zimmer va Govard Shorning musiqiy olamiga sho'ng'ing – sevimli filmlaringiz saundtreklari simfonik orkestr va xor ijrosida yangicha jaranglaydi. Yuzdan ortiq ijodkor, ulkan multimedia shousi va maxsus effektlar sizni kino durdonalarini qayta his qilishga undaydi.
Badaningizni jimirlashga va hatto, nafas olishdan to'xtab qolishga sabab bo'ladigan tovush muhitiga sho'ng'ishga tayyor turing.




### СПЕКТАКЛЬ «МАСТЕР И МАРГАРИТА»

**Когда:** *29 октября*
**Где:** *Дворец искусств «Туркистон», Ташкент*

Спектакль «Мастер и Маргарита» – это больше, чем просто театральная постановка. Это погружение в мир Булгакова с великолепными актёрами, лазерным шоу и потрясающими костюмами. На протяжении десяти лет спектакль вызывает аншлаги и срывает овации – не упустите возможность увидеть его своими глазами!

### "USTA VA MARGARITA" SPEKTAKLI

**Qachon:** *29-oktyabr*
**Qayerda:** *"Turkiston" san'at saroyi, Toshkent*

"Usta va Margarita" spektakli – bu shunchaki teatr tomoshasi emas. Bu mohir aktyorlar, lazer shousi va ajoyib liboslar bilan Bulgakov dunyosiga sayr qiling. Spektakl o'n yil davomida teatr zali liq to'lgan holda muvaffaqiyatli namoyish etilmoqda va tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lmoqda – bunday imkoniyatni qo'ldan boy bermang!

### ФЕСТИВАЛЬ ANJIR SAYLI

**Когда:** *30–31 октября*
**Где:** *Ургенчский район, Хорезмская область*
Любите инжир? Тогда этот фестиваль точно для вас! Ургенч известен своим знаменитым инжиром, и в конце октября здесь состоится настоящий праздник этого лакомства. Фестиваль не только откроет агротуристический потенциал региона, но и покажет вам, как местные фермеры превращают выращивание инжира в настоящее искусство.

### ANJIR SAYLI FESTIVALI

**Qachon:** *30-31 oktyabr*
**Qayerda:** *Xorazm viloyati, Urganch tumani*
Anjirni yaxshi koʻrasizmi? Unda ushbu festival aynan siz uchun! Urganch oʻzining mashhur anjirlari bilan taniqli, oktyabr oyining oxirida esa, bu shirinlikning haqiqiy bayrami boʻlib oʻtadi. Festival nafaqat hududning agroturistik salohiyatini namoyish etadi, balki mahalliy dehqonlar anjir yetishtirishni qanday qilib haqiqiy san'atga aylantira olganliklarini koʻrsatadi.

### ФЕСТИВАЛЬ «ХОРЕЗМСКАЯ НАЦИОНАЛЬНАЯ ВЫСТАВКА ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ И РЕМЁСЕЛ»

**Когда:** *30–31 октября*
**Где:** *Хива, Хорезмская область*
На выставке будут представлены лучшие национальные блюда и уникальные изделия ремесленников региона. Здесь можно будет не только насладиться кулинарными шедеврами, но и приобрести изумительной красоты изделия ручной работы. Это отличная возможность открыть для себя туристический потенциал Хорезма и увезти с собой частичку этого удивительного места.

### "XORAZM OZIQ-OVQAT VA HUNARMANDCHILIK MILLIY KOʻRGAZMASI" FESTIVALI

**Qachon:** *30-31 oktyabr*
**Qayerda:** *Xiva, Xorazm viloyati*
Koʻrgazmada viloyatning eng sara milliy taomlari va noyob hunarmandchilik mahsulotlari namoyish etiladi. Bu yerda nafaqat pazandachilik durdonalaridan bahramand boʻlish, balki betakror qoʻl mehnati mahsulotlarini xarid qilish mumkin. Bu Xorazmning sayyohlik salohiyatini kashf etish va ajoyib oʻlkaning bir boʻlagini oʻzingiz bilan olib ketish uchun ajoyib imkoniyat beradi.





### ORGANIC FOOD FESTIVAL И TASTE OF UZBEKISTAN

**Когда:** *2–3 ноября*
**Где:** *Гулистан, Сырдарьинская область*
Добро пожаловать на праздник для тех, кто ценит натуральные продукты и хочет попробовать настоящую узбекскую кухню! Вкусные, органические, и, главное, экологически чистые блюда ждут вас на этом фестивале. Вы будете приятно удивлены тому, как гастрономические традиции могут соединяться с новейшими мировыми трендами.

### ORGANIC FOOD FESTIVAL VA TASTE OF UZBEKISTAN

**Qachon:** *2-3-noyabr*
**Qayerda:** *Guliston, Sirdaryo viloyati*
Tabiiy mahsulotlarni qadrlaydigan va haqiqiy oʻzbek oshxonasini tatib koʻrishni istaydigan barchaga, xush kelibsizlar! Mazali, organik va eng muhimi, ekologik toza taomlar sizni ushbu festivalda kutmoqda. Siz gastronomik an'analarning eng soʻnggi jahon tendensiyalari bilan qanday uygʻunlashganini koʻrib hayratda qolasiz.






### МЕЖДУНАРОДНЫЙ ПОЛУМАРАФОН "SAMARQAND MARATHON"

**Когда:** *2–3 ноября*
**Где:** *Самарканд*
Время завязывать кроссовки и готовиться к забегу по историческим улицам Самарканда! Дистанции на любой уровень подготовки – 21, 10 и 2 километра – позволят каждому стать частью этого спортивного праздника. А если бег – не ваше, то скандинавская ходьба станет отличной альтернативой. После финиша вас ждёт церемония награждения и насыщенная развлекательная программа. Пробежка по Самарканду – это не только спорт, но и встреча с историей на каждом шагу!

### "SAMARQAND MARATHON" XALQARO YARIM MARAFONI

**Qachon:** *2-3-noyabr*
**Qayerda:** *Samarqand*
Krossovkalaringizni bogʻlash va Samarqandning tarixiy koʻchalarida yugurish uchun tayyorgarlik koʻrish vaqti keldi! Har qanday tayyorgarlik darajasidagi ishtirokchilar uchun moʻljallangan 21, 10 va 2 kilometrlik masofalar har bir kishiga ushbu sport bayramining bir qismi boʻlish imkonini beradi. Agar yugurish sizga mos kelmasa, "Skandinavcha yurish" ajoyib variant boʻladi. Finishdan soʻng, sizni mukofotlash marosimi va qiziqarli dastur kutmoqda. Samarqand boʻylab yugurish nafaqat sport, balki har qadamda tarix bilan uchrashuv hamdir!



### ECO DRIFT SHOW – МЕЖДУНАРОДНЫЙ ФЕСТИВАЛЬ ЭЛЕКТРОМОБИЛЕЙ

**Когда:** *4–5 ноября*
**Где:** *Ташкентская область*
В ноябре Ташкентская область станет ареной для впечатляющего шоу электромобилей. Здесь можно будет не только увидеть захватывающие заезды и дрифт-шоу, но и почувствовать, что экологически чистый транспорт – это не просто будущее, а уже настоящее. Присоединяйтесь к фестивалю и поддержите экологию вместе с любителями электромобилей со всего мира!

### ECO DRIFT SHOW — XALQARO ELEKTROMOBILLAR FESTIVALI

**Qachon:** *4-5-noyabr*
**Qayerda:** *Toshkent viloyati*
Noyabr oyida Toshkent viloyati elektromobillarning ajoyib namoyishi oʻtkaziladigan maydonga aylanadi. Bu yerda nafaqat hayajonli poygalar va drift-shouni koʻrish, balki ekologik toza transportning kelajak emas, bugungi kun ekanligini his qilish mumkin boʻladi. Festivalga qoʻshiling va butun dunyo boʻylab elektromobil muxlislari bilan birgalikda ekologiyani qoʻllab-quvvatlang!

### МЕЖДУНАРОДНЫЙ ТУРНИР ПО МОТОКРОССУ

**Когда:** *14–16 ноября*
**Где:** *Ферганская и Навоийская области*

Любите адреналин и скорость? Тогда этот турнир – для вас! Международные соревнования по мотокроссу привлекут внимание всех, кто жаждет зрелищ и экстрима. Рёв моторов, пыль с трассы и гоночный азарт – всё это вас ждёт в двух регионах Узбекистана.

### MOTOKROSS BO'YICHA XALQARO TURNIR

**Qachon:** *14-16 noyabr*
**Qayerda:** *Farg'ona va Navoiy viloyatlari*

Adrenalin va tezlikni yoqtirasizmi? Unda ushbu turnir aynan siz uchun! Motokross bo'yicha xalqaro musobaqalar tomosha va ekstrimga chanqoq bo'lganlarning e'tiborini tortadi. Motorlarning guvillashi, trassadagi chang va poyga hayajoni – bularning barchasi sizni O'zbekistonning ikki hududida kutmoqda.





### ТАШКЕНТСКАЯ МЕЖДУНАРОДНАЯ ТУРИСТИЧЕСКАЯ ЯРМАРКА «ТУРИЗМ НА ШЕЛКОВОМ ПУТИ»

**Когда:** *21–23 ноября*
**Где:** *Ташкент*

Эта ярмарка – настоящее событие в мире туризма. Вы сможете познакомиться с лучшими предложениями по туризму в Узбекистане и странах, расположенных вдоль Великого шёлкового пути. Новые знакомства, сотрудничество и, конечно, яркие впечатления гарантированы!

### "IPAK YO'LIDA TURIZM" TOSHKENT XALQARO TURIZM YARMARKASI

**Qachon:** *21-23-noyabr*
**Qayerda:** *Toshkent*

Ushbu yarmarka turizm olamidagi muhim voqea. Siz O'zbekiston va Buyuk Ipak yo'li bo'ylab joylashgan mamlakatlarning eng yaxshi turizm takliflari bilan tanishishingiz mumkin. Yangi tanishuvlar, hamkorlik va albatta, yorqin taassurotlar kafolatlangan!

### ГАСТРОНОМИЧЕСКИЙ ФЕСТИВАЛЬ «РЕСТОРАН ГОДА»

**Когда:** *10–11 декабря*
**Где:** *Ташкент*

Для всех, кто ценит хорошую еду и гостеприимство, этот фестиваль – возможность познакомиться с лучшими ресторанами страны. Оцените восточное гостеприимство на вкус и поддержите любимые заведения в борьбе за звание «Ресторан года»!

### "YIL RESTORANI" GASTRONOMIK FESTIVALI

**Qachon:** *10-11-dekabr*
**Qayerda:** *Toshkent*

Yaxshi taomlarni va mehmondo'stlikni qadrlaydigan barcha kishilar uchun ushbu festival mamlakatning eng yaxshi restoranlari bilan tanishish imkoniyatini beradi. Sharqona mehmondo'stlikni ta'mga qarab baholang va sevimli restoranlaringizni "Yil restorani" unvoni uchun kurashda qo'llab-quvvatlang!






### ЯРМАРКИ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА

**Когда:** *26–29 ноября*
**Где:** *Бухара, Самарканд, Хорезм*

Паломничество – это не только путь к духовному просветлению, но и возможность глубже ознакомиться с историей Узбекистана. Паломнические ярмарки в древних городах откроют перед вами секреты прошлого и позволят соприкоснуться с культурными и религиозными традициями.

### ZIYORAT TURIZMI YARMARKALARI

**Qachon:** *26-29 noyabr*
**Qayerda:** *Buxoro, Samarqand, Xorazm*

Ziyorat nafaqat ma'naviy ma'rifat yo'li, balki O'zbekiston tarixi bilan chuqurroq tanishish imkoniyatidir. Qadimiy shaharlardagi ziyorat yarmarkalari siz uchun o'tmish sir-asrorlarini ochib, madaniy va diniy an'analar bilan tanishish imkonini beradi.





### КОНЦЕРТ АЛЕССАНДРО САФИНА

**Когда:** *13 декабря*
**Где:** *Дворец международных форумов, Ташкент*

Итальянский тенор Алессандро Сафина снова на ташкентской сцене! Его уникальный стиль, соединяющий академическую и поп-музыку, завоевал миллионы сердец по всему миру. Этот вечер станет настоящим музыкальным путешествием – от классических оперных арий до известных мелодий, проникающих в самое сердце.

### ALESSANDRO SAFINA KONSERTI

**Qachon:** *13-dekabr*
**Qayerda:** *Xalqaro forumlar saroyi, Toshkent*

Italiyalik tenor Alessandro Safina yana Toshkent sahnasida! Uning akademik va pop musiqasini uyg'unlashtirgan o'ziga xos uslubi butun dunyo bo'ylab millionlab qalblarni zabt etgan. Mumtoz opera ariyalaridan tortib, yurakka kirib boruvchi mashhur kuylar – ushbu oqshomni haqiqiy musiqiy sayohatga aylantira oladi.

### ФЕСТИВАЛЬ ВИНОДЕЛИЯ SOGDIAN WINE FESTIVAL

**Когда:** *17–18 декабря*
**Где:** *Самаркандская область, Тайлакский район*

Вино, самаркандские виды и тёплая атмосфера – что может быть лучше? На фестивале вас ждёт дегустация лучших вин региона и погружение в традиции узбекского виноделия. Для ценителей этого напитка – настоящий рай!

### SOGDIAN WINE FESTIVAL VINOCHILIK FESTIVALI

**Qachon:** *17-18-dekabr*
**Qayerda:** *Samarqand viloyati, Toyloq tumani*

Vino, Samarqand manzaralari va yoqimli muhit – bundan yaxshiroq narsa bormi? Festivalda siz mintaqaning eng sara vinolarini tatib ko'rishingiz va o'zbek vinochiligi an'analari bilan tanishishingiz mumkin. Bu ichimlikni qadrlovchilar uchun – haqiqiy jannat!

### FLOYD UNIVERSE – SYMPHONY TRIBUTE SHOW

**Когда:** *24 декабря*
**Где:** *Ташкент*

Потрясающий подарок для фанатов Pink Floyd: симфоническое шоу, спецэффекты, свет и звук – всё, чтобы с точностью передать атмосферу легендарных концертов. Если вы мечтали соприкоснуться с творчеством культовой группы, не упустите шанс!

### FLOYD UNIVERSE - SYMPHONY TRIBUTE SHOW

**Qachon:** *24-dekabr*
**Qayerda:** *Toshkent*

Pink Floyd muxlislari uchun ajoyib sovg'a: simfonik shou, maxsus effektlar, yorug'lik va ovoz – afsonaviy konsertlar muhitini aniq yetkazish uchun barcha narsa mavjud. Agar afsonaviy guruhni sahnada ko'rishni orzu qilgan bo'lsangiz, ushbu shou sizni o'sha tuyg'uga imkon qadar yaqinlashtiradi!



# Сундучок счастливой птицы: арт-галерея HAPPY BIRD

## Baxtiyor qush sandiqchasi: HAPPY BIRD san’at galereyasi



Практически в каждом старом городе обязательно есть такой магазин-сундучок, зайдя в который как будто попадаешь в безвременье. Обычно они украшены старинными зеркалами и мебелью, восточными коврами, картинами и необычными светильниками, а содержимое «сокровищниц» хочется бесконечно трогать, нюхать и рассматривать. Арт-галерея HAPPY BIRD в Центре ремесленников Самарканда именно такая. Только вдобавок ко всему вышеперечисленному ее украшают птицы. Счастливые птицы – в виде гирлянд, мягких игрушек, статуэток, декоративных изделий, тарелок: чайки, совы, галки, петухи, павлины, лебеди...

Deyarli har bir eski shaharda shunday doʻkon-sandiqcha boʻladiki, unga kirganingda vaqt xuddi toʻxtagandek tuyuladi. Bunday doʻkonlar odatda qadimiy koʻzgu va mebellar, sharq gilamlari, suratlar va gʻayrioddiy chiroqlar bilan bezatilgan boʻlib, “xazinalar”dagi buyumlarni tinimsiz ushlab, hidlab, tomosha qilging keladi. Samarqand Hunarmandlar markazidagi HAPPY BIRD san’at galereyasi aynan ulardan biridir. Faqat yuqorida aytilganlarga qoʻshimcha ravishda uni qushlar bezab turadi. Marjonlar, yumshoq oʻyinchoqlar, haykalchalar, dekorativ buyumlar, likopchalar koʻrinishidagi baxtiyor qushlar: baliqchi qushlar, boyqushlar, zagʻchalar, xoʻrozlar, tovuslar, oqqushlar...





Арт-галерея начала свою работу в конце 2005 года, но только 4 июня 2006 года состоялось официальное открытие с запуском голубей. В HAPPY BIRD продается преимущественно женская верхняя одежда из винтажных и современных тканей, и, покупая здесь вещь, можно быть уверенной в том, что другой такой ни у кого не будет. Создательница этого чуда, которое в путеводителях по Самарканду находится в первой десятке must see, Елена Ладик, ответила на наши вопросы. Приглашаем и вас погрузиться в чарующий мир птиц, тканей и волшебных историй.

**— Можно я начну именно с птиц, а не с одежды? Я прочитала, что название галереи родилось благодаря фильму «Птицы» (Le Peuple Migrateur, 2001. Дословно – «Птицы – странствующий народ». – Прим. ред.). Это так?**

– Название галереи родилось не сразу, а через несколько лет с момента начала работы, к тому же, первое время была путаница с названием: иногда на афишах фигурировало «СЧАСТЛИВАЯ ПТИЦА», иногда – HAPPY BIRD.

Первыми птицами, которые попали в галерею, были живые голуби. По сценарию, на открытии с наступлением сумерек мы зажгли светильники, переделанные из плетёных птичьих клеток. Внутри этих клеток находились разноцветные лампоч-

San’at galereyasi oʻz faoliyatini 2005-yilning oxirida boshlagan boʻlsa-da, rasmiy ochilish marosimi 2006-yil 4-iyunda kaptarlar uchirilishi bilan boʻlib oʻtgan. HAPPY BIRD’da asosan vintaj va zamonaviy matolardan tikilgan ayollar ustki kiyimlari sotiladi. Bu yerdan kiyim xarid qilar ekansiz, boshqa hech kimda aynan shunday libosni uchratmaslikka ishonch hosil qilishingiz mumkin. Samarqand boʻyicha sayohatnomalardagi must see oʻnligidan oʻrin olgan bu moʻjizaning yaratuvchisi Yelena Ladik savollarimizga javob berdi. Sizlarni ham qushlar, matolar va sehrli hikoyalar olamiga sayr qilishga taklif etamiz.

**— Suhbatimizni liboslardan emas, aynan qushlardan boshlasam maylimi? Galereyaning nomi “Qushlar” (Le Peuple Migrateur, 2001. Soʻzma-soʻz “Qushlar — koʻchmanchi xalq” degan ma’noni anglatadi — tahririyat izohi) filmi tufayli paydo boʻlgani haqida oʻqigan edim. Shu rostmi?**

— Galereyaning nomi darhol emas, balki faoliyatimiz boshlanganidan bir necha yil oʻtgach paydo boʻlgan, qolaversa, dastlabki paytlarda nom bilan bogʻliq chalkashliklar ham yuzaga kelgan: ba’zan afishalarda “BAXTIYOR QUSH”, gohida esa “HAPPY BIRD” deb koʻrsatilardi.

Galereyaga dastlab kelgan qushlar tirik kabutarlar edi. Ssenariyga koʻra, ochilish marosimida qosh qorayishi bilan toʻqilgan qush



ки, что добавляло ещё одну яркую нотку в праздничный колорит фуршета. Для дополнительного эффекта у соседа, который держал голубей, мы купили несколько птичек и отпустили их, когда загорелись лампочки. Это было очень красиво, но мало кто из гостей заметил наш маневр – к тому времени запасы шампанского были изрядно опустошены, все были увлечены общением и дегустацией яств. Птички вернулись к себе домой, а у нас остался красивый кадр от друга-фотографа Наби.

А следующие птички приживались у нас надолго, некоторых я привозила из многочисленных поездок, а иных нам дарили дети, друзья и, что особенно приятно, – те гости, которые посещали нас повторно. С благодарностью вспоминаю всех, кто пополнил и продолжает пополнять наш птичий коллектив. Магда из Голландии в свой очередной визит пришла с горшком цветущей герани и семейной реликвией – морской чайкой из дома своей мамы. Моя дорогая подруга Наима, спрятавшись от дождя в антикварном магазине в Германии, прикупила несколько очаровательных птичек для нас… Всех не перечислишь, таких моментов было очень много, и они действительно украшают не только интерьер салона, но и мою жизнь.

Птички в галерее не продаются, хотя спрос на них большой. Только однажды захотелось преподать урок благоразумия гостю, не воспринимающему мой вежливый отказ расстаться с мелкой деревянной синичкой. Он с настойчивостью, достойной лучшего применения, торговался и дошёл до какой-то баснословной цены. Его спутница была впечатлена напористостью своего мужчины и вдохновляла его восхищёнными взглядами. Дабы прекратить этот долгий торг, я в какой-то момент остановила его словами: «Сейчас заверну для вас!». Но это был единственный случай «птичьего бизнеса». Иногда мы дарим особо дорогим гостям дубликаты птиц из салона, но всё-таки предпочитаем, чтобы они «слетались» к нам отовсюду.

Коллекционирование чего-либо предполагает систематизацию, а поскольку я этим не умею и не хочу заниматься по причине спонтанности своей натуры, то ответить на вопрос, сколько и каких птичек живут в нашем салоне, не могу. А вот во дворе нашего дома расхаживают вполне живые нахальные индийские скворцы (майны), на винограднике обосновались дикие голуби (горляшки), а весной какая-то мелкая птичка удивительно красиво славит своим пением Создателя.

**– Первое, что чувствуешь, ступая на порог галереи, – то, что тебе здесь искренне рады, нет порой чересчур навязчивого сопровождения «купи-купи-купи», причём это считывается в первые минуты. Как создавалось и наполнялось ваше волшебное пространство?**

— Наш салон располагается в Центре ремесленников на окраине махалли бухарских евреев. Возможно, когда-то это строение принадлежало богатому представителю этой колоритной диаспоры, так что само пространство обязывает. Интерьер салона я продумывала сама, без дизайнера.

Поскольку мы шьём одежду преимущественно из винтажных тканей, то хотелось создать затейливое пространство в духе антикварной лавки – подобие «ностальгического магазинчика» из фильма Вуди Аллена «Полночь в Париже». Наши блошиные рынки всё ещё радуют какими-то артефактами прошлого, а 18 лет назад была возможность приобрести потрясающую коллекцию винтажных и антикварных предметов. Ну и друзья, конечно, с пониманием отнеслись к этой задаче и дарили старинные зеркала, кресла и прочую роскошь. В галерее так-

qafaslaridan yasalgan chiroqlarni yoqdik. Bu qafaslar ichida turli rangdagi lampochkalar boʻlib, ular furshetning bayramona tusiga yana bir rang-baranglik bagʻishlardi. Kuchliroq taassurot yaratish maqsadida, kabutar boqadigan qoʻshnimizdan bir nechta qushchani sotib olib, lampochkalar yonganida ularni qoʻyib yubordik. Bu nihoyatda chiroyli manzara edi, lekin mehmonlarimizning juda oz qismi bizning bu harakatimizni payqadi, chunki bu vaqtga kelib shampan zaxirasi ancha-muncha kamayib, hamma muloqot qilish va taomlarni tatib koʻrishga berilib ketgandi. Qushchalar oʻz uyiga uchib ketdi, bizda esa, fotosuratchi doʻstimiz Nabi tufayli chiroyli kadrlar qoldi.

Keyingi qushlar esa bizda uzoq vaqtga qolib ketishdi, ularni koʻplab sayohatlarimdan olib kelganman. Shuningdek, qushlarni bizga bolalar, doʻstlarimiz va ayniqsa, quvonchli jihati, bizni qayta ziyorat qilgan mehmonlarimiz sovgʻa qilishgan. Qushlar jamoamizni toʻldirgan va toʻldirishda davom etayotgan barcha insonlarni minnatdorchilik bilan eslayman. Gollandiyalik Magda navbatdagi tashrifi chogʻida bir tuvak gullayotgan yorongul va oilaviy yodgorlik – onasi uyidan dengiz baliqchi qushini olib kelgandi. Germaniyada yomgʻirdan qochib antikvar doʻkoniga kirib qolgan qadrdon dugonam Naima biz uchun bir necha ajoyib qushcha sotib olib kelgandi… Hammani sanab chiqish imkonsiz, bunday lahzalar juda koʻp boʻlgan va ular nafaqat salonimiz interyerini, balki mening hayotimni ham bezaydi.

Garchi talab katta boʻlsa-da, galereyadagi qushlar sotilmaydi. Faqat bir marta kichik yogʻoch chittak bilan xayrlashishdan xushmuomalalik bilan bosh tortganimni qabul qila olmagan mehmonga odobdan saboq bergim keldi. U eʼtiborga loyiq qatʼiyat bilan savdolashib, aql bovar qilmas narxni taklif etdi. Uning hamrohi boʻlgan ayol bu erkakning qatʼiyatliligidan taʼsirlanib, zavq-shavq toʻla nigohlari bilan uni ruhlantirib turardi. Uzoq davom etgan bu tortishuvni toʻxtatish maqsadida: "Hoziroq oʻrab beraman", – deb uni toʻxtatdim. Ammo, bu faqat bir marta roʻy bergan "qush biznesi" edi. Baʼzida biz oʻta qadrli mehmonlarimizga salonimizdagi qushlarning nusxalarini sovgʻa qilamiz, lekin baribir har tomondan oʻzlari bizga "uchib kelishini" maʼqul koʻramiz.

Biror narsani kolleksiya qilish tizimlashtirishni taqozo etadi, men esa buni qanday bajarishni bilmaganim va tuyqus tabiatim tufayli shugʻullanishni xohlamaganim sababli, salonda qancha va qanday qushlar yashashi haqidagi savolga javob bera olmayman. Ammo hovlimizda surbet maynalar bemalol kezib yuradi, uzumlar orasiga musichalar in qurgan, bahorda esa, qandaydir kichik qushcha oʻzining ajoyib xonishi bilan Yaratganga hamdu sanolar aytadi.

**– Galereyaga qadam qoʻyishing bilan seziladigan birinchi narsa – bu yerda seni samimiy qarshi olishadi, koʻpincha bezor qiladigan "oling-oling-oling" degan ortiqcha taklif yoʻq va bu dastlabki daqiqalardanoq seziladi. Sehrli makoningiz qay tarzda yaratilgan va toʻldirilgan?**

– Salonimiz Buxoro yahudiylari mahallasi chetidagi Hunarmandlar markazida joylashgan. Balki, bir vaqtlar bu bino ana shu diasporaning boy vakiliga tegishli boʻlgandir va shuning uchun makonning oʻzi majburiyat yuklaydi. Salon interyerini dizayner yordamisiz, oʻzim ishlab chiqqanman.

Liboslarni asosan vintaj matolardan tikkanimiz uchun Vudi Allenning "Parijda yarim tun" filmidagi "Nostalgik doʻkoncha"-ga oʻxshash antikvar buyumlar doʻkoni ruhidagi antiqa makon yaratishni xohlagandik. Garchi bit bozorlarimiz hali ham





же представлен ряд керамических изделий известных узбекистанских мастеров из Риштана (Центра керамики и известного бренда, расположенного в Ферганской долине. – Прим. ред.) – Шарофиддина Юсупова и Алишера Назирова. Все эти предметы и помогли составить тот образ галереи, который запоминается гостям как нечто непохожее на другие заведения подобного направления.

Хочу подчеркнуть, что мы продаем только одежду, сшитую нами же. Те халаты из сундуков бухарских евреев, что я повесила во второй комнате, считаются наполнением интерьера и не подлежат продаже. Книги можно полистать, войлочные шляпы – примерить и сфотографироваться в них, но мы их не продаём, равно как и броши. Иногда бывают исключения, когда мы что-то дарим из этой категории. Часто звучат вопросы: «Вы здесь живете?». Значит, удалось создать домашний уют, а это очень хорошо.

**– Недавно ведь открылось ещё одно ваше пространство в Вечном городе?**

– Да, нам предоставили шикарный двухъярусный «особняк», на первом этаже которого мы организовали выставку костюмов из галерейных коллекций разных лет, а в целом интерьер носит музейный характер благодаря историческим фотографиям и включению предметов этнографии. На втором уровне хочу организовать кофейню для друзей, чтобы можно было в уютной обстановке с прекрасным видом на водоём и далекую перспективу общаться и устраивать тематические встречи. Но это в планах, пока готов только первый этаж.

**– Давайте теперь перейдем к одежде, так похожей на оперение заморских птичек...**

– Основной наш ассортимент – верхняя женская одежда: пальто-халаты, жакеты и куртки. Есть немного головных уборов, которые отшивались к коллекционным моделям, но потом по разным причинам ансамбль распадался, и тогда они становились объектом притяжения для покупателей – любителей необычных аксессуаров.

Для наших моделей мы в основном используем винтажные ткани очень хорошего качества, созданные во времена, когда производитель следовал всем предписаниям ГОСТа. Они натуральные – шёлковые, шерстяные, хлопковые и смесовые. Их бережно хранят в сундуках как вложение средств в домашний бюджет и основной подарочный фонд для различного рода мероприятий.

o'tmishning allaqanday noyob buyumlari bilan bizni hayratda qoldirishda davom etayotgan bo'lsa-da, 18 yil oldin vintaj va antikvar buyumlarning ajoyib kolleksiyasini sotib olish imkoniyati bor edi. Albatta, do'stlarimiz ham bu masalani tushunib, qadimiy ko'zgu, o'rindiq va boshqa zeb-ziynatlarni sovg'a qilishdi. Shuningdek, galereyada rishtonlik taniqli ustalar — Sharofiddin Yusupov va Alisher Nazirovlarning bir qator kulolchilik buyumlari ham namoyish etilgan (Tahririyat: Farg'ona vodiysida joylashgan mashhur brend va kulolchilik markazi). Mana shu barcha buyumlar galereyaning ushbu yo'nalishda faoliyat yuritadigan boshqa muassasalarga sira o'xshamaydigan o'zgacha qiyofasini yaratishga yordam berdi.

Ta'kidlab o'tmoqchimanki, biz faqat o'zimiz tikkan kiyimlarni sotamiz. Buxoro yahudiylarining sandiqlaridan olingan va ikkinchi xonada osib qo'yilgan xalatlar interyer bezagi bo'lib, ular sotilmaydi. Kitoblarni varaqlab ko'rishingiz, namat shlyapalarni kiyib ko'rib, ularda suratga tushishingiz mumkin, lekin biz ularni ham, to'g'nag'ichlarni ham sotmaymiz. Ba'zan bu toifadagi narsalarni sovg'a qilishimiz mumkin, ammo bu istisno tariqasida bo'ladi. Ko'pincha "Siz shu yerda yashaysizmi?" degan savolni eshitamiz. Demak, uydagi shinam muhitni yaratishga erishganmiz, bu esa, albatta, yaxshi.

**— Yaqinda Boqiy shaharda yana bir maskaningiz ochildi, to'g'rimi?**

— Ha, bizga ikki qavatli hashamatli koshona taqdim etildi va uning birinchi qavatida galereyaning turli yillardagi kolleksiyalarining liboslari ko'rgazmasini tashkil etdik, umuman olganda, interyer tarixiy fotosuratlar va etnografiya buyumlari tufayli muzey xususiyatiga ega. Shinam sharoitda do'stlarim bilan mavzuga oid uchrashuvlar o'tkazish va uzoq istiqbollar haqida suhbatlashish uchun ikkinchi qavatda suv havzasi manzarasiga ega qahvaxona tashkil etmoqchiman. Bu hali rejalarimda, hozircha faqat birinchi qavat tayyor.

**— Keling, endi chet eldagi qushlarning patlariga o'xshab ketadigan liboslarga e'tibor qarataylik...**

— Asosiy assortimentimiz — ayollar ustki kiyimlari: palto-xalat, kamzul va kurtkalardan iborat. G'ayrioddiy aksessuarlarni xush ko'radigan xaridorlarning e'tiborini tortadigan buyumlarga aylangan bir nechta bosh kiyimlar ham bor, ular kolleksiya modellariga mo'ljallangan, lekin ansambli turli sabablarga ko'ra tarqalib ketgan.

Modellarimiz uchun asosan, ishlab chiqaruvchi GOSTning barcha ko'rsatmalariga rioya qilgan davrlarda yaratilgan juda sifatli vintaj matolardan foydalanamiz. Ular tabiiy — ipak, jun, paxta va aralashmalardan iborat. Bu matolar oila byudjetiga sarmoya sifatida va turli tadbirlar uchun asosiy sovg'a jamg'armasi hisoblanib, avaylab sandiqlarda saqlanadi.





А ещё мы приобретаем ткани ручного ткачества у мастеров из древнего города Маргилана, что в Ферганской долине. Они созданы вручную по старинной технологии нанесения узора на нити до заправки на ткацкий станок, такая технология у нас называется «абровой», а в мире её знают как икат.

Иногда покупаем и фабричные ткани современного производства, но в их натуральности нельзя быть уверенными, потому что сегодняшние технологии позволяют скрыть присутствие синтетики. Мы редко их используем, пока хватает запасов винтажа. Винтажные ткани хранятся отрезами, поэтому отшивать стандартные модели мы не можем, и всякий раз приходится импровизировать исходя из того, что у тебя в наличии. Именно поэтому все наши изделия уникальны, нет похожих!

Yana biz, Farg‘ona vodiysidagi qadimiy Marg‘ilon shahri hunarmandlarining qo‘lda to‘qilgan matolarini ham xarid qilyapmiz. Bu matolar to‘quv dastgohida to‘qishdan oldin iplarga naqsh solishning eski texnologiyasi bo'yicha qo'lda yaratilgan, bizda bunday texnologiya "abrova" deb nomlanadi, dunyoda esa ikat (adras), deb tanilgan.

Ba’zida zamonaviy ishlab chiqarilgan fabrika matolarini ham sotib olamiz. Bugungi texnologiyalar sintetikaning mavjudligini yashirishga imkon bergani uchun ham matolarning tabiiyligiga ishonch hosil qila olmaymiz. Ulardan kamdan kam hollarda foydalanamiz, hozircha vintaj zaxiralari yetarli. Vintaj gazlamalar bir kiyimlik bo‘laklar holida saqlanadi, shuning uchun standart modellar tika olmaymiz va har safar mavjud gazlamadan improvizatsiya qilishimizga to‘g‘ri keladi. Aynan shunga barcha mahsulotlarimiz o‘ziga hos va ularga o‘xshashi yo‘q!



Gazlamalarni biz qayerdan va qanday topamiz? Savollaringizga javob berayotganimda qimmatbaho narsalar solingan ikkita og‘ir tuguncha ko‘tarib kelgan yetkazib beruvchi dugonamning kutilmagan tashrifiga chalg’idim. Axir, bularni sotib olmaslik mumkinmi?! Garchi uyda bunday xazina shunchalik ko‘p to‘plangan bo‘lsa-da, umrim davomida hammasini tikib tugatib bo‘lmaydi... Bundan tashqari, ularni qayergadir joylashtirish kerak, bu esa yanada jiddiyroq masala... Ammo... Yo Rabbim! Shifon, krepdeshin, panbarxat va boshqa madapolamlar (Tahririyat: juda yupqa, lekin shu bilan birga juda pishiq gazlama) — ularni olish istagiga qarshi turib bo‘lmaydi! Isrofgarlar, yo‘ldan ozdiruvchilar va dugonalarim men uchun xayrli ish qilayotganlarini bilgani uchun o‘ljalarini birinchi bo‘lib menga ko‘rsatishadi.

Ba’zan qadimiy matolar ham uchrab qoladi. Bu XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o‘zbeklarning an’anaviy tarzda qo‘lda yaratilgan gul bosilgan gazlamalaridir. Turkiston Rossiyaga qo‘shib olingandan so‘ng bu yerga arzon rus chit matosini olib kelish boshlangan va juda mashaqqatli bo‘lgan qadimiy gul bosish hunarmandchiligi raqobatga bardosh berolmagani sababli asta-sekin yo‘qola boshladi. Faqatgina 25 yil oldin amaliy san’atning bu turini qayta tiklash masalasi davlat darajasiga ko‘tarildi va hozirda bu texnikada ishlaydigan ustalar bor. Agar eski gul bosilgan gazlama yaxshi saqlanib qolmagan bo‘lsa, uning yaroqli qismlarni qirqib olib, libos tikishda foydalanamiz. Yaxlit kompozitsiyani buzgim kelmaydi, shu sababli kelajakda milliy hunarmandchilikning ushbu turi yuksalishi, tanazzuli va qayta tiklanishi bilan bog‘liq retrospektivani taqdim etish uchun yaxshi tematik ko‘rgazma o‘tkazish niyatida yuqori badiiy namunalarni sotib olaman.

Где и как мы находим ткани? Пока отвечала на ваши вопросы, отвлеклась на неожиданный визит своей приятельницы-поставщицы, которая принесла два увесистых тюка с драгоценным содержимым. Как удержаться и не купить их?! Хотя дома скопился такой запас этих сокровищ, что за мою жизнь точно всё не перешить... И потом, их же надо как-то размещать, а это уже задачка посерьезнее... но... Боже мой! Шифон, крепдешин, панбархат и прочие мадаполаны (Очень тонкая хлопчатобумажная ткань, но при этом высокой прочности. – Прим. ред.) – никак не устоишь! Разорительницы, совратительницы, подруги мои, несут мне первой на осмотр свои трофеи, зная, что делают для меня хорошее дело.

Бывает, попадаются антикварные ткани. Это традиционная узбекская ручная набойка конца XIX – начала XX века. После присоединения Туркестана к России сюда стали завозить дешёвый русский ситец, и древнее ремесло набойки, очень трудоёмкое, не выдержав конкуренции, стало постепенно исчезать. Только лет 25 назад на государственном уровне был поставлен вопрос о возрождении этого вида прикладного творчества, и теперь есть мастера, работающие в данной технике. Если старинная набойка плохой сохранности, то мы вычленяем целые куски и используем для создания одежды. Цельную композицию разрушать не хочется, поэтому я приобретаю высокохудожественные экземпляры с мыслью провести когда-нибудь хорошую тематическую выставку, представив на ней ретроспективу подъёма, упадка и возрождения этого вида национального ремесла.



*Я родилась в Украине, в городе Кировоград (сейчас – Кропивницкий) в 1952 году. Это прелестный городок, центральный район которого был застроен архитектурой в стиле модерн, а улицы во многих случаях выложены булыжниками. Наш дом располагался в окраинной части, неподалеку от реки Ингул, где мы плавали до посинения, играли в казаков-разбойников и самым отчаянным удавалось пролезть через колючее заграждение на охраняемую территорию огромного железнодорожного моста через реку. Этот мост был выложен из огромных каменных глыб и при вечернем освещении напоминал старинный замок. На огороженной территории и трава была гуще, и цветы пышнее, и риск быть наказанным придавал особую остроту ощущениям. Думаю, что охрана нас замечала всегда, но только в редких случаях сторож-«мостовик» для острастки вскидывал ружье и подавал зычный голос, тут уж и смельчаки спасались бегством, царапаясь о проволоку.*

*Принести маме букет из «зоны» считалось особым шиком, а родители не догадывались, какому риску подвергались их дети-шалопаи. Зимой катались на коньках, санках, переходили через ледяную реку на другой берег воровать из цистерн сладкую вязкую патоку, которую накручивали на палки и в свете луны наслаждались её незабываемым вкусом. Такое вот незатейливое послевоенное детство выпало на нашу долю, за что я бесконечно благодарна судьбе.*

*Помню, как собирали плохонькие репродукции картин, в основном из журналов «Работница» и «Крестьянка», клеили их в тетрадки, ходили в библиотеку за 5 километров через высоченную железнодорожную насыпь и учились в школе, где когда-то была семинария. К сожалению, мечта получить образование искусствоведа отодвинулась на несколько лет: по настоянию родителей после восьмого класса пришлось поступить в машиностроительный техникум, и по завершении учёбы я выбрала Ташкент.*

*Восток казался очень привлекательным местом для жизни, и я не разочаровалась в своём выборе. Так судьба навсегда связала меня с Узбекистаном, где я смогла реализовать себя как личность и заняться делом, которое мне бесконечно интересно. Училась я заочно в Санкт-Петербургской академии художеств имени Ильи Репина на искусствоведческом факультете, потом был интересный опыт работы в Ферганском областном краеведческом музее, где я создала отдел искусств и долгие годы им заведовала. Ну а потом, в 2005 году, уже случился и мой HAPPY BIRD.*

*Men 1952-yilda Ukrainaning Kirovograd (hozirgi Kropivnitskiy) shahrida tug‘ilganman. Bu markaziy hududi modern uslubidagi me’morchilik asosida qurilgan, ko‘chalari esa ko‘p hollarda toshyo‘l yotqizilgan ajoyib shaharcha. Uyimiz uning chekkasida, Ingul daryosi bo‘yida joylashgan bo‘lib, biz u yerda holdan toyguncha suzar, qaroqchi-kazaklar o‘yinini o‘ynar edik, eng dovyuraklar esa tikanli to‘siqdan oshib, daryodan o‘tgan ulkan temir yo‘l ko‘prigining qo‘riqlanadigan hududiga kirishga muvaffaq bo‘lardi. Bu ko‘prik ulkan tosh palaxsalardan qurilgan bo‘lib, kechki yog‘duda ko‘hna qal’ani eslatardi. To‘silgan hududdagi o‘t-o‘lanlar qalinroq, gullar ham hashamdorroq edi, jazolanish xavfi esa alohida kuchli hissiyotlar baxsh etardi. Nazarimda, qo‘riqchilar bizni doimo ko‘rib turgan, lekin “ko‘prikchi”- qorovul kamdan kam hollardagina bizni qo‘rqitish uchun miltig‘ini ko‘tarib, baqirib-chaqirib qo‘yardi va shunda eng botirlar ham simlar orasidan tirnalib juftakni rostlab jon saqlardi.*

*“Hudud”dan onasiga guldasta olib kelish o‘zgacha mardlik sanalardi, ota-onalar esa shumtaka bolalari o‘zlarini qanday xavf ostiga qo‘yganini bilmasdi. Qishda konki va chanada uchardik, sisternalardan yopishqoq shirin qiyom o‘g‘irlab, keyin uni tayoqlarga o‘rab, oy nurida uning unutilmas ta’midan lazzatlanish uchun muzlagan daryodan narigi qirg‘oqqa o‘tardik. Chekimizga urushdan keyingi davrdagi mana shunday beg‘ubor bolalik tushgan va bu uchun taqdirdan behad minnatdorman.*

*Asosan “Rabotnitsa” va “Krestyanka” jurnallaridagi sifati yaxshi bo‘lmagan reproduksiyalarni yig‘ib, daftarlarga yopishtirganimiz, baland temir yo‘l ko‘tarmasi orqali 5 kilometr naridagi kutubxonaga qatnaganlarimiz va bir vaqtlar seminariya bo‘lgan maktabda o‘qiganimiz yodimda. Afsuski, san’atshunos bo‘lish orzuim bir necha yil ortga surildi: sakkizinchi sinfdan keyin ota-onamning qistovi bilan mashinasozlik texnikumiga kirishga majbur bo‘ldim va o‘qishni tugatgach, Toshkentni tanladim.*

*Sharq yashash uchun juda jozibali joy bo‘lib tuyulardi va tanlovimdan hafsalam pir bo‘lmadi. Shu tariqa taqdir meni O‘zbekiston bilan bir umrga bog‘ladi, bu yerda o‘zimni shaxs sifatida namoyon etib, o‘zimga cheksiz maroqli bo‘lgan ish bilan shug‘ullana oldim. Ilya Repin nomidagi Sankt-Peterburg Badiiy akademiyasining san’atshunoslik fakultetida sirtdan tahsil oldim, so‘ngra Farg‘ona viloyat o‘lkashunoslik muzeyida qiziqarli faoliyat davrim bo‘ldi, u yerda san’at bo‘limini tashkil etib, uzoq yillar unga mudirlik qildim. Keyin esa, 2005-yilda mening HAPPY BIRD’im dunyoga keldi.*





**— Наверное, глядя на все гениальные произведения, созданные людьми, будь то архитектурное или техническое чудо, одежда или картины, возникает вопрос, как это придумывается и воплощается в жизнь?**

— Я сама подготавливаю ткани для будущего изделия – стираю, крашу их, подбираю фурнитуру, декоративные элементы и на манекене в общих чертах скалываю образ, который дальше дорабатывается в деталях дизайнером. Все наши сотрудники работают на дому, и дело не столько в отсутствии помещения для организации цеха, сколько в удобстве, особенно для тех, кто имеет детей и ведёт домашнее хозяйство. Иногда над одним халатом колдуют пять человек – надо сделать набойку, нанести узоры в технике батик, украсить ручной или машинной вышивкой, простегать – и пакетик со скроенной вещью через долгое время возвращается к дизайнеру, завершающему круг окончательной сборкой. И вот уже отшитый халат декорируется при необходимости бисером или ручной вышивкой – такую красоту «можно передавать по наследству», как сказала одна из наших гостей.

Долгая история! Но чем больше вкладывается ручного творчества, тем интереснее результат. Сейчас по всему городу продаются так называемые абаи – халаты без подкладки очень простого кроя. Туристы их раскупают как блинчики – горячими. Хороший бизнес, но для нас непривлекательный.

**— Odamlar yaratgan barcha buyuk asarlarga — u xoh me’morchilik yoki texnika mo‘jizasi, xoh libos yoki suratlar bo‘lsin, nazar solganimizda, bular qanday o‘ylab topilgan va yaratilgan degan savol tug‘ilsa kerak, shundaymi?**

— Bo‘lajak buyum uchun gazlamalarni o‘zim tayyorlayman — ularni yuvaman, bo‘yayman, furnitura va dekorativ elementlarni tanlayman, manekenda umumiy ko‘rinishini yarataman va keyinchalik, bu qiyofa detallari dizayner tomonidan qayta ishlanadi. Barcha xodimlarimiz uyda ishlaydi, bu yerda gap ish o‘rinlarini tashkil etish uchun bino yo‘qligi haqida emas, balki qulaylik haqida, ularning farzandlari bor va uy xo‘jaligini yuritishadi. Ba’zan bitta xalat ustida besh kishi ishlaydi — gul bosish, batik texnikasida naqsh solish, qo‘lda yoki mashinada kashta bilan bezatish, qavish va bichilgan buyum solingan paket uzoq vaqtdan keyin ish jarayonidagi halqaning yakuniy qismi bo‘lgan dizaynerga qaytib keladi. Mana endi tikilgan kamzul zaruriyat bo‘lsa munchoq yoki qo‘lda kashta bilan bezatiladi — bunday go‘zallikni mehmonlarimizdan biri aytganidek, “meros qilib qoldirish mumkin”.

Bu uzoq davom etadigan jarayon! Biroq qo‘l mehnati qanchalik ko‘p sarflansa, natija ham shunchalik qiziqarli bo‘ladi. Hozirgi kunda, butun shahar bo‘ylab abaya deb ataladigan oddiy bichimli, astarsiz kamzullar sotilmoqda. Sayyohlarda unga talab katta va savdosi chaqqon. Yaxshi biznes, lekin biz uchun qiziqarli emas.



**— К какому стилю можно отнести созданную вами одежду и каким барышням она подходит?**

— Мы создаём дизайнерскую одежду в этностиле. Крой таких халатов адаптирован к современным пропорциям, кроме этого, они хорошо сочетаются с базовой одеждой, кроссовками и не выглядят слишком этническими. Декорирование халатов тоже носит общевосточный характер и не привязано к определенному этносу, хотя отталкиваемся мы, конечно, от традиционной линии. Появилась возможность знакомиться с национальным искусством не только в музеях Узбекистана, но и по материалам собраний узбекской материальной культуры в музеях мира.

Наша история для тех девушек, кто внутренне свободен, открыт для общения, по-хорошему любопытен и умеет микшировать вещи, казалось бы, несовместимые. Я иногда любуюсь дамочками, которые устраивают у нас импровизированные фотосессии – у них есть чему поучиться! Всё им к лицу, и они не ждут твоего совета, какая шапка лучше подойдет к этому наряду, а беспечно нахлобучивают ту, которая им больше нравится – и это идеальный выбор!

**— Siz yaratgan liboslarni qaysi uslubga mansub deb hisoblash mumkin va ular qanday xonimlarga mos keladi?**

— Biz etno uslubidagi dizaynerlik kiyimlarini yaratamiz. Bunday kamzullarning bichimi zamonaviy qomat oʻlchamlariga moslashtirilgan, bundan tashqari, ular bazaviy kiyimlar, krosovkalar bilan uygʻunlashadi va unchalik ham etnik koʻrinmaydi. Kamzullarni bezashda, anʼanaviy uslubni saqlasakda, ular umumsharqiy xarakterga ega boʻlib, maʼlum bir etnosga bogʻliq emas. Endi milliy sanʼat bilan nafaqat Oʻzbekiston muzeylarida, balki jahon muzeylarida saqlanayotgan oʻzbek moddiy madaniyati toʻplamlari orqali ham tanishish imkoniyati paydo boʻldi.

Bizning asarimiz ichki erkinlikka ega, muloqotga ochiq, ijobiy maʼnoda qiziquvchan va bir-biriga zid koʻringan narsalarni uygʻunlashtira oladigan qizlar uchundir. Baʼzan bizda tasodifiy fotosessiyalar oʻtkazadigan qizlarga havasim keladi — ulardan koʻp narsani oʻrgansa boʻladi! Ularga hamma narsa yarashadi va sizdan biror libosga qaysi bosh kiyim mos kelishi haqida maslahat ham soʻrashmaydi, aksincha, oʻzlariga yoqqanini bemalol kiyib koʻrishadi va bu mukammal tanlov boʻladi!

**– Мы заметили, что и мужчины не могут оторваться от ваших сокровищ. Есть ли у вас специальная мужская коллекция?**

– С чисто мужской линией мы пока не разобрались окончательно, но многие модели могут восприниматься как унисекс. Думаю, что в ближайшее время разработаем мужскую линию детально, потому что не хочется упускать такую перспективную категорию покупателей, как мужчина на отдыхе. Им ведь хочется поменять хоть на время свой стиль, отдохнуть от навязанных стереотипов социальной жизни. Кроме того, многие творчески относятся к подбору своего гардероба и вполне уютно чувствуют себя в дизайнерских нарядах.

**– Елена, а можем мы обозначить стоимость вещей, которые продаются в галерее?**

– Мне почему-то всегда неловко продавать то, что мы создаём: наверное, это пережиток советских комплексов, когда мы высокомерно относились к торговым работникам, за что теперь и расплачиваюсь – сама стала такой (улыбается). Помните персонажа из «Алисы в стране чудес», который возмущался: «Я же просил не называть меня палачом, я – казнедей!». Так и я стыжусь продавать, обозначать цену, хотя понятно же, что без прибыли не будет возможности работать творчески, да и вообще не стоило тогда затевать собственное дело.





**— Biz erkaklar ham xazinangizdan koʻz uzolmasligini payqadik. Erkaklar uchun ham alohida kolleksiyangiz bormi?**

— Hozircha faqat erkaklar uchun moʻljallangan turkum borasida yakuniy toʻxtamga kelganimiz yoʻq, ammo koʻplab modellar uniseks sifatida qabul qilinishi mumkin. Oʻylaymanki, yaqin kelajakda erkaklar toʻplamini batafsil ishlab chiqamiz, chunki, istiqbolli xaridorlar, masalan, dam olayotgan erkaklar toifasini qoʻldan chiqarishni istamaymiz. Axir, ular ham bir oz vaqtga boʻlsa-da oʻz uslubini oʻzgartirishni, ijtimoiy hayotning singdirilgan qoliplaridan dam olishni xohlaydi. Bundan tashqari, ularning aksariyati, oʻz garderobini tanlashga ijodiy yondashadi va dizaynerlik liboslarida oʻzlarini juda qulay his qilishadi.

**— Yelena, galereyada sotilayotgan buyumlar narxini koʻrsata olamizmi?**

— Negadir yaratgan narsalarimizni sotishdan xijolat boʻlaman: ehtimol, bu savdo xodimlariga nisbatan takabburona munosabatda boʻlingan sovet komplekslarining sarqiti boʻlsa kerak, endi esa buning haqqini toʻlayapman — oʻzim ham shu bilan shugʻullanayapman (kulimsiradi). “Alisa moʻjizalar mamlakati”dagi “Meni jallod demanglar deb iltimos qilgan edim-ku, men — qotilman!” degan qahramonni eslang. Garchi foyda olmasdan ijodkorlik qilishning imkoni boʻlmasligi, umuman, oʻz biznesingni boshlashning keragi yoʻqligi aniq boʻlsa-da, sotishdan va narx qoʻyishdan uyalaman.





За что ценю свою помощницу Мадину, так это за полное отсутствие этих самых неловкостей. Она закончила Кооперативный техникум в Самарканде, работала какое-то время в магазине продавцом, а потом много лет – сотрудницей одной из первых художественных галерей в Самарканде. Мы были знакомы с незапамятных времен, но и только. За почти 18 лет существования галереи у меня по разным причинам сменилось много коллег-помощников. Специфика галерейной работы особенная: надо поддерживать порядок, уметь принять гостей, рассказать им о нашей работе так, чтобы это не казалось навязыванием товара, ну и выглядеть надо как-то так, чтобы соответствовать общему стилю. Одна из любимых и особо ценимых сотрудниц – Алиночка – уехала в столицу, красавица Наргиза вышла замуж, и в какой-то момент я осталась без поддержки.

Помощь свыше была замаскирована под удачное стечение обстоятельств: пару лет назад я возвращалась из Москвы после показа коллекции в Гостином дворе, и в соседнем кресле самолёта оказалась Мадина. Так и решилась сложная задачка... Мне, конечно же, в силу стихийности своей натуры нужен был человек с практическим складом – противоположности сходятся, как известно... Стараемся перенимать друг у друга те качества, которых не хватает в себе. Надеюсь, этот тандем прочен и принесёт пользу обеим.

Yordamchim Madinani bu kabi noqulayliklardan mutlaqo forig' bo`lgani uchun qadrlayman. U Samarqand Kooperativ texnikumini tugatgan, bir muddat do'konda sotuvchi bo'lib ishlagan, keyin esa, ko'p yillar davomida Samarqanddagi ilk badiiy galereyalardan birida xodima sifatida faoliyat yuritgan. Biz azaldan, ammo shunchaki tanish edik, xolos. Galereyamizning deyarli 18 yillik faoliyati davomida turli sabablarga ko'ra ko'plab yordamchi hamkasblarim almashdi. Galereya ishining o'ziga xos jihatlari bor: tartibni saqlash, mehmonlarni kutib olishni bilish, ularga ishimiz haqida shunday so'zlab berish kerakki, bu mahsulotlarimizni xarid qilishga majburlashdek tuyulmasligi lozim va albatta, umumiy uslubimizga munosib tarzda harakat qilish kerak. Eng sevimli va qadrli xodimlarimdan biri — Alinochka poytaxtga ko'chib ketdi, go'zal Nargiza turmushga chiqdi va men bir muddat tayanchsiz qoldim.

G'oyibdan kelgan yordam vaziyatning omadli kechishi bilan niqoblangan edi: bir necha yil avval Moskvadagi Gostiniy dvorda o`tkazilgan kolleksiyam namoyishidan qaytayotganimda, samolyotdagi yon o'rindiqda Madinani ko'rib qoldim. Shu tarzda, murakkab masala o'z yechimini topdi... Albatta, tartibsiz fe'l-atvorim tufayli menga amaliy salohiyatga ega odam kerak edi — ma'lumki, qarama-qarshiliklar bir-biriga juda mos keladi... Bir-birimizdan o'zimizda yetishmaydigan fazilatlarni o'zlashtirishga harakat qilamiz. Umid qilamanki, bu hamkorligimiz mustahkam bo'lib, ikkalamizga ham manfaat keltiradi.

Стоимость изделий HAPPY BIRD колеблется от ста до двух тысяч долларов. Если вышивальщица из Шахрисабза больше года вышивает по канве халат, причем по счёту (по рисунку проще работать), то такое изделие априори должно цениться дорого. А в других случаях у нас многоступенчатый процесс: над одной вещью «колдуют» пять человек – всем надо заработать, да ещё в фонд галереи что-то положить. У нас ведь сезонные продажи, зимой туристов почти нет, а обеспечить заработком надо всю команду – так и складывается процесс ценообразования.

**– Можете рассказать про одно из направлений вашей деятельности – участие в фестивалях одежды и выставках? Для тех, кто не имеет возможности приехать в Самарканд, это шанс прикоснуться к вашей коллекции.**

– Из последних выездных мероприятий был проект «Уникальная Россия» в Гостином дворе в Москве. По приглашению Евразийской ассоциации этнодизайнеров мы показали коллекцию «Под покровом небес», вдохновлённую фреской VII века из городища Афросиаб. Ещё была поездка на легендарный фестиваль «Международный рынок народного искусства» (IFAM) в Санта-Фе, штат Нью-Мехико (США), в 2021 году и показ коллекции на международном фестивале в городе Шахрисабзе.

К сожалению, от многих проектов приходится отказываться. Основная причина – сложности в транспортировке коллекций, они очень тяжелые: костюм включает в себя халат, платье, обувь, головной убор, украшение. Если организаторы не оплачивают их доставку, то при нынешнем развитии технологий нам проще в интернете показать наши коллекции и сохранить средства для возможности продолжать творческую работу. Полученные за участие дипломы я не вывешиваю на стенах в нашем салоне – они хранятся в домашнем архиве и, надеюсь, когда придет время, дети и внуки посмотрят их.

HAPPY BIRD mahsulotlarining narxi yuz dollardan ikki ming dollargacha. Shahrisabzlik kashtadoʻz kamzul kanvasiga, ayniqsa choʻtlab (rasmga qarab ishlash osonroq) kashta solishga bir yildan ortiq vaqt sarflasa, bunday buyum apriori qimmat baholanishi kerak. Boshqa holatlardagi jarayonimiz esa koʻp bosqichli: bitta buyum ustida besh nafar kishi "afsungarlik" qiladi – hamma pul topishi kerak, buning ustiga galereya fondiga ham nimadir qoʻshish kerak. Axir, bizda savdo mavsumiy, qishda sayyohlar deyarli boʻlmaydi, ammo butun jamoani daromad bilan taʼminlash zarur – narx belgilash jarayoni mana shunga koʻra shakllanadi.

**— Faoliyatingiz yoʻnalishlaridan biri — liboslar festivali va koʻrgazmalarida ishtirok etishingiz haqida soʻzlab berasizmi? Bu Samarqandga kelish imkoniyatiga ega boʻlmaganlar uchun kolleksiyangiz bilan tanishishga qulay vaziyat, boʻlardi.**

— Oxirgi sayyor tadbirlarimizdan biri Moskvadagi Gostiniy dvorda namoyish etilgan "Noyob Rossiya" loyihasi boʻldi. Yevrosiyo etnodizaynerlar uyushmasining taklifiga koʻra, Afrosiyob yodgorligidagi VII asrga oid freskalardan ilhomlanib yaratilgan "Osmon qoʻynida" kolleksiyasini namoyish etdik. Bundan tashqari, 2021-yilda AQSHning Nyu-Meksiko shtatidagi Santa-Fe shahrida boʻlib oʻtgan mashhur "Xalqaro xalq sanʼati bozori" (IFAM) festivaliga tashrif buyurdik hamda Shahrisabz shahrida oʻtkazilgan xalqaro festivalda ham oʻz kolleksiyalarimizni namoyish etdik.

Afsuski, koʻplab loyihalardan voz kechishga toʻgʻri kelyapti. Buning asosiy sababi – kolleksiyalarni tashishdagi qiyinchiliklar, chunki ular juda ogʻir: har bir toʻplam kamzul, koʻylak, poyabzal, bosh kiyim va taqinchoqlardan iborat. Agar tashkilotchilar ularni olib borish xarajatlarini qoplamaydigan boʻlsa, bugungi texnologiyalar taraqqiyot etgan sharoitda biz uchun kolleksiyalarimizni internetda namoyish etish va mablagʻni ijodiy ishlarni davom ettirish uchun tejash maʼqulroq.





**– Вы так скромно говорите о полученных дипломах, но всё же давайте расскажем читателям, что у вас есть сертификаты «Знак качества» ЮНЕСКО, полученные за коллекции одежды.**

– Я уже упоминала, что систематизация – не моё сильное место. Когда-то нам пришло приглашение поучаствовать в выставке для получения сертификата качества ЮНЕСКО. Нам прислали анкету, мы её заполнили, отправили фотографии коллекции «Дорогами Востока», которую готовили ранее для фестиваля в Китае, а потом повезли костюмы в город Маргилан, где проходило мероприятие.

Возглавлявшая комиссию по выделению сертификатов Наталья Константиновна Мусина – ресторатор, галеристка, искусствовед, всегда симпатизировала нашему присутствию в модном пространстве Узбекистана и любила посещать галерею в свои приезды в Самарканд. Так мы и получили почётную награду. Правда, просила я выдать сертификат на имя HAPPY BIRD, а не на Лену Ладик, обоснованно мотивируя эту просьбу тем, что наше творчество – коллективный труд команды, которую я собрала, а не только мое личное достижение. Но… при вручении сертификата мне сказали, что я излишне скромна, и потому пришлось просить мужа кое-что подфотошопить, дабы мне не было стыдно показать своим коллегам этот ценный документ.

Ishtirokimiz uchun berilgan diplomlarni salonimiz devorlariga ilib qoʻymayman – ular oilaviy arxivimizda saqlanadi, umid qilamanki, vaqti-soati kelib, farzandlarim va nevaralarim ularni tomosha qiladi.

**— Olgan diplomlaringiz haqida kamtarlik bilan gapirdingiz, lekin keling, oʻquvchilarimizga liboslar kolleksiyangiz uchun UNESCO "Sifat belgisi" sertifikatlarini taqdim etganini ham aytib oʻtaylik.**

— Tizimlashtirish kuchli tomonim emasligini avval ham aytib oʻtgan edim. Bir paytlar UNESCOʻning sifat sertifikatini olish uchun koʻrgazmada ishtirok etish taklifi keldi. Bizga soʻrovnoma keldi, uni toʻldirib, avvalroq Xitoyda oʻtkazilgan festival uchun tayyorlangan "Sharq yoʻllari boʻylab" kolleksiyamizning fotosuratlarini yubordik, keyin esa liboslarni tadbir oʻtkazilayotgan Margʻilon shahriga olib bordik. Sertifikatlarni ajratish boʻyicha komissiyaga rahbarlik qilgan Natalya Konstantinovna Musina — restorator, galereyachi va sanʼatshunos boʻlib, bizning Oʻzbekiston modalar olamidagi ishtirokimizni doimo xush koʻrar va Samarqandga kelganida galereyaga tashrif buyurishni yoqtirardi. Shu tariqa faxriy mukofotga sazovor boʻldik. Toʻgʻri, iltimosimni bizning ijodimiz faqat mening shaxsiy yutuqlarim emas, balki men jamlagan jamoaning umumiy mehnati ekani bilan asoslagan holda sertifikatni Lena Ladik emas, balki HAPPY BIRD nomiga berishlarini soʻradim. Ammo... sertifikatni topshirish paytida menga haddan ziyod kamtarin ekanimni aytishdi. Shu sababli, hamkasblarimga bu qimmatli hujjatni koʻrsatishdan uyalmaslik uchun turmush oʻrtogʻimdan baʼzi joylariga Foto-





**– А кто из знаменитостей заглядывал в вашу галерею?**

– Вообще-то знаменитостей не коллекционирую, всех гостей принимаем одинаково душевно, независимо от их социального статуса. В салоне напротив двери висит фотография замечательной Лесли Лабабиди. Она в нашем халате перед нигерийским правителем, который вручает ей грамоту посла культуры. Лесли сняла замечательный фильм о стеклодувах из этой страны, пишет путеводители и ведет телепередачи в Каире. Она – американка, но много лет живет в Египте, и я горжусь дружбой с нею.

**– А если выйти за пределы галереи и Центра ремесленников, куда любит ходить в Самарканде Елена Ладик?**

– Благодаря приездам гостей-друзей мой обычный маршрут «дом–галерея–дом» расширяется до полноценных культурных программ: посещение наших знаменитых архитектурных объектов, святых мест и поездки за пределы Самарканда – в Ургут, с его базаром и знаменитым заповедником Верхние чинары, где можно посидеть у родника, понаблюдать за форелью, насладиться прохладой в тени тысячелетних деревьев. Последний раз в роли экскурсовода для нашей компании выступил мой супруг – археолог Геннадий Иванов. Много лет назад он был участником исследовательской экспедиции в горном районе Ургута, где они нашли христианский храм, покинутый обитателями в XIII веке. Было очень интересно слушать его рассказ, находясь в живописном месте, где легко представить, как быстротечен ход времени и хрупки все наши ценности.

От редакции: *птицы всегда занимали особое место в мифологии Востока. Самая знаменитая – Птица Хумо, она же Симург, царица птиц, древнейший символ мудрости, свободы и счастья, изображена на гербе Узбекистана. Работая над этим материалом, мы дружно удивлялись количеству появляющихся птиц в нашем поле. Например, одновременно шла работа над другим материалом о семье потомственных керамистов Рахимовых из Ташкента, мастерская которых тоже украшена множеством крылатых! Или другой пример: в одной из биографий путешественницы и автора книг, американки Лесли Лабабиди, про которую рассказывает Елена, так и указано: «любитель птиц и природы». Да даже фамилия нашего автора, Марины Гулящевой, по одной из шутливых версий, производная от слова «gull, seagull» – чайка. Невольно поверишь: все неслучайно.*

**Галерея HAPPY BIRD**
**Адрес:** Самарканд, ул. Ислама Каримова, 43-А (бывшая Ташкентская), Центр ремесленников, 2-й этаж
**Телефон:** +998(93)720-42-15
**Сайт:** www.h-b-art.com
**Инстаграм:** https://instagram.com/hbartgallery

Совет редакции: *выделите на Центр ремесленников не менее одного часа, тут точно есть чем заняться. На втором этаже, рядом с HAPPY BIRD, расположена галерея местного художника Ахмада Умарова. На первом можно приобрести сюзане, ювелирные украшения и изделия из кожи, халаты, керамику, в том числе керамические новогодние шары. Из двора, увитого виноградом, не захочется уходить – обязательно устройте фотосессию на лестнице или галерее второго этажа.*

shopda biroz oʻzgartirish kiritishini soʻrashga majbur boʻldim.

**— Mashhurlardan kimlar galereyangizga tashrif buyurgan?**

— Aslida, mashhurlarni kolleksiya qilmayman, ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar barcha mehmonlarni bir xilda samimiy kutib olamiz. Eshikning roʻparasidagi salonda latofatli Lesli Lababidining surati osilgan. U bizning libosimizda Nigeriya rahbari oldida turibdi va rahbar unga madaniyat elchisi yorligʻini topshirmoqda. Lesli bu mamlakatdagi shisha puflovchilar haqida ajoyib film suratga olgan, sayohatnomalar yozadi va Qohirada teledasturlar olib boradi. U amerikalik, ammo koʻp yillardan beri Misrda istiqomat qiladi va men u bilan doʻst ekanimdan faxrlanaman.

**— Agar galereya va Hunarmandlar markazidan tashqariga chiqsak, Yelena Ladik Samarqandning qayerlariga borishni xush koʻradi?**

Mehmonga keladigan doʻstlarim tashrifi tufayli mening odatdagi “uy–galereya–uy” yoʻnalishim mashhur me’moriy obidalarimiz, ziyoratgohlarimizga tashrif buyurish, Samarqanddan tashqarida esa — Urgutga, uning bozori va mashhur Yuqori Chinor qoʻriqxonasiga sayohat qilish, u yerda buloq boʻyida oʻtirib, forellarni tomosha qilish, ming yillik daraxtlar soyasidagi salqindan bahra olish mumkin boʻlgan toʻlaqonli madaniy dasturga aylanadi. Oxirgi marotaba turmush oʻrtogʻim – arxeolog Gennadiy Ivanov kompaniyamiz uchun ekskursiya yetakchisi sifatida ishtirok etdi. Koʻp yillar oldin u Urgutning togʻli hududida XIII asrda aholisi tark etgan nasroniy ibodatxonani topgan ilmiy ekspeditsiyada ishtirok etgan. Vaqtning qanchalik tez oʻtishi va barcha qadriyatlarimiz naqadar moʻrtligini tasavvur qilish oson boʻlgan bu goʻzal manzarali joyda turib, uning hikoyasini tinglash juda qiziqarli edi.

Tahririyatdan: *Sharq mifologiyasida qushlar azaldan alohida oʻrin egallab kelgan. Eng mashhuri — Humo qushi, ya’ni qushlar malikasi, donishmandlik, erkinlik va baxt-saodatning qadimiy ramzi boʻlgan, Oʻzbekiston gerbida aks ettirilgan Semurgʻ. Ushbu material ustida ishlar ekanmiz, atrofimizda paydo boʻlayotgan qushlar soniga barchamiz hayratlanib qoldik. Masalan, bir vaqtning oʻzida ustaxonasi turli parrandalar tasviri bilan bezatilgan toshkentlik Rahimovlar sulolasidan boʻlgan kulollar oilasi haqidagi boshqa material ustida ham ish olib borilayotgan edi! Yoki yana bir misol: Yelena tilga olgan sayohatchi va kitoblar muallifi, amerikalik Lesli Lababidining biografiyalaridan birida “qushlar va tabiatni sevuvchi” deb koʻrsatilgan. Hazilomuz taxminlardan biriga koʻra, hatto muallifimiz Marina Gulyashchevaning familiyasi ham inglizcha “gull, seagull” — “baliqchi qush” soʻzidan kelib chiqqan ekan. Beixtiyor hayratda qolasan: bularning barchasi tasodifiy emas.*

**HAPPY BIRD galereyasi**
**Manzil:** Samarqand, Islom Karimov koʻchasi, 43-A (sobiq Toshkent koʻchasi), Hunarmandlar markazi, 2-qavat
**Telefon:** +998 (93) 720-42-15
**Veb-sayt:** www.h-b-art.com
**Instagram:** https://instagram.com/hbartgallery

Tahririyat tavsiyasi: *Hunarmandlar markazi uchun kamida bir soat vaqtingizni ajrating, bu yerda mashgʻul boʻladigan ishlar albatta topiladi. Ikkinchi qavatda HAPPY BIRD yonida mahalliy rassom Ahmad Umarov galereyasi joylashgan. Birinchi qavatda soʻzanalar, zargarlik buyumlari va charm buyumlar, kamzullar, sopol buyumlar, shu jumladan, sopoldan yasalgan yangi yil sharlarini xarid qilish mumkin. Uzum novdalari bilan oʻralgan hovlidan ketgingiz kelmaydi — albatta zinapoya yoki ikkinchi qavat galereyasida fotosessiya uyushtiring.*



Kulol Rahimovlar studiyasi:

# HAYOT SHAJARASI

СТУДИЯ КЕРАМИКИ РАХИМОВЫХ:

# ДРЕВО ЖИЗНИ

Если попробовать описать Узбекистан через ассоциации, в первой пятёрке обязательно окажутся плов, халат, хлопок, тюбетейка и керамика. Сколько историй знают социальные сети и сотрудники аэропортов с перевесом багажа, чайными и столовыми сервизами, разлетающимися из солнечного Узбекистана во все концы света! История местной керамики насчитывает сотни лет, это обычное явление – мастер гончарного искусства в пятом, седьмом или даже десятом поколении. И это особая миссия семей ремесленников – пронести знания через века, переосмыслить опыт предков и остаться по-прежнему востребованными в современном технологичном мире.

*Для рассказа о семье Рахимовых, потомственных ташкентских керамистов, продолжающих древние узбекистанские традиции, мы пригласили самого молодого её представителя – 22-летнего Шохруха Рахимова. Он – мастер в седьмом поколении, участник II Международной биеннале прикладного искусства «Человек/Среда/Искусство» – 2019, Лондонской недели ремесел – 2024, выпускник факультета керамики Республиканского художественного колледжа имени П.П. Бенькова и студент факультета керамики Национального института искусств имени Камолиддина Бехзода, создатель собственных коллекций и наставник социального проекта в Республиканском центре социальной адаптации детей. В 2023–2024 годах участвовал в проекте Homo Faber Fellowship и провел шесть месяцев в Греции, сотрудничая с греческим мастером для создания новых изделий. Эти работы были представлены на Венецианской биеннале в августе текущего года.*



Agar O'zbekistonni tasavvurlar orqali ta'riflashga urinsak, birinchi beshtalikda albatta palov, to'n, paxta, do'ppi va kulolchilik buyumlari namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlar va aeroport xodimlari serquyosh O'zbekistondan dunyoning barcha burchaklariga uchayotgan ortiqcha yuklar, choy va oshxona servizlari haqida qanchadan-qancha voqealarni biladilar! Mahalliy kulolchilik tarixi yuzlab yillar qa'riga borib taqaladi, beshinchi, yettinchi va hatto o'ninchi avloddagi kulol — bu odatiy hol. Bilimlarni asrlar osha yetkazish, ajdodlar tajribasini qayta idrok etish va texnologiya rivojlangan hozirgi zamonda ham talabgir bo'lib qolish hunarmandlar oilasining o'ziga xos burchi hisoblanadi.

*O'zbekistonning qadimiy an'analarini davom ettirayotgan toshkentlik kulollarning avlodlari bo'lgan Rahimovlar oilasi haqida hikoya qilish uchun biz uning eng yosh vakili — 22 yoshli Shohrux Rahimovni taklif etdik. U yettinchi avloddagi usta bo'lib, 2019-yildagi "Inson/Atrof-muhit/San'at" II Xalqaro amaliy san'at biyennalesi, 2024-yildagi London hunarmandchilik haftaligi ishtirokchisi, P.P. Benkov nomidagi Respublika san'at kollejining kulolchilik fakultetini tugatgan va hozirda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy san'at institutining kulolchilik fakulteti talabasi, shaxsiy kolleksiyalari muallifi va Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazidagi ijtimoiy loyiha rahbari. 2023-2024-yillarda u Homo Faber Fellowship loyihasida ishtirok etib, yangi buyumlar yaratish maqsadida olti oy mobaynida Gretsiyada yunon ustasi bilan hamkorlik qildi. Ushbu asarlar joriy yilning avgust oyida o'tkazilgan Venetsiya biyennalesida namoyish etildi.*







*Мне привили любовь к творчеству с детства. Сохранять и приумножать традиции – это большая честь для меня.*

*Ijodkorlikka bo'lgan muhabbat menga bolaligimdan singdirilgan. An'analarni asrash va yanada boyitish men uchun katta sharaf.*

**– Шохрух, во-первых, хотим поблагодарить вас за уделённое нам время. Во-вторых, раскройте секрет: как возможно такое количество достижений и наград в столь юном возрасте?**

– Я не помню, со скольких лет мне привили любовь к керамике и когда первый раз сел за гончарный круг, но это было в раннем детстве, около четырех-пяти лет. Я посвятил этому ремеслу всё свое время, чтобы стать настоящим профессионалом. Сейчас керамикой занимаемся я, мой отец Алишер и дедушка Акбар Рахимов, которому уже семьдесят пять лет – три поколения. Дедушка до сих пор создает глиняные шедевры! Кстати, по семейной традиции, искусству керамики мальчика всегда обучает дедушка, а не отец.

**– А как вы поняли, что будете продолжать семейное дело? Было ли желание поискать себя в чем-то ещё?**

– Разумеется, никто не заставлял меня заниматься керамикой: у дедушки Акбара десять внуков, но продолжаю дело семьи только я, остальные выбрали другие профессии. Среди нас есть врач, архитектор, организатор мероприятий, преподаватель, искусствовед и дизайнер.

**— Shohrux, avvalo, bizga vaqtingizni ajratganingiz uchun minnatdorchilik bildirmoqchimiz. Qolaversa, bir sirni ochib bersangiz: qanday qilib bu yoshda bunchalik yutuq va mukofotlarga erishish mumkin?**

— Necha yoshimda kulolchilikka mehr qo'yganimni va kulolchilik charxiga birinchi marta qachon o'tirganimni eslay olmayman, lekin bu narsa bolaligimda, to'rt-besh yoshlarimda sodir bo'lgandi. Haqiqiy professional bo'lish uchun bu hunarga butun vaqtimni bag'ishladim. Hozirda kulolchilik bilan uch avlod — men, dadam Alisher va yetmish besh yoshni qoralagan bobom Akbar Rahimov shug'ullanamiz. Bobom haligacha sopol durdonalarini yaratyapti! Aytgancha, oilaviy an'anaga ko'ra, kulolchilik san'atini o'g'il bolaga otasi emas, bobosi o'rgatadi.

**— Oilaviy ishni davom ettirishingizni qachon angladingiz? O'zingizni boshqa sohada ham sinab ko'rish istagi bo'lganmidi?**

— Albatta, meni hech kim kulolchilik bilan shug'ullanishga majbur qilmagan: Akbar buvaning o'nta nevarasi bor, lekin oila ishini yolg'iz o'zim davom ettiryapman, qolganlar boshqa kasblarni tanlashgan. Oramizda shifokor, me'mor, tadbirlar tashkilotchisi, o'qituvchi, san'atshunos va dizayner bor.

Самое главное – мне привили любовь к творчеству с детства. Сохранять и приумножать традиции – это большая честь для меня. Мой прадедушка Мухитдин Рахимов создал своеобразную энциклопедию узбекской художественной керамики, разработал приёмы реставрации мозаики и майолики архитектурных памятников нашей страны. Его работы продавались в Париже, Лондоне и других столицах мира, он был отмечен многими наградами, в том числе званием народного художника Узбекистана. Прадедушка даже умер за гончарным кругом, и эта любовь к работе и творчеству всегда присутствовала в нашем доме. Я всегда чувствовал, как важно не потерять историю своего древа и сохранить наследие для последующих поколений.

**– Почему семейное дело продолжают только мужчины?**

– Традиционно изготовлением керамики в семье занимаются мужчины, так как это физически сложная работа, но и женщинам никто не запрещает участвовать в этом процессе. Моя мама, Дильбар Рахимова, в свободное время помогает с росписью изделий, а сестра рисует эскизы и в будущем, возможно, станет дизайнером.

**– Слыша слова «старинные семейные секреты», «традиции, передающиеся поколениям», представляется талмуд за семью замками в запертом сейфе. Как на самом деле передаются знания?**

– Традиции, конечно, передаются практическим способом, как я уже говорил, от деда – к внуку. В семье прививают любовь к глине с детства, изучаются традиционные узоры, создаются авторские. В мастерской вы можете видеть стену, украшенную плитками с узорами, которую мы так и называем – «Стена истории». На ней собрано более восемнадцати различных направлений, по которым мы работаем: это и украшение студии, и своеобразная «доска почёта и славы», и шпаргалка для начинающих учеников.

Также мой прадедушка Мухитдин как учёный изучал узоры и красители и собрал целую книгу «Художественная керамика Узбекистана», которая была выпущена в 1961 году. Затем она была переиздана на английском языке при содействии ЮНЕСКО, а в сентябре состоялась презентация нового издания на узбекском и русском языках.

*Наше интервью проходит в гостеприимном доме-мастерской семьи Рахимовых, расположенном в махалле Аклан на окраине Ташкента. Сразу видно, что здесь живёт творческая семья: дом выдержан в классических цветах – бирюзово-голубом с тёплым жёлтым, уютный и колоритный двор с зелёным садом украшают деревянные колонны и орнаменты, глиняные амфоры, керамика на стенах и сохнущие изделия, как птенчики, ожидающие своего оперения – росписи. Нас вышел поприветствовать и пожелать успехов отец Шохруха Алишер Рахимов.*

Eng muhimi, ijodkorlikka bo'lgan muhabbat menga bolaligimdan singdirilgan. An'analarni asrash va yanada boyitish men uchun katta sharaf. Bobokalonim Muhiddin Rahimov o'zbek badiiy kulolchiligining o'ziga xos ensiklopediyasini yaratgan, mamlakatimiz me'moriy yodgorliklarining mozaika va mayolikalarini restavratsiya qilish usullarini ishlab chiqqan. Uning asarlari Parij, London va dunyoning boshqa poytaxtlarida sotilgan, ko'plab mukofotlar, jumladan, O'zbekiston xalq rassomi unvoniga sazovor bo'lgan. Bobokalonim hatto kulolchilik charxida jon bergan. Ish va ijodga bo'lgan bu muhabbat uyimizda har doim hukm surgan, shajaramiz tarixini yo'qotmaslik va merosni keyingi avlodlar uchun saqlab qolish qanchalik muhimligini doimo his qilganman.

**— Nega oilaviy ishni faqat erkaklar davom ettiradi?**

— Bu jismoniy jihatdan og'ir ish bo'lgani uchun kulolchilik bilan odatda oiladagi erkaklar shug'ullanadi, ammo ayollarning ham bu jarayonda ishtirok etishini hech kim taqiqlamaydi. Onam Dilbar Rahimova bo'sh vaqtlarida buyumlarga naqsh tushirishda yordam beradi, singlim esa eskizlar chizadi, u kelajakda balki dizayner bo'lar.

**— "Oilaning qadimiy sirlari", "avloddan avlodga o'tib kelayotgan an'analar" degan so'zlarni eshitganda, ko'z oldimizga yetti qulf ortidagi qadimiy kitob keladi. Aslida esa bilimlar keyingi avlodga qay tarzda o'tkaziladi?**

— Albatta, yuqorida aytib o'tganimdek, an'analar amaliy yo'l bilan bobodan nabiraga o'tadi. Oilada loyga bo'lgan mehr-muhabbat bolalikdan singdiriladi, an'anaviy naqshlar o'rgatiladi, mualliflik naqshlari yaratiladi. Ustaxonada naqshinkor plitkalar bilan bezatilgan va biz "Tarix devori" deb ataydigan devorni ko'rishingiz mumkin. Unda biz ishlaydigan o'n sakkizdan ortiq turli xil yo'nalish jamlangan: bu ham studiya bezagi, ham o'ziga xos "sharaf va shon-shuhrat taxtasi" bo'lib, ishini endigina boshlayotgan o'quvchilar uchun shpargalka vazifasini ham bajaradi.

Shuningdek, bobokalonim Muhiddin olim sifatida naqshlar va bo'yoqlarni o'rganib, 1961-yilda "O'zbekiston badiiy kulolchiligi" nomli butun bir kitobni nashr etgan. Keyinchalik, bu kitob UNESCO ko'magida ingliz tilida qayta nashr etilgan, sentyabr oyida esa o'zbek va rus tillaridagi yangi nashrining taqdimoti bo'lib o'tdi.

*Intervyuimiz Rahimovlar oilasining Toshkent shahri chetidagi Oqlon mahallasida joylashgan mehmondo'st uy-ustaxonasida bo'lib o'tmoqda. Bu yerda ijodkor oila yashayotgani darhol ko'zga tashlanadi: uyga an'anaviy feruzarang-moviy va iliq sarg'ish ranglarda pardoz berilgan, yam-yashil bog'li shinam va ko'rkam hovlini yog'och ustun va naqshlar, sopol amforalar, devorlardagi sopol va patlari o'sib chiqishiga intizor qushchalar kabi tushirilgan naqshlari qurishini kutayotgan buyumlar bezab turibdi. Biz bilan salomlashib, ishlarimizga omad tilash uchun Shohruhning dadasi Alisher Rahimov chiqib keldi.*



**– Шохрух, расскажите подробнее о вашем прекрасном доме: это только мастерская или вы живёте здесь же?**

– Наша студия была построена в 2006 году и состоит из трех основных частей: рабочей комнаты, где мы создаем изделия из красной глины, сада, дающего много вдохновения, и выставочного зала, где мы проводим все наши выставки. Это наш семейный дом, где на втором этаже живут дедушка (Акбар Рахимов) и я. Вся остальная наша семья живет неподалёку, в этой же махалле. Часто к нам приезжают керамисты со всего мира – Японии, Германии, Франции, США – для обмена культурным опытом и создания совместных коллекций и выставок. Они тоже останавливаются прямо здесь, на втором этаже дома, живут и творят в одном месте.

**– Какая именно керамика создаётся в стенах вашей мастерской?**

– Лепим буквально всё: пиалы, тарелки, кувшины, вазы, ляганы, большие коллекции для выставок, включая инсталляции, а также специальные изделия, например, игрушки-птицы, и даже картины из глины. Кстати, это был мой первый опыт работы с глиной с нагревом выше 1250 градусов Цельсия (обычно температура не превышает 900 градусов).

**— Shohrux, chiroyli uyingiz haqida batafsilroq gapirib bersangiz: bu faqat ustaxonami yoki siz shu yerda yashaysizmi?**

— Studiyamiz 2006-yilda qurilgan bo'lib, u uch asosiy qism — qizil loydan buyumlar yaratadigan ish xonasi, katta ilhom beradigan bog' va barcha ko'rgazmalarimizni o'tkazadigan ko'rgazma zalidan iborat. Bu bizning oilaviy uyimiz bo'lib, ikkinchi qavatda bobom (Akbar Rahimov) ikkalamiz yashaymiz. Qolgan oila a'zolarimiz ham yaqin atrofda, shu mahallada istiqomat qilishadi. Bizga madaniy tajriba almashish, qo'shma kolleksiya va ko'rgazmalar yaratish maqsadida butun dunyodan — Yaponiya, Germaniya, Fransiya, AQShdan kulollar tez-tez kelib turishadi. Bu mehmonlar ham xuddi shu yerda, uyning ikkinchi qavatida yashaydilar va biz bilan birga ijod qilishadi.

**— Ustaxonangizda aynan qanday kulolchilik buyumlari yaratiladi?**

— Deyarli hamma narsa — piyola, likopcha, ko'za, vaza, lagan, ko'rgazmalar uchun katta kolleksiyalar, jumladan installyatsiyalar, shuningdek, maxsus buyumlar, masalan, o'yinchoq qushlar va hatto loydan ishlangan suratlar yaratamiz. Aytgancha, bu mening loyni 1250 darajadan yuqori (odatda harorat 900 darajadan oshmaydi) haroratga qizdirib ishlagan birinchi tajribam edi.











**– Если на рынках цена на фабричную керамику начинается в среднем с пары долларов, сколько стоят авторские работы?**

– Цены на наши авторские изделия начинаются от десяти долларов за пиалу, дальше – от шестидесяти долларов за тарелки. Максимальная стоимость, по которой была продана коллекция, – сорок тысяч долларов. Мы стараемся продавать именно цельными коллекциями, так как по отдельности керамика уже не так интересна для восприятия и не создаёт единую продуманную композицию.

Оценить стоимость некоторых коллекций просто невозможно: они бесценны, потому не продаются и остаются в музее семьи. Например, коллекция из чёрной глины с элементами дерева «Чёрно-бархатная керамика» или моя инсталляция из глины «Трагедия Арала», которая посвящена одной из главных экологических проблем нашего времени.

**— Fabrika sopol buyumlarining bozor narxi oʻrtacha bir necha dollardan boshlangan bir paytda, mualliflik asarlarining narxi qancha?**

— Mualliflik piyolalarimizning narxi oʻn dollardan, likopchalarniki esa oltmish dollardan boshlanadi. Eng yuqori narxda sotilgan kolleksiyaning narxi qirq ming dollarni tashkil etgandi. Kolleksiyalarni yaxlit holda sotishga harakat qilamiz, chunki alohida sopol buyumni idrok etish unchalik qiziqarli emas va koʻzlangan yagona kompozitsiyani yaratmaydi.

Baʼzi kolleksiyalarning qiymatini baholab boʻlmaydi: ular bebaho, shuning uchun ham sotilmaydi va oila muzeyida qoldiriladi. Masalan, yogʻoch elementlar bilan qora loydan yasalgan “Qora duxoba sopol” kolleksiyasi yoki zamonamizning asosiy ekologik muammolaridan biriga bagʻishlab loydan ishlagan mening “Orol fojiasi” installyatsiyam.





*Оценить стоимость некоторых коллекций просто невозможно: они бесценны, потому не продаются и остаются в музее семьи.*

*Baʼzi kolleksiyalarning qiymatini baholab boʻlmaydi: ular bebaho, shuning uchun ham sotilmaydi va oila muzeyida qoldiriladi.*

**– Какую глину вы используете для своих работ и сколько времени занимает создание изделий?**

– Мы используем глиняную массу из разных регионов Узбекистана, но в основном работаем с местной ташкентской глиной. В среднем процесс производства одного изделия занимает от пары недель до нескольких месяцев. Например, моя коллекция из сорока предметов «Мир, созданный из точек» (The World Created by Dot), выполненная в точечной технике, создавалась на протяжении четырёх месяцев.

Каждое изделие уникально и требует особого подхода и состояния, поэтому мы не спешим и не ставим сроков. По этим же причинам никогда не берём заказы. Иногда мы лепим саму форму, а порой сразу начинаем расписывать различные узоры, вдохновляясь моментом. Бывает, что глиняная заготовка хранится в студии десятилетиями и ждёт своего часа и нашего вдохновения. Мы гордимся каждым созданным изделием и стараемся передать частичку нашей души и творческой энергии.

**— Ishlaringizda qaysi tuproqdan foydalanasiz va buyumlarni yaratish qancha vaqt oladi?**

— Biz Oʻzbekistonning turli viloyatlaridan olingan tuproq aralashmalaridan foydalanamiz, ammo asosan Toshkentning mahalliy tuprogʻi bilan ishlaymiz. Bitta buyumni ishlab chiqarish jarayoni oʻrtacha bir necha haftadan bir necha oygacha davom etadi. Masalan, nuqtali texnikada ishlangan va qirqta buyumdan iborat “Nuqtalardan yaralgan dunyo” (The World Created by Dot) deb nomlangan kolleksiyam toʻrt oy davomida yaratildi.

Har bir buyum noyob boʻlib, alohida yondashuv va holatni talab qiladi, shuning uchun shoshmaymiz va muddat qoʻymaymiz. Aynan shu sababga koʻra hech qachon buyurtma qabul qilmaymiz. Baʼzida shaklning oʻzini yasaymiz, gohida esa lahzadan ilhomlanib, turli naqshlarni chizishga kirishamiz. Shunday ham boʻladiki, loy buyum oʻn yillab ustaxonada saqlanib, oʻz vaqti va bizning ilhomimizni kutadi. Yaratgan har bir buyumimiz bilan faxrlanamiz va unga mehrimiz hamda ijodiy quvvatimiz zarralarini singdirishga intilamiz.

**– Мы видели на полках посуду с трещинами и сколами...**

– Это отдельная часть нашей коллекции наряду с экспонатами с раскопок. Предметы со сколами и трещинами нельзя продавать или дарить, ведь по народным поверьям они символизируют смерть, но тем не менее сохраняем их в силу уникальности и неповторимости.

**– Используете ли вы при росписи современные краски и красители?**

– Мы сами готовим все наши глазури и красители по старинным авторским рецептам, одновременно экспериментируя и улучшая их качество. Основные минералы, которыми мы пользуемся, это кварц, каулен, кобальт, ляпис, лазурит, медь и различные окиды железа. Они обжигаются при температуре 1500 градусов.

**– Создавая работы, вы отталкиваетесь лишь от традиций?**

– Узоры традиционные, но, конечно, керамическое искусство развивается, привносятся авторские элементы. Например, наша семья создала коллекцию из чёрной глины «Чёрно-бархатная керамика», которую считают будущим керамики XXI века. Это вазы полностью чёрного цвета с изображением птиц, покрытых эмалью того же цвета. Выглядит как иероглифы.

Мой дедушка Акбар придерживается традиционной школы, а мы с отцом часто экспериментируем – покрываем эмалью не всё изделие, а только некоторые элементы, таким образом получается смесь матовости и глянца. Другой пример: в своих работах я использую геометрические элементы, которые не свойственны традиционной узбекской росписи.





**— Tokchalarda darz ketgan va yorilgan idishlarni ko‘rdik...**

— Bu kolleksiyamizning qazish ishlarida topilgan eksponatlari bilan bir qatordagi alohida qismi. Xalq e’tiqodiga ko‘ra, o‘limni ifodalagani uchun yoriq va darz ketgan buyumlarni sotish yoki sovg‘a qilish mumkin emas, ammo shunga qaramay noyob va betakrorligi tufayli ularni saqlab qolgamiz.

**— Naqsh solishda zamonaviy bo‘yoqlardan foydalanasizmi yoki ular eskicha usulda tayyorlanadimi?**

— Barcha sir va bo‘yoqlarimizni eski mualliflik retsepti bo‘yicha o‘zimiz tayyorlaymiz, bir vaqtning o‘zida ular bilan tajribalar o‘tkazib, sifatini yaxshilaymiz. Asosan kvars, kaolin, kobalt, lyapis, lazurit minerallari hamda mis va turli temir oksidlaridan foydalanamiz. Ular 1500 daraja haroratda pishiriladi.

**— Asarlaringizda an’anaviy o‘zbek naqshlaridan ham foydalanasizmi yoki taraqqiyot naqshlarda ham o‘z aksini topyaptimi?**

Naqshlar an’anaviy, ammo shubhasiz, kulolchilik san’ati rivojlanib, unga mualliflik elementlari ham kirib kelmoqda. Misol uchun, oilamiz XXI asr keramikasining kelajagi deb hisoblanayotgan qora loydan “Qora duxoba sopol” kolleksiyasini yaratdi. Bu to‘plam qushlar tasviri tushirilgan butunlay qora vazalardan iborat bo‘lib, ular xuddi shu rangdagi emal bilan qoplangan. Ular iyerogliflarga o‘xshaydi.

Bobom Akbar an’anaviy uslubga amal qiladi, otam ikkalamiz esa ko‘pincha tajriba o‘tkazamiz — buyumni butunlay emas, faqat ayrim elementlarini emal bilan qoplaymiz, shu tariqa jilosiz va yaltiroq uyg‘unlik hosil bo‘ladi. Yana bir misol: o‘z ishlarimda an’anaviy o‘zbek naqqoshligiga xos bo‘lmagan geometrik shakllardan foydalanaman.



**– Нас заворожила своим изяществом и самобытностью серия Time tree – мы даже решили вынести название в заголовок материала, потому что это первая ассоциация с вашей династией: время – дерево – традиции. Несут ли созданные коллекции философский смысл?**

– Обязательно! Каждая коллекция имеет свой глубокий смысл – это не просто красивые узоры, а зашифрованные послания. С одной стороны, Time tree – это утекающее время, вазы, своей формой напоминающие песочные часы. С другой стороны, роспись в стиле «Солнечный Узбекистан» – теплая погода и яркие краски, порхающие птицы. Так и получается: птицы – дерево – семья – традиции, то есть семейное древо.

В уже упомянутой мной коллекции «Мир, созданный из точек» я отразил идею о том, что жизнь и Вселенная возникли после Большого взрыва, когда все материя и энергия были сосредоточены в единой точке и затем расширились. Точка символизирует начало всего существующего, а также является базовым строительным блоком для создания более сложных образов и форм. Коллекция передает идею о том, что весь мир и Вселенная были созданы из маленьких, незначительных фрагментов и событий, формируя вместе целостную картину мира.

**— Time tree seriyasi o‘zining nafisligi va o‘zgachaligi bilan bizni maftun etdi va sulolangiz bilan bog‘liq dastlabki tasavvur — vaqt–daraxt–an’analarni ifoda etgani uchun biz hatto bu nomni maqola sarlavhasiga kiritishga qaror qildik. Yaratilgan kolleksiyalar falsafiy ma’noga egami?**

— Albatta! Har bir kolleksiya teran ma’noga ega — bu shunchaki chiroyli naqshlar emas, balki shifrlangan xabarlar. Bir tomondan, Time tree — o‘tayotgan vaqt, vazaning shakli qum soatga o‘xshaydi. Boshqa tomondan esa, “Serquyosh O‘zbekiston” uslubidagi naqsh — iliq ob-havo va yorqin ranglar, parvoz qilayotgan qushlar. Shu tariqa: qushlar – daraxt – oila – an’analar, ya’ni oila shajarasi.

Men ilgariroq tilga olgan “Nuqtalardan yaralgan dunyo” turkumida hayot va Koinot barcha modda hamda energiya yagona nuqtada to‘planib, Katta portlash oqibatida kengayganidan so‘ng paydo bo‘lgani haqidagi g‘oyani aks ettirdim. Nuqta butun mavjudotning boshlanishini ifodalaydi, shuningdek, yanada murakkab tasvir va shakllar yaratilishidagi asosiy qurilish bloki hisoblanadi. Turkum butun dunyo va Koinot kichik, ahamiyatsiz bo‘laklar va hodisalardan tashkil topib, birgalikda dunyoning yaxlit manzarasini yaratganligi to‘g‘risidagi g‘oyani yetkazib beradi.

**– Очень интересно находить переплетения в материалах, над которыми мы работаем. Недавно общались с Еленой Ладик из самаркандской галереи HAPPY BIRD – там птицы, и у вас мы отметили идентичный часто повторяющийся сюжет – птицы. Почему именно они?**

– Да, действительно, это один из любимых нами сюжетов. Во многих культурах птицы – посланники высших сил и символ смысла жизни. Моряки ищут птицу, чтобы найти сушу, а странники в пустыне – чтобы найти воду. Птица всегда поможет и приведёт туда, где есть жизнь.

Идея целой выставки моего дедушки, Акбара Рахимова, «Душа птиц» родилась из многими любимого и часто цитируемого Хадиса из Корана: «В рай попадут люди, чьи сердца подобны птицам». В семейном музее можно посмотреть работы из этой ценной экспозиции, сочетающей в себе разнообразные формы, орнаменты, техники и расцветки. На каждом изделии размещены фантастические Сирины, павлины, ласточки, соловьи, а центральное панно украшает птица Хумо – она же Симург, царь-птица, древнейший символ мудрости, свободы, счастья и своеобразный талисман Узбекистана.

**— Biz ustida ish olib borayotgan materiallardagi bog'liqliklarni ko'rish juda qiziq. Yaqinda Samarqanddagi HAPPY BIRD galereyasining asoschisi Yelena Ladik bilan suhbatlashgandik — u yerda qushlar mavzusi bor ekan, sizlarda ham xuddi shunday tez-tez takrorlanadigan mavzu — qushlarni ko'rdik. Nega aynan qushlar?**

— Ha, haqiqatan ham, bu biz sevgan syujetlardan biri. Ko'plab madaniyatlarda qushlar ilohiy kuchlarning elchilari va hayot ma'nosining ramzi sanaladi. Dengizchilar qushlarni quruqlikni topish uchun, sahrodagi sayyohlar esa suvni topish uchun qidirishadi. Qush har doim yordam beradi va hayot mavjud bo'lgan joyga yetaklaydi.

Bobom Akbar Rahimovning "Qushlar qalbi" nomli butun boshli ko'rgazmani hozirlash g'oyasi Qur'ondagi ko'pchilik yaxshi ko'radigan va tez-tez tilga olinadigan "Jannatga qalbi qushlarnikiga o'xshash odamlar tushadi" hadisidan kelib chiqqan. Oilaviy muzeyimizda bu qimmatli ekspozitsiyaga mansub va o'zida turli shakl, naqsh, texnika va ranglarni mujassam etgan asarlarni tomosha qilish mumkin. Har bir buyumda afsonaviy jannat qushlari, tovuslar, qaldirg'ochlar, bulbullar tasvirlangan bo'lib, markaziy pannoni esa donishmandlik, ozodlik, baxtning qadimiy ramzi va O'zbekistonning o'ziga xos ramzi sanalgan Semurg' — Humo qushi bezab turibdi.

Мое любимое произведение с птицами – созданный в виде шара из красной ташкентской глины светильник Dancing birds, по черной шероховатой поверхности которого направляются к свету десятки журавлей.

**– Вы упомянули, что стараетесь в каждое произведение вложить частичку своей души и творческой энергии. Сейчас очень популярна тема про энергию – откуда её черпать, как повышать и как не слить. Хочется узнать ваше мнение – настроение и мысли при работе мастера передаются керамике и следующему владельцу? Говорят же, что вода запоминает информацию и транслирует её, а глина?**

– Керамика действительно может быть восприимчива к энергетике и эмоциям человека. Когда мы работаем с глиной, наше настроение и мысли могут передаваться ей и дальше тем, кто с ней контактирует. И если мы занимаемся этим процессом с положительными эмоциями и вдохновением, то это может отразиться и на конечном результате.

Qushlar tasvirlangan sevimli asarim — Toshkent qizil loyidan shar shaklida yasalgan va qora g'adir-budur yuzasi bo'ylab o'nlab turnalar yorug'lik tomon yo'nalgan "Dancing birds" yoritgichi hisoblanadi.

**— Har bir asarga o'z qalbingiz va ijodiy quvvatingizning bir qismini berishga harakat qilishingizni aytib o'tdingiz. Bugungi kunda energiyani qayerdan olish, uni qanday oshirish va behuda sarflamaslik mavzusi juda ommabop. Ustaning ish vaqtidagi kayfiyati va fikrlari sopol buyumga hamda keyingi egasiga o'tadimi? — shu haqidagi fikringizni bilmoqchiman. Axir, suv ma'lumotni eslab qoladi va uni uzatadi deyishadi-ku, loyda ham bu xususiyat bormi?**

— Sopol haqiqatan ham inson energiyasi va his-tuyg'ulariga ta'sirchan bo'lishi mumkin. Loy bilan ishlaganimizda, kayfiyatimiz va fikrlarimiz unga, keyinchalik esa undan foydalanadigan kishilarga ham o'tishi mumkin. Agar bu jarayonni ijobiy hissiyotlar va ilhom bilan olib borsak, bu yakuniy natijada ham aks etishi mumkin.







*«Когда мы работаем с глиной, наше настроение и мысли могут передаваться ей и дальше тем, кто с ней контактирует»*

*«Loy bilan ishlaganimizda, kayfiyatimiz va fikrlarimiz unga, keyinchalik esa undan foydalanadigan kishilarga ham o'tishi mumkin»*

**– Вопрос: Интересно узнать, откуда вы черпаете вдохновение и положительную энергию, чтобы творить?**

– В первую очередь вдохновляют путешествия. Каждый месяц мы с отцом и дедушкой выделяем несколько дней, садимся в машину (мы считаем, что по Узбекистану можно путешествовать только на автомобиле), и едем изучать родную страну. Заезжаем в аулы и махалли, общаемся с местными жителями, обязательно с пожилыми людьми, хранителями историй и легенд. Любимое место – Фергана, где смогли сберечь историю в первозданном виде.

Вдохновение и новые идеи приходят от общения с детьми в нашей студии: их глаз не замылен, пространства для творчества много, а границ нет. Недавно одна девочка пяти-шести лет первый раз пришла к нам и решила сделать маленький чайник. Когда он прошёл обжиг, выяснилось, что пользоваться им не получится, потому что она забыла сделать в носике отверстие для воды. Чайник она переделала, а этот остался храниться в мастерской – он напоминает маленького слоника.

Ещё мне помогает сконцентрироваться и вдохновиться музыка, поэтому я часто слушаю её во время работы. Подкасты и аудиокниги также помогают расширять свои знания и получать новые идеи. Однако, иногда предпочитаю работать в тишине, чтобы полностью погрузиться в процесс и сосредоточиться на задаче. В любом случае, звучащая в студии национальная музыка придаёт особую интересную атмосферу и вдохновляет меня на творчество.

**– Какие ещё направления работы студии существуют, кроме, собственно, создания керамики?**

– Направлений много, но основные – это сама работа с керамикой и проведение выставок. Ранее уже прошёл десяток выставок: «Тысяча и одна свеча», «Гранат – образ рая», «Цвет миндаля», «Сорок красавиц», «Древо, соединяющее Небо и Землю», «Наскальные рисунки современной керамики». При мастерской есть школа для детей от шести до двенадцати лет и проводятся мастер-классы.

*Пять советов от редакции, почему стоит приглядеться к авторской керамике:*

1. *Очевидно, что покупая такую керамику, вы поддерживаете местное многовековое производство, помогаете его сохранению и поиску новых, современных форм искусства. Это уважение к себе, другим людям и культуре страны.*
2. *Это вещи с душой и хорошей энергетикой, ведь, как заметил Шохрух, при работе с глиной настроение и состояние мастера передается материалу и далее тому, кто пользуется готовым изделием. Вы же хотите понимать, кем и с каким посылом сделана тарелка, из которой вы едите, или чашка, которой вы будете касаться каждый день?*
3. *Вы покупаете «вдумчивую» вещь, которая родилась не из массового спроса, а в результате работы души, размышлений и вдохновения автора. У каждого изделия в авторских студиях есть своя история рождения – обязательно спросите об этом.*
4. *Это вклад в собственное образование, так как каждый раз вы узнаёте что-то новое о керамике и её истории.*
5. *Авторские узоры невозможно скопировать качественно и детально. Создающий, а не копирующий мастер, всегда востребован и будет вне конкуренции.*

**— Siz yaratgan asarlarga nazar tashlar ekanman, menga ish uchun ilhom va ijobiy quvvatni qayerdan olishingiz qiziq.**

Eng avvalo sayohatlar ilhom beradi. Har oyda otam va bobom bilan bir necha kunni o'zimizga ajratib, mashinaga o'tiramiz (biz O'zbekiston bo'ylab faqat avtomobilda sayohat qilish mumkin deb hisoblaymiz) va o'z mamlakatimizni o'rganish uchun yo'l olamiz. Qishloq va mahallalarga kirib, mahalliy aholi va albatta, tarix hamda afsonalarni asrab kelayotgan keksalar bilan suhbatlashamiz. Eng sevimli manzilimiz Farg'ona — bu erda tarixni asl holida saqlab qolishga erishilgan.

Studiyamizda bolalar bilan muloqot qilish ilhom va yangi g'oyalar manbai bo'ladi. Chunki ularning nigohi beg'ubor, ijod uchun imkoniyatlari keng va tasavvuri cheksiz. Yaqinda studiyamizga birinchi marta kelgan besh-olti yoshlardagi qizaloq kichik choynak yasashga qaror qildi. Pishirilgandan so'ng, choynakdan foydalanib bo'lmasligi ma'lum bo'ldi, chunki qizaloq uning burnida suv uchun teshik ochishni unutgan ekan. U choynakni qaytadan yasadi, bu kichkina filga o'xshash choynakni esa ustaxonada saqlab qo'ydik.

Shuningdek, diqqatimni jamlashim va ilhomlanishimga yordam bergani uchun ish paytida ko'pincha musiqa tinglayman. Podkast va audiokitoblar ham bilimimni kengaytirishga va yangi g'oyalar olishimga yordam beradi. Ammo ba'zida jarayonga to'liq kirishish va e'tiborimni vazifaga jamlashim uchun jimjitlikda ishlashni afzal ko'raman. Har qanday holatda ham studiyada taralayotgan milliy musiqa sadolari o'ziga xos ajib muhit yaratadi va ijod qilishga ilhomlantiradi.

**— Studiyada kulolchilikdan tashqari yana qanday faoliyat yo'nalishlari bor?**

Yo'nalishlar ko'p, lekin asosiy ikki yo'nalish — kulolchilik va ko'rgazmalar uyushtirish. Ilgari "Ming bir sham", "Anor — jannat ramzi", "Bodom rangi", "Qirq go'zal", "Yeru osmonni tutashtiruvchi daraxt", "Zamonaviy kulolchilikdagi qoyatosh rasmlari" singari o'nlab ko'rgazmalar o'tkazilgan. Ustaxona qoshida olti yoshdan o'n ikki yoshgacha bo'lgan bolalar uchun maktab ochilgan, unda mahorat darslari o'tkaziladi.

*Tahririyatdan mualliflik kulolchiligiga e'tibor qaratish kerakligini izohlovchi beshta maslahat:*

1. *Shubhasiz, bunday sopol buyumlarni xarid qilish orqali ko'p asrlik tarixga ega mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlaysiz, uni saqlab qolishiga va san'atning yangi, zamonaviy shakllarini kashf etishga hissa qo'shasiz. Bu o'zingizga, boshqalarga va mamlakat madaniyatiga bo'lgan hurmatingizni ifodalaydi.*
2. *Bu o'z ruhiga va yaxshi energiyaga ega buyumlar, zero, Shohrux aytganidek, loy bilan ishlash mobaynida ustaning kayfiyati va holati materialga, keyinchalik u orqali tayyor buyumdan foydalanuvchiga o'tadi. Siz har kuni ovqatlanadigan likopcha yoki qo'lingizga oladigan piyolani kim va qanday niyat bilan yasaganini bilishni xohlaysiz, to'g'rimi?*
3. *Siz ommaviy talabga ko'ra emas, balki muallifning ruhi, mulohazalari va ilhomlari natijasida dunyoga kelgan "sermulohaza" buyumni sotib olasiz. Mualliflik ustaxonalarida yaratilgan har bir buyumning o'ziga xos yaratilish tarixi bor — bu haqida albatta so'rab ko'ring.*
4. *Bu o'z bilimingizga qo'shgan hissangiz bo'ladi, chunki har safar kulolchilik va uning tarixi haqida yangi narsalarni o'rganasiz.*
5. *Mualliflik naqshlarini sifatli va batafsil ko'chirib bo'lmaydi. Nusxa ko'chiruvchi emas, yaratuvchi bo'lgan usta har doim talabga ega va raqobatdan xoli bo'ladi.*



**Студия керамики семьи Рахимовых**
Адрес: Ташкент, Шайхантахурский район,
ул. Кукча Дарвоза, д. 15
Телефоны: +998 90 987 20 63, +998 90 992 44 01
Сайт: www.ceramic.uz
Инстаграм: https://instagram.com/rakhimovs_studio

О визите в мастерскую необходимо договариваться заранее по телефону. В ходе экскурсии вам покажут помещение, где расписывают изделия и проходят мастер-классы, комнату творчества Акбара Рахимова и комнату обжига. На улице расположен садик, где приятно посидеть и сделать фотографии, там же находится музей семьи (фотографировать внутри нельзя). В среднем экскурсия в мастерскую занимает около 30 минут. Обращаем ваше внимание, что работы семьи Рахимовых можно купить только в их мастерской.

**Kulol Rahimovlar studiyasi**
Manzil: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,
Ko'kcha Darvoza ko'chasi, 15-uy
Telefon: +998 90 987 20 63, +998 90 992 44 01
Veb-sayt: www.ceramic.uz
Instagram: https://instagram.com/rakhimovs_studio

Ustaxonaga tashrif buyurish xususida oldindan telefon orqali kelishib olish zarur. Ekskursiya davomida sizga buyumlarga naqsh solinadigan va mahorat darslari o'tkaziladigan ustaxona, Akbar Rahimovning ijod xonasi va sopolni pishirish xonasi namoyish etiladi. Ko'chada kichik bog' bo'lib, u yerda hordiq chiqarish va suratga tushish mumkin, shuningdek, u yerda oilaviy muzey ham bor (ichkarida suratga olish mumkin emas). Odatda, ekskursiya taxminan 30 daqiqa davom etadi. Shuni e'tiborga olingki, Rahimovlar oilasi asarlarini faqat ularning ustaxonasida sotib olish mumkin.



# Кинематограф Узбекистана: путешествие по истории кино

## *O‘zbek kinematografiyasi: kino tarixiga sayohat*



*Узбекский кинематограф – это захватывающее путешествие сквозь время – от становления национальной киношколы до современных успехов. Мы приглашаем вас окунуться в его историю: узнать о первых кинопоказах на территории Узбекистана, познакомиться с людьми, заложившими фундамент национального кинематографа, и открыть для себя перспективы этой стремительно развивающейся индустрии. Вместе с академиком IFA и одним из основателей Ташкентского ВГИКа Эльдаром Юлдашевым мы рассказываем о ключевых моментах, которые делают узбекское кино уникальным.*

*O‘zbek kinematografiyasi — bu milliy kino maktabining shakllanishidan boshlab, to hozirgi yutuqlarigacha bo‘lgan davr bo‘ylab maroqli sayohat. Sizlarni uning tarixiga nazar solib, O‘zbekiston hududidagi ilk kino namoyishlari va milliy kinematografiya poydevorini qo‘ygan insonlar bilan tanishish, jadal rivojlanayotgan bu sohaning istiqbollarini kashf etishga taklif qilamiz. IFA akademigi va Toshkent VGIK (Butunrossiya davlat kinematografiya universiteti) asoschilaridan biri Eldor Yo‘ldoshev bilan birgalikda o‘zbek kinosini betakror qiluvchi asosiy jihatlari haqida hikoya qilamiz.*

## С чего все начиналось?

### *Hammasi qanday boshlangan?*

Так исторически сложилось, что Узбекистан – колыбель кинематографа в Центральной Азии. Если в 1895 году в Париже на бульваре Капуцинок Братья Люмьер провели первый кинопоказ в мире, то спустя всего лишь два года – в 1897-м – сеансы синематографа были и в Ташкенте.

Первые творческие работы в регионе также появились у нас. Ещё в далёком 1910 году кинооператор Худайберган Деванов снимал документальные сюжеты о выезде на фаэтоне хивинского хана Асфандияра на кинокамеру марки «ПАТЭ № 593». В 1924 году была создана киностудия «Бухкино». Согласно документальным свидетельствам, еще в 1912 году при при эмире Бухары Саид Алим-хане открылись и первые профессиональные кинотеатры в эмирате.

В Ташкенте также была создана киностудия «Шарк юлдузи», позже преобразованная в легендарный «Узбекфильм». Немаловажно, что в этом году отмечается юбилей – 90-летие узбекской кинохроники, которая была основана в 1934 году. Позже под руководством хроникёра, народного артиста СССР Малика Каюмова узбекское кино начало развиваться бурными темпами. Он был не только творцом, но и строителем кино в прямом смысле слова, инициатором возведения легендарного Дома кино, киностудии документальных фильмов, студии грамзаписи «Мелодия»,Творческого клуба деятелей киноискусства, Дома творчества «Дурмень» и других знаковых для узбекского кинематографа объектов.

O‘zbekiston tarixiy ma’noda Markaziy Osiyodagi kinematografiya beshigi bo‘lgan. Aka-uka Lyumerlar 1895-yilda Parijning Kaputsinok xiyobonida o‘zlarining dunyodagi birinchi kino namoyishini o‘tkazgan bo‘lsa, oradan atigi ikki yil o‘tib, 1897-yilda Toshkentda ham sinematografiya seanslari tashkil etilgan.

Mintaqadagi ilk ijodiy ishlar ham bizda paydo bo‘lgan. Uzoq 1910-yildayoq kinooperator Xudoybergan Devonov “PATE №593” rusumli kinokamerada Xiva xoni Isfandiyorning foytundagi sayri haqida hujjatli syujetlarni suratga olgan edi. 1924-yilda “Buxkino” kinostudiyasi tashkil etilgan va hujjatlarga ko‘ra, 1912-yildayoq Buxoro Amiri Said Olimxon davrida amirlikdagi dastlabki professional kinoteatrlar faoliyati boshlangan.

Toshkentda ham “Sharq yulduzi” kinostudiyasi tashkil etilib, keyinchalik afsonaviy “O‘zbekfilm” kinostudiyasiga aylantirilgan. Shunisi e’tiborga loyiqki, bu yil 1934-yilda tashkil etilgan o‘zbek kinoxronikasining 90-yilligi nishonlanmoqda. Keyinchalik o‘zbek kinosi xronikachi, SSSR xalq artisti Malik Qayumov rahbarligida jadal sur’atlar bilan rivojlangan. Malik Qayumov nafaqat ijodkor, balki tom ma’nodagi kino bunyodkori ham edi. U afsonaviy Kinochilar uyi, hujjatli filmlar kinostudiyasi, “Melodiya” ovoz yozish studiyasi, Kino san’ati namoyondalari ijodiy klubi, “Do‘rmon” ijod uyi va o‘zbek kinematografiyasi tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa obyektlar qurilishining tashabbuskori bo‘lgan.



Позже, в 1945 году, открывается Ташкентский государственный институт театрального искусства имени А. Н. Островского, который становится кузницей кадров для всего региона. Именно в нем в 1968 году возник легендарный ансамбль «Ялла».

Один из плюсов того времени заключался в том, что в большое кинопроизводство допускались только профессионалы высокого уровня. Музыку для фильмов, например, писали народные артисты Узбекистана Манас Ливиев и Икрам Акбаров, заслуженные деятели искусств страны Румиль Вильданов и Мирхалил Махмудов, и это была крупная форма, то есть симфоническая оркестровка. Процесс отбора проходил серьезно и в несколько этапов, как и для кандидатов в отряд космонавтов.

Сейчас таких профессионалов по пальцам можно пересчитать – это Феликс и Дмитрий Янов-Яновские, Ойдин Абдуллаева и Игорь Пинхасов. И так было с каждым звеном в кинопроизводстве. Чтобы стать режиссёром-постановщиком высшей категории, необходимо было иметь как минимум высшее профессиональное образование, стаж работы в должности режиссёра-постановщика первой категории не менее 5 лет, и только тогда могли доверить какой-нибудь крупный сложнопостановочный художественный фильм.

Keyinchalik, 1945-yilda, butun mintaqa uchun kadrlar tayyorlash o'chog'iga aylangan A.N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent davlat teatr san'ati instituti tashkil etildi. Aynan, shu yerda 1968-yilda afsonaviy "Yalla" ansambli tashkil topdi.

O'sha davrning ijobiy tomonlaridan biri shundaki, katta kino ishlab chiqarish sohasiga faqat yuqori darajadagi professionallargina kiritilgan. Masalan, kino uchun musiqani xalq artistlari Manas Liviyev va Ikrom Akbarov, mamlakatda xizmat ko'rsatgan san'at arboblari Rumil Vildanov va Mirxalil Mahmudovlar yaratgan, bu yirik ko'rinishdagi simfonik orkestr bo'lgan. Tanlov jarayoni xuddi kosmonavtlar guruhi uchun nomzodlarni saralashda bo'lgani kabi jiddiy tarzda va bir necha bosqichda olib borilgan.

Hozirgi kunda bunday mutaxassislarni barmoq bilan sanash mumkin — bular Feliks va Dmitriy Yanov-Yanovskiylar, Oydin Abdullayeva va Igor Pinxasovlar. Kino ishlab chiqarishning har bir bo'g'inida ham shunday bo'lgan. Oliy toifali sahnalashtiruvchi rejissyor darajasiga erishish uchun kamida oliy kasbiy ma'lumotga ega bo'lish, birinchi toifali sahnalashtiruvchi rejissyor lavozimida kamida 5 yillik ish staji bo'lishi talab etilgan. Ana shundagina, murakkab sahnalashtirilgan biror yirik badiiy film ishonib topshirilgan.



# Что делает узбекское кино особенным?

## *Qaysi jihatlar o'zbek kinosini o'ziga xos qiladi?*

Главным образом наша аутентичность – это уникальные менталитет, культура, история и быт, которые выделяют нас среди всех. Если снимается голливудское клише, то успешными такие фильмы, как правило, не становятся.

Например, драма Шакира Халикова «Воскресенье», на мой взгляд, одна из лучших последних авторских работ в узбекском кино. Несмотря на то, что фильм во время утверждения проходил очень тернистый путь, в итоге дебютная работа молодого режиссёра получила мировое признание.

Премьера состоялась 13 июня 2023 года в рамках двадцать пятого Шанхайского международного кинофестиваля, где картина получила «Золотой кубок», а это довольно авторитетная площадка, фестиваль аккредитован FIAPF. Кинокритик Антон Долин включил «Воскресенье» в список «пяти новых завораживающих фильмов, снятых молодыми режиссёрами из Центральной Азии».

Также можно отметить ещё одного молодого режиссёра – это мой студент Тимур Муродов со своим короткометражным фильмом «Кассета». Картина начала свой путь успеха с Ташкентского международного кинофестиваля, где получила Гран-при из рук Кшиштофа Занусcии. Далее на Нью-Йоркском кинофестивале фильм заметил Эмир Кустурица и пригласил его уже на свой кинофестиваль «Кустендорф», где картина также стала победителем. В общей сложности дебютная короткометражка Тимура объездила полмира.

Будь то полный метр или короткий, если кино про нашу самобытность, про наших людей, про нас с вами – фильм обретет внимание. Главное не копировать, оставаться собой.







Bizning noyob jihatlarimiz — bu bizlarni boshqalardan ajratib turadigan o'ziga xos mentalitet, madaniyat, tarix va turmush tarzimiz. Gollivud andozalari asosida suratga olingan filmlar esa, odatda muvaffaqiyatga erishmaydi.

Masalan, Shokir Xoliqovning "Yakshanba" dramasi, nazarimda, so'nggi yillarda o'zbek kinosida yaratilgan eng yaxshi mualliflik asarlaridan biridir. Garchi film tasdiqlash jarayonida juda og'ir yo'lni bosib o'tgan bo'lsa-da, yosh rejissyorning bu debyut asari jahon miqyosida e'tirof etildi.

Film premyerasi 2023-yil 13-iyunda FIAPF tomonidan akkreditatsiya qilingan, nufuzli maydon hisoblanadigan yigirma beshinchi Shanxay xalqaro kinofestivali doirasida bo'lib o'tdi va "Oltin kubok" mukofotiga sazovor bo'ldi. Kinotanqidchi Anton Dolin "Yakshanba" filmini "Markaziy Osiyolik yosh rejissyorlar tomonidan suratga olingan beshta eng yaxshi yangi filmlar" ro'yxatiga kiritdi.

Shuningdek, "Kasseta" qisqa metrajli filmini suratga olgan yana bir yosh rejissyor — mening talabam, Timur Murodovni ham aytib o'tish mumkin. Film o'z muvaffaqiyatli yo'lini Kshishtof Zanussiya qo'lidan Gran-prini olgan Toshkent xalqaro kinofestivalidan boshladi. Keyinchalik, Nyu-York kinofestivalida bu filmni Emir Kusturitsa e'tiborga olib, o'zining "Kustendorf" kinofestivaliga taklif etdi va film unda ham g'olib bo'ldi. Umuman olganda, Timurning qisqa metrajli debyut filmi dunyoning yarmini aylanib chiqdi.

Film xoh to'liq, xoh qisqa metrajli bo'lsin, agar u bizning o'zligimiz, xalqimiz, siz bilan biz haqimizda bo'lsa, u albatta e'tiborni tortadi. Eng muhimi boshqalardan ko'chirmaslik, o'zligimizcha qolishdir.

# Кто создал и направил индустрию

## Sanoatini kim yaratgan va yo‘naltirgan



**ХУДАЙБЕРГЕН ДЕВАНОВ**
*Xudoybergan Devonov*
(1879–1940)

Худайберген Деванов (1879–1940) – первый человек в нашем регионе, взявший в руки кинокамеру. Учителем Деванова был немец-кинолюбитель Вильгельм Пеннер, который приобщил его к фотоделу и кинооператорству. В обстановке ортодоксального исламского общества, в котором испокон веков существовал религиозный запрет на изображение всего одушевленного, Деванов сумел стать первым фотографом, а затем и кинооператором Хивинского ханства. 1908 год стал датой рождения узбекского кино. Худайберген Деванов снимал на камеру исторические достопримечательности, минареты, мечети и многое другое. Благодаря его работе жители других стран впервые познакомились с древней самобытной культурой Хорезма.

Xudoybergan Devonov (1879-1940) — mintaqamizda birinchi bo‘lib kinokamerani qo‘liga olgan kishi. Xudoybergan Devonovning birinchi ustozi nemis kino havaskori Wilgelm Penner bo‘lib, u Xudoyberganni suratga olish va kinooperatorlik bilan tanishtirgan. Azaldan barcha jonli mavjudotlarni tasvirlashga diniy ta’qiq mavjud bo‘lgan ortodoksal islom jamiyati sharoitida Devonov Xiva xonligining birinchi fotografi, keyinchalik esa kinooperatori bo‘lishga muvaffaq bo‘lgan. 1908-yil o‘zbek kinosining dunyoga kelgan sanasi hisoblanadi. Xudoybergan Devonov tarixiy yodgorliklar, minoralar, masjidlar va boshqa ko‘plab narsalarni tasvirga olgan. Uning mehnati tufayli boshqa mamlakatlar aholisi ilk bor Xorazmning qadimiy o‘ziga xos madaniyati bilan tanishgan.







**МАЛИК КАЮМОВ**
*Malik Kayumov*
(1911–2010)

Малик Каюмов – режиссёр, оператор, актёр, фронтовой кинооператор в годы Второй мировой войны, обладатель званий «Народный артист Узбекистана», «Герой Труда» и ордена «Эл-юрт хурмати», корреспондент «Союзкинохроники» по Средней Азии. Он создал направление хроникально-документального кино и оставил после себя огромное материальное и нематериальное наследие. Талантливый кинооператор за свою многолетнюю творческую деятельность снял более 200 документальных и научно-популярных фильмов, прославив историю, культуру, науку и искусство узбекского народа. Став основателем узбекского документального кино, обогатил узбекское киноискусство редкими произведениями, создал школу в этом направлении.

Malik Qayumov — rejissyor, operator, aktyor va Ikkinchi jahon urushi yillarida front kinooperatori, “O‘zbekiston xalq artisti”, “Mehnat qahramoni” unvonlari hamda “El-yurt hurmati” ordeni sohibi, shuningdek, “Soyuzkinoxronika”ning O‘rta Osiyo bo‘yicha muxbiri bo‘lgan. U xronikal-hujjatli kino yo‘nalishiga asos solib, o‘zidan ulkan moddiy va nomoddiy meros qoldirgan. Iste’dodli kinooperator o‘zining ko‘p yillik ijodiy faoliyati davomida 200 dan ortiq hujjatli va ilmiy-ommabop filmlarni suratga olib, o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati, ilm-fani va san’atini dunyoga tanitgan. O‘zbek hujjatli kinosiga asos solib, o‘zbek kino san’atini nodir filmlar bilan boyitdi, bu yo‘nalishdagi maktabni yaratdi.







**КАМАРА КАМАЛОВА**
*Qamara Kamolova*
(1938)

Камара Камалова – первая в истории кинематографии Узбекистана женщина-режиссёр, а также аниматор-мультипликатор, родоначальница узбекской анимации. Родилась в Бухаре, в 1962 году окончила режиссёрское отделение постановочного факультета ВГИКа (мастерская Г. Рошаля). Работала режиссёром редакции литературно-драматического вещания Ташкентской студии телевидения. С 1965 года – режиссёр киностудии «Узбекфильм». Поставила более десяти мультипликационных кукольных фильмов: «Необычайное приключение» (1966), «Рахим и жук» (1967), «Кто сделал облако?» (1967), «Солнечный луч» (1971), «Велосипедик убежал» (1974) и другие.

Qamara Kamolova — O'zbekiston kinematografiyasi tarixidagi birinchi ayol rejissyor, shuningdek, animator-multiplikator, o'zbek animatsiyasining asoschisi. Buxoroda tavallud topgan, 1962-yilda VGIKning sahnalashtirish fakulteti rejissyorlik bo'limini (G.Roshal ustaxonasi) tamomlagan. Toshkent televideniyesi studiyasining adabiy-dramatik eshittirishlar tahririyatida rejissyor bo'lib ishlagan. 1965-yildan "O'zbekfilm" kinostudiyasida – rejissyor. "G'aroyib sarguzasht" (1966), "Rahim va qo'ng'iz" (1967), "Bulutni kim yaratdi?" (1967), "Quyosh nuri" (1971), "Velosiped qochib ketdi" (1974) kabi o'ndan ortiq multiplikatsion qo'g'irchoq filmlarni suratga olgan.








**ШУХРАТ АББАСОВ**
*Shuhrat Abbosov*
(1931–2018)

Шухрат Аббасов – кинорежиссёр и сценарист, родился в 1931 году в Коканде. Он – мастер, привнёсший в киноискусство новый взгляд, новый вкус, новое мышление. Окончил Ташкентский медицинский техникум (1949), но искусство взяло верх, и Аббасов поступил на режиссёрский факультет Ташкентского государственного института театрального искусства им. А. Н. Островского, который окончил в 1954 году, а в 1958 году – Высшие режиссёрские курсы при «Мосфильме». С 1982 года – директор киностудии «Узбекфильм».

Shuhrat Abbosov — kinorejissyor va ssenariynavis, 1931-yilda Qo'qon shahrida dunyoga kelgan. U – kino san'atiga yangicha qarash, yangi did, yangicha tafakkur olib kirgan ustoz. Abbosov Toshkent tibbiyot texnikumini tamomlagan (1949). Ammo, san'at ustun kelib, u A.N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent davlat teatr va san'at institutining rejissyorlik fakultetiga o'qishga kirgan va 1954-yilda bitirgan, 1958-yilda esa "Mosfilm" qoshidagi Oliy rejissyorlik kurslarini tugatgan. 1982 yildan — "O'zbekfilm" kinostudiyasining direktori.





# Документальное и авторское кино

## *Hujjatli va mualliflik kinosi*



Хочется сказать и про молодую поросль. Один из подающих большие надежды документалистов – **Фуркат Усманов**. На данный момент он возглавляет Центр развития национальной кинематографии и является директором Ташкентского международного кинофестиваля. Снял немало документальных картин, отмеченных на различных международных площадках.

Yosh avlod haqida ham toʻxtalib oʻtish lozim. Hujjatli filmlarning yosh va istiqbolli ijodkorlaridan biri – **Furqat Usmonov**. Hozirgi kunda, u Milliy kinematografiyani rivojlantirish markaziga rahbarlik qilib, Toshkent xalqaro kinofestivalining direktori sifatida faoliyat yuritmoqda. F.Usmonov turli xalqaro maydonlarda eʼtirof etilgan koʻplab hujjatli filmlarni suratga olgan.







**Шерзод Назаров** – ещё один наш студент, единственный представитель Узбекистана, принимавший участие в питчинге 77-го Каннского международного кинофестиваля в этом году. Многие его документальные и короткометражные фильмы, такие как «Моему дедушке – 90», «По Шелковому пути», «Жив солдат», «Вы чьё, старичьё?» заслужили высокую оценку на различных кинофестивалях. Перед ним – большое будущее.

**Sherzod Nazarov** – yana bir talabamiz, bu yilgi 77-Kann xalqaro kinofestivali pitchingida shaxsan ishtirok etgan Oʻzbekistonning yagona vakili. Uning “Bobom 90 yoshda”, “Ipak yoʻli boʻylab”, “Askar tirik”, “Kimning cholisiz” kabi koʻplab hujjatli va qisqa metrajli filmlari turli kinofestivallarda yuqori baholangan. Ijodkorning kelajagi porloq.








# Подборка фильмов, которые познакомят вас с историей и культурой Узбекистана в разные времена

*Sizni turli davrlardagi O'zbekiston tarixi va madaniyati bilan tanishtiradigan filmlar to'plami*




«Об этом говорит вся махалля», 1960 г., реж. Шухрат Аббасов
*"Mahallada duv-duv gap", 1960-yil, rejissyor Shuhrat Abbosov*




«Озорник», 1977 г., реж. Дамир Салимов
*"Shum bola", 1977-yil, rejissyor Damir Salimov*




«Нежность», 1966 г., реж. Эльёр Ишмухамедов
*"Nafosat", 1966-yil, rejissyor Elyor Eshmuhamedov*




«Абдулладжан, или Посвящение Стивену Спилбергу», 1991 г., реж. Зульфикар Мусаков.
*"Abdullajon yoki Stiven Spilbergga bag'ishlanadi", 1991-yil, rejissyor Zulfiqor Musoqov*




«Ты не сирота», 1996 г., реж. Шухрат Аббасов
*"Sen yetim emassan", 1996-yil, rejissyor Shuhrat Abbosov*




«Очарован тобой», 1958 г., реж. Юлдаш Агзамов
*"Maftuningman", 1958-yil, rejissyor Yo'ldosh A'zamov*




# OQ

## — Больше, чем оператор связи

В Узбекистане появилось решение, которое выводит привычные представления о мобильной связи на новый уровень. OQ – это не просто сотовый оператор, а уникальное мобильное приложение, объединяющее в себе функции связи и медиаплатформы.

С помощью OQ пользователи смогут не только совершать звонки и пользоваться интернетом, но и получить доступ к эксклюзивным фильмам, ериалам, музыке, подкастам и концертам. Подключение — быстрое и удобное: стать абонентом можно онлайн за несколько минут.

Наслаждайтесь свободным временем с разнообразным контентом и оставайтесь всегда на связи с OQ.

**Скачать приложение**
App Store Google Play




Услуги предоставляются ООО "Unitel."
Услуги лицензированы.

РЕКЛАМА



# Узбекская лепёшка: от колыбели и на всю жизнь

## O‘zbek noni: beshikdan boshlab bir umrga

Уважение – пожалуй, то слово, которое звучало чаще всего в нашем интервью с шеф-поваром и ресторатором Бахриддином Наджмиддиновым, известным в родной стране и за её пределами как Бахриддин Чустий. А как же без уважения, если хлеб сопровождает с колыбели, куда его кладут в качестве защиты от злых духов, и на протяжении всей жизни – первых шагов, проводов в армию, сватовства и женитьбы?

Мы встретились с Чустием в его ташкентском ресторане Aksu и поговорили о том, какие виды лепёшек существуют в Узбекистане и как по одному лишь рисунку понять, где они произведены, что обязательно нужно попробовать гостям страны и о множестве ритуалов, связанных с выпечкой. Бахриддина мы выбрали в первую очередь потому, что он является автором книги «Нон», в которой собрано порядка 50 уникальных рецептов узбекского хлеба.

Hurmat — ona yurti va uning tashqarisida Bahriddin Chustiy nomi bilan mashhur bo‘lgan bosh oshpaz va restorator Bahriddin Najmiddinov bilan suhbatimizda eng ko‘p yangragan so‘z bo‘lsa kerak. Axir, ins-jinslardan himoya qilishi uchun beshigiga qo‘yiladigan, keyin esa insonni butun umri davomida — birinchi qadamidan tortib harbiy xizmatga kuzatish-u, sovchilik va to‘y marosimlarigacha doim birga bo‘ladigan nonga hurmat ko‘rsatmay bo‘ladi-mi?

Chustiy bilan uning Toshkentdagi “Aksu” restoranida uchrashdik, O‘zbekistonda nonning qanday turlari borligi va uning ustiga tushirilgan naqshiga qarab qayerda tayyorlanganini qanday bilish mumkinligi, mamlakatimiz mehmonlari nimalarni albatta tatib ko‘rishlari kerakligi hamda non pishirish bilan bog‘liq ko‘plab marosimlar haqida suhbatlashdik. Bahriddinni esa, avvalo, o‘zbek nonining 50 ga yaqin noyob retseptini o‘zida jamlagan “Non” kitobining muallifi bo‘lgani uchun tanladik.

**Бахриддин в этом году празднует сорокалетний юбилей, а работать помощником повара он начал в четырнадцать лет. Псевдоним – Чустий – взят в честь родного города Чуста, расположенного в Наманганской области. Сегодня герой нашего материала – ресторатор, основатель и бренд-шеф нескольких заведений как в Узбекистане, так и за его пределами, автор книг, блогер, участник кулинарных шоу, популяризатор национальной кухни внутри страны и в мире. За всё время работы его блюда вкусили более десятка глав различных государств. О популярности говорит и тот факт, что Чустия сравнивают с известным британским кулинаром Джеймсом Оливером.**

**Bahriddin bu yil qirq yoshini qarshilamoqda, u oʻn toʻrt yoshida oshpaz yordamchisi boʻlib ish boshlagan. Chustiy taxallusini Namangan viloyatidagi ona shahri Chust sharafiga olgan. Bugungi kunda qahramonimiz nafaqat Oʻzbekistonda, balki chet ellarda ham bir nechta restoranlarga asos solgan va ularning brend-shefi, kitoblar muallifi, bloger, pazandalik koʻrsatuvlari ishtirokchisi, milliy taomlarimizni mamlakatimiz va dunyoda targʻib qiluvchi inson. Butun faoliyati davomida uning taomlarini turli davlatlarning oʻnlab rahbarlari tatib koʻrishgan. Chustiyni taniqli britaniyalik oshpaz Jeyms Oliver bilan taqqoslashlari ham uning mashhurligidan dalolat beradi.**





**– Бахриддин, расскажите, пожалуйста, о книгах, которые вы написали.**

– Я — автор двух книг: «365 дней солнца» – своего рода travel-book по гастрономическому Узбекистану, и «Нон», посвящённой только лепёшкам. Первую мы, помимо Ташкента, презентовали в Лондоне и через посольство Республики Узбекистан передали с официальным письмом в библиотеку королевы Великобритании Елизаветы II. Надеюсь, её посчитали достойной стоять где-то на полке в Лондоне.

Также я работал в составе команды над другими книгами. «Узбегим» – это большой государственный проект о традициях и культуре нашей страны, где я отвечал за часть, связанную с кулинарией. В 2017 году на презентации проекта под моим руководством была приготовлена самая большая порция плова в мире весом почти 7,5 тонны, что было зафиксировано в Книге рекордов Гиннесса! И ещё одна книга была написана по заказу Министерства дошкольного и школьного образования: мы пытались обновить рецепты и технологии детского питания, которые не менялись с 1973-го года.

**— Bahriddin, oʻzingiz yozgan kitoblar haqida soʻzlab bersangiz.**

— Men ikkita — gastronomik Oʻzbekiston boʻyicha oʻziga xos travel-book boʻlgan “Quyoshli 365 kun” va faqat nonlarga bagʻishlangan “Non” kitobi muallifiman. Birinchi kitobni Toshkentdan tashqari Londonda ham taqdim etib, Oʻzbekiston Respublikasi elchixonasi orqali rasmiy xat bilan Buyuk Britaniya qirolichasi Yelizaveta II kutubxonasiga topshirdik. Uni Londondagi biror javonda turishga munosib ko'rishgan, deb umid qilaman.

Shuningdek, jamoa tarkibida boshqa kitoblar ustida ham ishladim. “Oʻzbegim” bu — yurtimiz an'analari va madaniyatiniorituvchi ulkan davlat loyihasi boʻlib, uning oshpazlik qismiga mas'ul edim. 2017-yilda loyiha taqdimoti oʻtkazilayotganda mening rahbarligimda ogʻirligi deyarli 7,5 tonna boʻlgan dunyodagi eng katta palov tayyorlandi va bu Ginnesning rekordlar kitobiga kiritildi! Yana bir kitob Maktabgacha ta'lim vazirligi buyurtmasi asosida yozildi: biz 1973-yildan buyon oʻzgarmay kelayotgan bolalar taomlari retseptlari va texnologiyalarini yangilashga harakat qildik.

**– Наш материал посвящён узбекскому хлебу. Скажите, он ведь в настоящий момент не входит в список памятников нематериального наследия ЮНЕСКО, как, например, армянский лаваш или французский багет?**

– У нас уже состоялись первые обсуждения с представителями ЮНЕСКО о внесении узбекской лепёшки в этот список. Вообще, это достаточно долгий процесс: собрать этнографов, историков, лепёшечников, записать видеоролики, организовать обсуждения во главе с представителями ЮНЕСКО. Но, думаю, со временем всё получится, потому что с хлебом связано много интересных традиций.

**– Давайте поговорим о традициях, связанных в нашей культуре с хлебом.**

– Хлеб сопровождал человека с колыбели, куда его клали под голову младенцу, оберегая от злых духов. По крайней мере, так было раньше. Перед уходом в армию или на войну мужчина откусывал кусочек лепёшки, и её подвешивали в доме, чтобы ушедший вернулся живым и доел. В путешествие брали выпечку в качестве спутника и оберега, а во время сватовства ломали хлеб в знак договорённостей – это обряд «нон синдириш».

Традиции в узбекских регионах могут быть похожи, а сам вид хлеба при этом быть разным. В Коканде и Фергане это будет сдобный патыр, в Самарканде – особые самаркандские лепёшки. Также в Самарканде на мероприятии подадут большие праздничные хлеба с надписью «Тўйлар муборак!», что означает «С днём свадьбы!». В Намангане на праздничном столе обязательно должен быть ширмой нон. Не может быть такой ситуации, чтобы в Намангане на столе лежала самаркандская лепешка, и наоборот.

**— Materialimiz oʻzbek noniga bagʻishlangan. Ayting-chi, u ayni paytda, masalan, arman lavashi yoki fransuz bageti kabi YUNESKOning nomoddiy merosi roʻyxatiga kiritilganmi?**

— YUNESKO vakillari bilan oʻzbek nonini ushbu roʻyxatga kiritish boʻyicha dastlabki muhokamalar boʻlib oʻtdi. Aslida, bu ancha uzoq davom etadigan jarayon: etnograflar, tarixchilar, novvoylarni toʻplash, videolarni suratga olish, YUNESKO vakillari boshchiligida muhokamalarni tashkil etish zarur. Biroq, vaqti kelib hammasi oʻz oʻrniga tushadi deb oʻylayman, chunki non bilan bogʻliq juda koʻp qiziqarli anʼanalar bor.

**— Keling, madaniyatimizda non bilan bogʻliq boʻlgan urf-odatlar haqida suhbatlashaylik.**

— Non insonga beshikda ins-jinslardan asrasin deya boshi ostiga qoʻyilgandan boshlab hamrohlik qilib kelgan. Har holda, ilgari shunday edi. Armiyaga yoki urushga ketayotgan erkak bir tishlam tishlagan non, u tirik qaytib kelib yeb tugatsin, deya uyga osib qoʻyilardi. Nonni safarda hamroh va himoyachi boʻlsin deya oʻzlari bilan olishgan, sovchilik paytida esa kelishuv belgisi sifatida “non sindirish” udumi bor.

Oʻzbekiston mintaqalaridagi anʼanalar bir-biriga oʻxshash, nonning oʻzi esa har xil boʻlishi mumkin. Qoʻqon va Fargʻonada bu yogʻli patir boʻlsa, Samarqandda oʻziga xos Samarqand noni tayyorlanadi. Bundan tashqari, Samarqanddagi toʻy marosimlarida dasturxonga “Toʻylar muborak!” yozuvli katta bayram nonlari tortiladi. Namanganda esa, bayram dasturxonida albatta, shirmoy non boʻlishi shart. Namangandagi dasturxonga Samarqand noni yoki aksincha, Samarqand dasturxoniga Namangan noni tortiladigan holat boʻlmaydi.







**– Получается, хлеб – во многом священный предмет. Есть какие-то особые ритуалы перед тем, как пекарь приступает к выпечке?**

– В 90-х годах, когда я учился, нас без ритуала омовения не подпускали к тесту и тандыру. Это не только про чистоту, это про уважение к хлебу. Надеюсь, данная традиция сохранилась.

**— Demak, non koʻp jihatdan muqaddas neʼmat ekan. Novvoy nonni yopishga kirishishidan oldin bajariladigan biror-bir marosim bormi?**

— 90-yillarda oʻquvchi boʻlgan davrlarimizda, bizni tahoratsiz xamir va tandirga yaqinlashtirishmasdi. Bu nafaqat ozodalik, balki nonga boʻlgan hurmat hisoblanadi. Umid qilamanki, ushbu anʼana hozirga qadar saqlanib qolgan.



**– А можно сосчитать, сколько рецептов хлеба существует в Узбекистане?**
– Нет, конечно. Это «живая» отрасль, лепёшечники каждый день работают над технологиями, привнося что-то новое в старую добрую классику. У меня даже была такая ситуация: книга «Нон» была на стадии завершения, но тут я обнаружил в энциклопедиях такие позиции, о которых ранее даже не слышал! Я боялся продолжать изучать дальше и вообще не завершить свой труд.

**– Какие именно лепёшки должны попробовать гости, приезжающие в Узбекистан впервые?**
– В каждом регионе Узбекистана ищите местный хлеб: в Ташкенте – из сдобного теста, в Коканде – кокандскую лепёшку из песочного теста, печенье-патыр, в Самарканде – самаркандские лепёшки, которые не плесневеют и долго хранятся, в Намангане – ширмой нон, в Бухаре – лепёшки без сахара для диабетиков.

Самый большой ассортимент лепёшек в Узбекистане встречается в Хорезмском регионе (не берем в расчет Ташкент, где работают лепёшечники со всей страны): разноцветные – с томатами, тыквой, луком, зеленью, мясом. У них совсем другие лепёшки, отличаются от всех.

Вкуснейшие слоёные лепёшки делают в Самарканде, Бухаре и Кашкадарьинской области. Они пекутся в духовке, а в Хорезме их выпекают в тандыре: хлеб из тандыра тоньше и за счёт этого даёт больше хруста.

Вообще, для меня топовые лепёшки – это оби-нон: просто вода, дрожжи и мука. Когда хлеб свежеиспеченный – аромат не передать! И обязательно ищите возможность попробовать домашний хлеб от хозяек, мам, а не профессиональных пекарей. То, что делается дома, на обычной кухне, всегда уникально по вкусу и технологии.

**— O'zbekistonda nechta non retsepti borligini sanab chiqish mumkinmi?**
— Albatta, yo'q. Bu "jonli" soha, novvoylar har kuni texnologiyalar ustida ishlab, eski an'analarga biror yangilik olib kirishadi. Hayotimda shunday bir vaziyat ham bo'lgandi: "Non" kitobi tugallanish bosqichida edi, lekin men ensiklopediyalarda ilgari eshitmagan narsalarim haqida ma'lumot topdim! Izlanishlarimni davom ettirishdan va umuman ishimni yakuniga yetkaza olmasligimni o'ylab, qo'rqib ketdim!

**— O'zbekistonga ilk bor tashrif buyurgan mehmonlar aynan qaysi nonni tatib ko'rishlari kerak?**
— O'zbekistonning har bir mintaqasida mahalliy nonni topishga harakat qiling: Toshkentda — yog'li xamirdan tayyorlangan non, Qo'qonda — qumoq xamirdan pishirilgan Qo'qon noni va pechenye-patir, Samarqandda — mog'orlamaydigan va uzoq saqlanadigan Samarqand noni, Namanganda — shirmoy non, Buxoroda esa qandli diabet bilan og'rigan bemorlar uchun mo'ljallangan shakarsiz nonlar uchraydi.

O'zbekistonda eng keng assortimentdagi nonlarni, xilma-xil rangli — pomidorli, qovoqli, piyozli, ko'katli, go'shtli nonlarni Xorazm viloyatida uchratish mumkin (butun mamlakatdan kelib ishlaydigan novvoylar to'plangan Toshkentni hisobga olmaganda). Ularning nonlari butunlay o'zgacha bo'lib, boshqalarnikidan ajralib turadi. Eng mazali qatlama nonlar Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida tayyorlanadi. Ular pechda, Xorazmda esa tandirda pishiriladi: tandirda tayyorlangan non yupqa va shu tufayli yanada qarsildoq bo'ladi.
Umuman olganda, men uchun eng zo'r non bu — obi-non: faqat suv, xamirturush va un. Tandirdan yangi uzilgan nonning xushbo'y hidini so'z bilan ifodalab bo'lmaydi! Shuningdek, albatta professional novvoylar emas, balki, uy bekalari va onaxonlar yopgan uy nonini tatib ko'rishga harakat qiling. Uydagi oddiy oshxonada tayyorlanadigan narsalar ta'm va tayyorlash usuli jihatidan har doim o'zgacha bo'ladi.



**СПЕЦИАЛЬНО С БАХРИДДИНОМ МЫ СОСТАВИЛИ СЛОВАРИК НА ТЕМУ ХЛЕБА. ЗАПОМИНАЙТЕ!**

**Чекич**
штамп для нанесения узоров на лепёшку, отличается рисунком и материалом в зависимости от региона

**Тандыр**
глиняная печь для выпечки лепешёк, заготовки лепятся прямо на стенки

**Новвой**
пекарь

**Поркаш**
человек, который отвечает именно за лепку лепёшки.

**Хампоторош**
дословно – «очистка, обрезка», это шпатель/скребок для теста. В узбекском словаре такого слова нет, но вот понятие используется в повседневной работе пекарей

**Рапида**
подушка/приспособление круглой формы, на которой лепят лепешку и потом переносят на стенки тандыра

---

**Bahriddin bilan birga non mavzusida maxsus lug‘atcha tuzdik. Eslab qoling!**

**Chakich**
nonga naqsh solish uchun ishlatiladigan shtamp, hududiga qarab naqsh va materiali bilan farq qiladi

**Tandir**
non yopish uchun ishlatiladigan loy pech, non xamiri to‘g‘ridan-to‘g‘ri tandir devoriga yopishtiriladi

**Novvoy**
non pishiruvchi

**Porkash**
aynan xamirdan non yasashga mas’ul bo‘lgan odam

**Xampotorosh**
so‘zma-so‘z “tozalash, qirqish” ma`nosini anglatadi, bu xamir uchun shpatel/kurakcha. O‘zbek lug‘atida bunday so‘zni topolmadim, lekin u novvoylarning kundalik faoliyatida ishlatiladi

**Rapida**
non xamiri yopishtirilib, keyin uni tandir devoriga ko‘chirish uchun ishlatiladigan dumaloq shakldagi yostiqcha yoki moslama











**– Перечислите виды национальной выпечки, которые вы можете назвать самыми необычными?**

– Самая необычная лепёшка – зогора-нон. Такой, пожалуй, больше нигде в мире нет – она делается на основе сорго (или джугары) в Хорезмском регионе и Каракалпакстане. Что ещё? Только в Гиждуване и Намангане в опару добавляют настой нута и семена фенхеля – получается очень ароматно. Рецепт схож, только опара для гиждуванских лепёшек должна подходить в исключительно в медной посуде – не пластиковой, не керамической, именно медной – так запускаются определённые химические процессы.

Третий вид – сардак-патир. Во время варки головы и ножек барана, принесённого в жертву в честь праздника (женитьба, обрезание, помолвка), образуется жир, который вместе с бульоном добавляют в тесто для лепёшек. Ищите сардак-патир в Фергане. Ещё есть джизза-нон – слоёная лепешка со шкварками, и пиёзли-нон – с луком.

**— Milliy pishiriqlarning qaysi turlarini eng noodatiy deb ayta olasiz?**

– Eng antiqa non — zog‘ora-non. Menimcha, bunday non dunyoning boshqa hech bir joyida yo‘q — u Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘istonda jo‘xori asosida tayyorlanadi. Bu non haqida yana nimani aytish mumkin? Faqat G‘ijduvon va Namanganda uning xamirturushiga no‘xat damlamasi va arpabodiyon urug‘i qo‘shiladi — natijada non juda xushbo‘y bo‘ladi. Ikkala mintaqadagi zog‘ora non retsepti o‘xshash, lekin G‘ijduvon noni uchun xamirturush faqat mis idishlarda tayyorlanishi shart, plastik yoki sopol idishlarda emas, aynan misda — shundagina ma’lum kimyoviy jarayonlar sodir bo‘ladi.

Uchinchi turi — sardak-patir. Bayram (to‘y, sunnat to‘yi, fotiha to‘yi) munosabati bilan qurbon qilingan qo‘chqorning boshi va oyoqlarini qaynatish paytida hosil bo‘lgan yog‘ sho‘rva bilan birgalikda non xamiriga qo‘shiladi. Sardak-patirni Farg‘onada qidirib ko‘ring. Bundan tashqari, yog’li xamirdan tayyorlangan jizza-non va piyozli non ham bor.

**– Если узоры чекича отличаются, получается, что по оттискам можно определить, откуда лепёшка?**

– Да, конечно! Если вы видите на лепёшке квадратный крупный оттиск с большими проколами – это Бухара, там используют деревянные штампы в работе. Если обычная круглая лепёшка без узоров и с небольшими проколами, то она из Хорезмского региона, а сам штамп называется тикач. Хлебу из Ферганской долины свойственны узоры, обычно это цветки или лепестки, а в Ташкенте – обычные классические лепёшки, но в последнее время их всё чаще стали украшать.

**– Традиции и виды хлеба мы обсудили, а какие есть правила за столом для гостей: нельзя резать лепёшку – её рвут руками, нельзя переворачивать – это знак неуважения. Что ещё?**

– Нельзя есть хлеб стоя, потому что крошки рассыпятся по полу и на них могут наступить ногами – это неуважение. Про это даже выражение есть, которое переводится как «Крошка хлеба тоже хлеб».

Нельзя выбрасывать хлеб. Старшее поколение всегда делало сухари, которые ели со сладким чаем или с супами. Либо, например, раньше на базарах в мешках продавали измельчённые в крошку лепёшки, которые использовали как панировку и для приготовления десерта для детей, смешивая с сахаром. Этакий «попкорн» того времени. Выбрасывать хлеб нельзя, а использовать в блюдах можно и нужно. В моей книге «Нон», помимо выпечки, собрано около десятка рецептов блюд с хлебом. Можно приготовить дымляму, шуртак, как делают в Хорезме, или малда нон – в Сурхандарье.

**— Chakich naqshlari bir-biridan farq qilsa, demak, tushirilgan izlarga qarab nonning qayerda tayyorlanganini aniqlash mumkin ekanda?**

— Ha, albatta! Agar non yuzasida katta teshikli yirik kvadrat shaklidagi bosma iz ko'rsangiz bu — Buxoro noni, u yerda yog'och shtamplar ishlatiladi. Agar oddiy dumaloq non naqshsiz va kichik teshikchalar bo'lsa, u Xorazm viloyatiga taalluqli, shtampi esa tkech deb ataladi. Farg'ona vodiysi nonlariga gul yoki barglar naqshi tushirilishi xos. Toshkentda esa an'anaviy klassik nonlar tayyorlanadi, lekin so'nggi paytlarda ularni ham bezatish odat tusiga kirib bormoqda.

**— Non bilan bog'liq an'analar va uning turlarini muhokama qildik, dasturxon atrofida mehmonlar uchun qanday qoidalar mavjud: nonni kesish mumkin emas — u qo'l bilan sindiriladi, ag'darish mumkin emas — bu hurmatsizlik belgisi. Yana nima?**

— Nonni tik turib yeyish mumkin emas, chunki non ushoqlari yerga tushib, ularni bexosdan oyoq bilan bosib olish mumkin — bu esa hurmatsizlik. Bu haqida hatto: "Nonning ushog'i ham non" degan ibora ham bor.

Nonni isrof qilish mumkin emas. Katta avlod har doim qoq non tayyorlagan va u shirin choy yoki sho'rva bilan iste'mol qilingan. Yoki, masalan, ilgari bozorlarda maydalangan non qoplarga solib sotilgan, undan tolqon sifatida yoki shakar bilan aralashtirib bolalar uchun shirinlik — o'z davrining o'ziga xos "popkorn"ini tayyorlashda foydalanishgan. Nonni tashlab yuborish mumkin emas, undan taomlarda foydalanish mumkin va kerak. Mening "Non" nomli kitobimda pishiriqlardan tashqari, non bilan tayyorlanadigan taomlarning o'nga yaqin retsepti jamlangan. Masalan, Xorazmdagi kabi dimlama, sho'rtak yoki Surxondaryoga xos malda non tayyorlash mumkin.





**– Скажите, если лепёшку используют как тарелку и на ней подают, к примеру, плов или мясо, её можно/нужно есть? Гости страны часто теряются за столом – вроде и попробовать хочется, а вдруг нельзя.**

– Да, можно, это старая традиция. Раньше, когда не было пластиковых контейнеров или пакетов, лепёшки использовали для хранения и транспортировки блюд.

**— Ayting-chi, qoidaga ko'ra, agar nondan likopcha sifatida foydalanib, unda, masalan, palov yoki go'sht tortilganda uni iste'mol qilish mumkinmi/kerakmi? Mamlakatimiz mehmonlari ko'pincha dasturxon atrofida shoshib qoladi — tatib ko'rgisi ham keladi, balki mumkin emasdir, deb tortinishadi ham.**

— Ha, mumkin, bu eski an'ana. Ilgari, plastik konteyner yoki paketlar bo'lmaganda nondan taomlarni saqlash va tashish uchun foydalanilgan.



**– Давайте апоговорим про путешествия. Какая у вас самая любимая страна или город и почему? Что именно там привлекает?**

– Я посетил около 30 стран и 100 городов, но больше всего люблю две страны: Англию – мне интересна её культура, и Турцию, поскольку она близка нашему менталитету. Из городов предпочитаю Лондон за дождливую погоду и то, что это – столица мировой кулинарии, а ещё Берлин, где никогда не возникнет проблем с выбором блюд – там много халяльной еды за счёт большой турецкой диаспоры. В обеих столицах можно найти интернациональную, необычную и в то же время комфортную привычную кухню. Например, в Лондоне я «подсел» на вок: неподалёку от площади Пикадилли есть заведение Wok And Fire с халяльной едой, я могу есть там по три раза в день!

**– Как вы изучаете страны с точки зрения гастрономии?**

– При посещении нового города у меня есть три обязательных локации: A – базар или маркет с местными продуктами, B – стрит-фуд и C – известный ресторан. Недавно я привёз из поездки в Катар десять килограммов фруктов, которые вообще видел в первый раз! Самый интересный стрит-фуд для меня оказался в Китае за счёт разнообразия, а лучшие морепродукты – в Индонезии. По работе мне интересна кухня Франции, потому что, хотим мы того или нет, но сегодня именно она диктует гастрономические правила во всем мире.

В поездках и общении замечаю, что наши соотечественники обычно консервативны в выборе пищи, боятся пробовать новое. И если в части мяса это оправдано религиозными соображениями, то фрукты и зелень надо пробовать обязательно. Считаю, не бывает плохой еды – бывают разные вкусы, привычки и культура.

**– Напоследок хотим поинтересоваться: над каким проектом вы сейчас работаете?**

– Сейчас я работаю над своей пятой книгой, на создание которой меня вдохновили рубаи Омара Хайяма. Она выйдет в единственном экземпляре, это полностью ручная работа. Хочу сделать то, что никто не делал до меня: передать традиции и всю красоту узбекской кухни через миниатюру! Художник уже приступил к созданию росписей: работа начата в январе, а дедлайн у нас в сентябре 2025 года.





**— Keling, sayohat haqida ham gaplashaylik. Eng sevimli mamlakatingiz yoki shahringiz qaysi va buning sababi? Aynan nimasi bilan sizni o‘ziga jalb qiladi?**

- Men 30 ga yaqin mamlakat va 100 ga yaqin shaharda bo‘ldim, lekin hammasidan ham ko‘proq ikkita mamlakatni yoqtiraman: Angliya — meni ularning madaniyati qiziqtiradi va Turkiya, chunki ularning mentaliteti biznikiga yaqin. Shaharlardan yomg‘irli ob-havosi va jahon pazandachiligi poytaxti bo‘lgani uchun Londonni, yana taom tanlashda hech qachon muammo tug‘ilmaydigan Berlinni afzal ko‘raman — katta turk diasporasi tufayli u yerda halol taomlar ko‘p. Ikkala poytaxtda ham xalqaro noodatiy va shu bilan birga biz uchun odatiy taomlarni topish mumkin. Misol uchun, Londonda men vokka “o‘tirib qoldim”: Pikadilli maydonidan uncha uzoq bo‘lmagan joyda halol taomlar tayyorlaydigan Wok And Fire muassasasi bor, men u yerda kuniga uch mahal ovqatlanishim mumkin!

**— Mamlakatlarni gastronomiya nuqtai nazaridan qay tarzda o‘rganasiz?**

— Yangi shaharga tashrif buyurganimda uchta joyga albatta borishim kerak: A – bozor yoki mahalliy mahsulotlar sotiladigan market, B – street-fud va C – mashhur restoran. Yaqinda Qatarga qilgan safarimdan umrimda birinchi marta ko‘rgan mevalardan o‘n kilogramm olib keldim! Men uchun eng qiziqarli strit-fud xilma-xilligi tufayli Xitoyda, eng yaxshi dengiz mahsulotlari esa Indoneziyada edi. Ish yuzasidan men uchun Fransiya taomlari qiziqarli, chunki xohlaymizmi-yo‘qmi bugun aynan ular butun dunyoda gastronomik qoidalarni belgilab beryapti.

Safarlar va muloqotlar davomida shuni payqadimki, hamyurtlarimiz didi odatda konservativ, yangi narsalarni sinab ko‘rishdan cho‘chiydi. Go‘sht masalasida bu diniy sabablarga ko‘ra o‘rinli bo‘lsa-da, ammo meva va ko‘katlarni albatta tatib ko‘rish kerak. Menimcha, yomon taom bo‘lmaydi — har xil ta’mlar, odatlar va madaniyatlar bo‘ladi.

**— So‘nggi savol: hozir qanday loyiha ustida ishlayapsiz?**

— Hozir beshinchi kitobim ustida ishlayapman. U yagona nusxada chiqadi va bu butunlay qo‘l mehnati bo‘lib, uni yaratishga meni Umar Xayyomning ruboiylari ilhomlantirgan. Men o‘zimdan oldin hech kim qilmagan ishni amalga oshirishni — o‘zbek taomlarining butun go‘zalligi va an’analarni miniatyuralar orqali yetkazmoqchiman! Rassom allaqachon rasmlarni yaratishga kirishgan: ish yanvar oyida boshlangan, dedlaynni esa 2025-yilning sentyabr oyiga belgilaganmiz.




RONI NAPOLETANA

# RONI PIZZA

pizza. pasta. cocktails



# ВКУС, КОТОРЫЙ ОБЪЕДИНЯЕТ

Roni Pizza Napoletana — это не просто ресторан, это история о том, как еда сближает людей. Мы гордимся тем, что за 3 года существования стали частью жизни многих, объединяя друзей, семьи и коллег за одним столом.

Наша неаполитанская пицца напоминает чем-то узбекскую лепешку. Она также испечена в горячей дровяной печи, хрустящая снаружи и мягкая внутри. Как и лепешка на узбекском дастархане, пицца занимает центральное место на столе, где люди собираются вместе, чтобы разделить не только пищу, но и разговоры, смех, время.

Мы верим в силу простых вещей. Пицца и паста — это такие же классические блюда, как плов или самса, простые и понятные каждому.

Наша паста Rummo изготавливается с особым вниманием к качеству, и каждый соус сделан так, чтобы идеально подчеркнуть вкус. Мы стремимся создать атмосферу, где каждый гость чувствует тепло, будто ужинает дома с семьёй.

Каждый день мы видим, как наши гости возвращаются, чтобы снова и снова ощутить этот вкус. В выходные, под звуки диджеев, Roni Pizza превращается в точку притяжения.

Наш ресторан — это место, где деловые встречи превращаются в дружеские беседы, где семья делится историями и смехом, а еда становится той связующей нитью, что объединяет всех за столом.

РЕКЛАМА




# Делаем обыденные места культовыми

Мы в Roni Pizza Napoletana знаем, что еда — это не только вкус. Это воспоминания, эмоции и особенные моменты, которые хочется переживать снова и снова. И каждый раз, когда на столе появляется наша пицца или паста, эти моменты становятся частью общей истории.

Мы хотим быть культовыми пиццериями, предлагающими уникальный продукт и атмосферу покоряющие сердца за адекватную цену.

Мы - Gucci в мире неаполитанской пиццы. Наш продукт - эксклюзивный и уникальный среди обыденности. Мы готовим неаполитанскую пиццу в дровяной печи, используя только лучшие ингредиенты создавая неповторимый вкус.

Наша пиццерия будет всегда в центре внимания, а сервис группа всегда улыбчива и готова помочь нашим гостям в любое время. Мы обеспечим наших гостей лучшим сервисом и опытом, и мы гарантируем, что каждый будет уходить с улыбкой на лице и с десятком фотографий для инстаграма.

Делаем обыденные места культовыми, создавая традиции для повседневного отдыха.

Присоединяйтесь к нам и станьте частью истории!

## СТАНЬТЕ НАШИМ ФРАНЧАЙЗИ В СВОЁМ ГОРОДЕ

Предлагаем стать нашим франчайзи и открыть пиццерию RONI в вашем городе.

WWW.RONIPIZZA.UZ/FRANCHISE

bitly

Napoli gang




ICO
NIC
CAFE & BOUTIQUE

# Iconic Cafe & Boutique: классический вкус в новом прочтении

## Iconic Cafe & Boutique: klassik ta’mning yangicha talqini

В Centrum Travel magazine мы не любим просто публиковать рекламу, а искренне делимся тем, что нам действительно нравится. Попробовав линейку десертов от бренд-кондитера Нателлы Гогсадзе в Iconic Cafe and Boutique, мы поняли, что об этом нельзя молчать, побеседовали с этим удивительным человеком и настоятельно рекомендуем попробовать её творения!

Biz Centrum Travel jurnalida shunchaki reklama joylashtirishni yoqtirmaymiz, balki o‘zimizga haqiqatan ham manzur bo‘lgan narsalarni chin dildan siz bilan birgalikda baham ko‘ramiz. Iconic Cafe and Boutique’da brend-qandolatchi Natella Gogsadzening turli xil qandolat mahsulotlarini tatib ko‘rgach, biz bu haqida sukut saqlash mumkin emasligini tushundik. Bu ajoyib inson bilan suhbatlashdik va uning ijod mahsullaridan albatta tatib ko‘rishingiz keraklígini sizga tavsiya qildik!



## Личный путь

**– Как началась ваша карьера?**

С детства я мечтала о небе. Мой отец был связан с авиацией, и самолёты были частью моей жизни. Но сначала по настоянию родителей я выбрала другое направление: Университет мировых языков. Однако судьба всё-таки привела меня в авиацию, и я отработала в данной сфере 15 лет. Эти годы дали мне не только профессиональный опыт, но и любовь к путешествиям и кулинарии. В разных странах я открывала для себя уникальные блюда, которые в дальнейшем повлияли на мои вкусы и профессиональное развитие.

## O'z yo'lini topish

– Faoliyatingiz qanday boshlangan?

Bolaligimdan beri osmon haqida orzu qilib kelganman. Otamning ish faoliyati aviatsiya bilan bog'liq bo'lgani uchun samolyotlar hayotimning bir qismiga aylangan edi. Lekin, ota-onamning qistovi bilan avvaliga boshqa yo'nalishni – Jahon tillari universitetini tanladim. Shunga qaramay, taqdir meni aviatsiyaga olib keldi va men bu sohada 15 yil ishladim. Bu yillar menga nafaqat kasbiy tajribani berdi, balki sayohatga va pazandachilikka muhabbatni ham uyg'otdi. Turli mamlakatlarda men o'zim uchun betakror taomlarni kashf etdim, ular keyinchalik mening didimga va kasbiy rivojlanishimga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

**– Как пришла идея сменить профессию?**

Решение пришло неожиданно – благодаря встрече с моим будущим супругом. Мы познакомились в самолёте, и в ходе нашей первой беседы он спросил: «Что вы любите больше всего?» Я ответила: «Делать десерты – это для меня способ расслабиться». И на вопрос о том, что лучше всего удается, я ответила: «Брауни, который сводит с ума шоколадным ароматом и влажной текстурой». И тогда он сказал: «А я умею продавать брауни. Давайте откроем кафе!». Этот момент стал отправной точкой моего нового пути. Я начала изучать кулинарию, посещать мастер-классы и создала свой первый проект – кондитерскую La T'Arte в Ташкенте. Со временем, поскольку мой супруг придерживался здорового питания, родилась идея создания полезных десертов без сахара.

Так появился проект Healthy Cakes, который мы «перевезли» из Ташкента в Тбилиси, где, несмотря на консервативность местного рынка, нам удалось завоевать доверие клиентов. Мы начали сотрудничать с ведущими фитнес-клубами и ресторанами, а наши десерты сегодня представлены в десяти филиалах премиальной сети Brunch by Gastronome по всему городу. Наши покупатели – это люди, ведущие здоровый образ жизни, а также те, кто следует определенному протоколу питания. Например, часто обращаются родители детей с аллергией: им нельзя лактозу, сахар или глютен, но ребёнку хочется торт на день рождения. Когда мы готовим такой десерт, то дарим им маленький кусочек счастья, ведь на этом торте можно не просто задуть свечи, но и скушать его без неприятных последствий для организма.

## Опыт и философия бизнеса

**– Какое влияние оказал на вас опыт работы в авиации?**

Авиация научила меня дисциплине и системному подходу. Например, я внедрила чек-листы, что помогает поддерживать качество. Также работа в авиации развила навыки коммуникации, стрессоустойчивости и быстрой адаптации к изменениям, что незаменимо в бизнесе.

**– Как возникло Iconic Cafe and Boutique?**

В Iconic Cafe and Boutique меня пригласили в качестве эксперта для разработки премиальной линейки десертов. На этапе переговоров стало понятно, что мое видение кондитерских задач полностью совпадает с видением владельцев бизнеса. Они доверили мне создание десертов для Iconic Cafe and Boutique, и я была очень рада сотрудничать с людьми, имеющими прогрессивные взгляды. Работая в премиальном сегменте, важно использовать качественные продукты и создавать не просто десерты, а целые истории, ведь десерт – это нечто большее, чем еда, он дарит эмоции и является главным аккордом, завершающим трапезу.

– Kasbni o'zgartirish g'oyasi qanday paydo bo'ldi?

Qaror kutilmaganda – bo'lajak turmush o'rtog'im bilan uchrashuv paytida yuzaga keldi. Biz samolyotda tanishgan edik va birinchi suhbatimizda u mendan: "Siz hammadan ko'proq nimani yaxshi ko'rasiz?" deb so'radi. Men: "Shirinliklar tayyorlash men uchun dam olishning bir usuli" – deya javob berdim. Eng yaxshi tayyorlaydigan shirinlikka oid savolga esa shunday dedim: "Shokolad hidi va nam teksturasi bilan odamni lol qoldiradigan brauni". Shunda u: "Men esa brauni sotishni bilaman. Keling, qahvaxona ochamiz!" dedi. Bu yangi yo'nalishimning boshlang'ich nuqtasi bo'ldi. Men pazandachilikni o'rgana boshladim, mahorat darslariga qatnadim va o'zimning birinchi loyihamni – Toshkentdagi La T'Arte qandolatchilik do'konini yaratdim. Turmush o'rtog'im sog'lom ovqatlanishga rioya qilganligi sababli, vaqt o'tishi bilan shakarsiz, foydali shirinliklarni yaratish g'oyasi yuzaga keldi.

Shunday qilib, Healthy Cakes loyihasi dastlab Toshkentda paydo bo'ldi, biz uni o'zimiz bilan Tbilisiga "olib keldik". U yerda mahalliy bozorning konservativligiga qaramay, mijozlarning ishonchini qozonishga muvaffaq bo'ldik. Biz yetakchi fitnes klublari va restoranlar bilan hamkorlik qilishni boshladik. Bugungi kunda, bizning shirinliklarimiz butun shahar bo'ylab Brunch by Gastronome premium tarmog'ining o'nta filialida taqdim etilmoqda. Bizning mijozlarimiz – sog'lom turmush tarziga amal qiladigan, shuningdek, ma'lum bir ovqatlanish tartibiga rioya etadigan odamlar. Masalan, allergiyasi bor bolalarning ota-onalari tez-tez murojaat qilishadi: ularga laktoza, shakar yoki glyuten mumkin emas, lekin bola tug'ilgan kunida tort bo'lishini xohlaydi. Biz bunday shirinlikni tayyorlayotganimizda, ularga baxtning kichik bir bo'lagini hadya etamiz, chunki bu tortning nafaqat shamlarini puflash, balki uni organizm uchun noxush oqibatlarsiz iste'mol qilish ham mumkin.



## Ассортимент и концепция

**– Что особенно нравится вашим гостям?**

В первую очередь им нравится удивляться. Например, одним из наших самых популярных десертов стал «Наполеон ICONIC», который неизменно завораживает своей подачей и тонким балансом вкуса и текстуры. Или то, что мы предлагаем гостю попробовать безалкогольный коктейль, созданный специально под определенный десерт известным московским барменом-миксологом Алексеем Беликом.

**– Каков ваш подход к созданию десертов?**

Мы решили пересмотреть классические рецепты, чтобы придать им современное звучание. Например, в десерте Павлова важно было добиться хрупкой корочки и воздушности суфле одновременно и при этом сделать так, чтобы сахар не перетянул на себя весь вкус, а отлично балансировал с кислинкой манго-маракуйя. Ведь главное в десерте не сладость, а вкус, который можно либо подчеркнуть, либо полностью нивелировать.

**– В чём секрет рождения шедевров?**

В постоянном совершенствовании своих навыков. Полтора года назад я прошла обучение в испанской школе у чемпиона мира по кондитерскому искусству Jordy Bordas. Его подход основан на уменьшении количества сахара и создании более здоровых и полезных десертов. Например, если заменить тростниковый сахар на более полезную альтернативу – кокосовый сахар, можно подарить десерту лёгкие карамельные нотки, а также снизить гликемический индекс и уменьшить калорийность готового десерта. Благодаря этому обучению я научилась понимать, как без потери качества заменить один ингредиент на другой, более полезный, и создавать новые текстуры, будь то заварной крем, воздушный бисквит или нежный мусс.

Плов или чакапули?

*– Плов*

Хачапури или самса?

*– Хачапури*

Тан или тархун?

*– Тархун*

Шашлык или мцвади?

*– Шашлык*

Манты или хинкали?

*– Оба варианта, но если манты будут с картошкой или тыквой, то эта история ещё интереснее*



## Assortiment va konsepsiya

– Mehmonlaringizga ayniqsa nima yoqadi?

Avvalambor, mehmonlarimiz hayratlanishni xush koʻrishadi. Misol uchun, bizning eng mashhur shirinliklarimizdan biri "Napoleon ICONIC" boʻlib, u oʻzining taqdim qilinishi, taʼmi va teksturasining nozik muvozanati bilan hayratga soladi. Yoki, biz mehmonga moskvalik mashhur barmen-miksolog Aleksey Belik tomonidan maʼlum bir shirinlik uchun maxsus yaratilgan alkogolsiz kokteylni ham tatib koʻrishni taklif qilamiz.

– Shirinliklar yaratishga boʻlgan yondashuvingiz qanday?

Biz ularga zamonaviy ohang berish uchun klassik retseptlarni qayta koʻrib chiqishga qaror qildik. Masalan, Pavlov shirinligida bir vaqtning oʻzida nafis qobiq va yengil sufleni taʼminlanishiga erishish muhim edi, shunda shakar butun taʼmni oʻziga tortmaydi, balki mango-marakuyaning nordonligi bilan juda yaxshi muvozanatga keladi. Axir, shirinlikdagi asosiy narsa uning shirasi emas, balki taʼm, uni yo taʼkidlash yoki butunlay tekislash mumkin.

– Shedevrlar paydo boʻlishining siri nimada?

Oʻz koʻnikmalarini doimiy ravishda takomillashtirishda. Bundan bir yarim yil muqaddam men ispan maktabida qandolatchilik sanʼati boʻyicha jahon chempioni Jordy Bordas qoʻlida tahsil olganman. Uning yondashuvi shakar miqdorini kamaytirish va yanada sogʻlom hamda foydali shirinliklar yaratishga asoslangan. Misol uchun, qamish shakarini foydaliroq muqobil - kokos shakari bilan almashtirilsa, shirinlikka yengil karamel notasini berish, shuningdek, glikemik indeksni pasaytirish va tayyor shirinlikning kaloriyasini kamaytirish mumkin.

Ushbu taʼlim tufayli men qanday qilib sifatni yoʻqotmasdan bir tarkibiy qismni boshqasiga, foydalirogʻi bilan almashtirishni va yangi teksturalarni yaratishni tushundim, xoh u qaynatilgan krem, biskvit yoki mayin muss boʻlsin.

## Tajriba va biznes falsafasi

– Aviatsiya tajribasi sizga qanday taʼsir koʻrsatdi?

Aviatsiya meni intizom va tizimli yondashuvga oʻrgatdi. Masalan, men oʻz ishimda sifatni saqlashga yordam beradigan chek-listlarni joriy etdim. Shuningdek, aviatsiyada ishlash muloqot qilish, stressga chidamlilik va oʻzgarishlarga tez moslashish koʻnikmalarini rivojlantirdi, bu biznesda juda muhimdir.

– Iconic Cafe and Boutique qanday paydo boʻlgan?

Iconic Cafe and Boutique meni turli xil ajoyib shirinliklarni ishlab chiqish uchun ekspert sifatida taklif qildi. Muzokaralar bosqichida mening qandolatchilik muammolariga boʻlgan qarashim biznes egalarining qarashlariga toʻliq mos kelishi maʼlum boʻldi. Ular menga Iconic Cafe and Boutique uchun shirinliklar yaratishni ishonib topshirishdi va men ilgʻor qarashlarga ega odamlar bilan hamkorlik qilishdan juda xursand boʻldim. Premium segmentida ishlashda sifatli mahsulotlardan foydalanish va nafaqat shirinliklar, balki butun boshli asarlar yaratish muhimdir. Axir, shirinliklar – bu ovqatdan koʻra muhimroq narsa, u his-tuygʻularni tuhfa etadi va baʼzida ovqatlanishni yakunlovchi asosiy akkord hisoblanadi.



## Вызовы и планы на будущее

**– Какие препятствия вы преодолели и каковы дальнейшие шаги?**

Запуск кондитерской Healthy Cakes в Тбилиси стал важным этапом. Это был не только опыт создания десертов, но и управления бизнесом. В будущем хочу уделять больше времени обучению и развитию здоровой кондитерской культуры. Мы также планируем запустить Healthy Cakes в Ташкенте, чтобы продвигать вкусные и полезные десерты в Узбекистане.

**– Остались ли мечты, которые вы ещё не осуществили?**

Их довольно много. Из пока что несбывшихся, но вполне реальных – обучение профессии сомелье. Меня очень привлекает удивительный мир вина: три года в Грузии подарили мне уникальный опыт общения с виноделами, и, возможно, это станет моим следующим шагом.



Palovmi yoki chakapuli?

*– Palov*

Xachapuri yoki somsa?

*– Xachapuri*

Tanmi yoki tarxun?

*– Tarxun*

Shashlikmi yoki Msvadi?

*– Shashlik*

Mantimi yoki xinkalimi?

*Ikkala variant ham, lekin agar manti kartoshka yoki qovoq bilan boʻlsa, yanada yaxshiroq.*

## Kelajakdagi muammolar va rejalar

– Siz qanday qiyinchiliklarni yengib oʻtdingiz va keyingi qadamlaringiz qanday?

Tbilisida Healthy Cakes qandolat doʻkonining ishga tushirilishi muhim bosqich boʻldi. Bu nafaqat shirinliklarni yaratish tajribasi, balki biznesni boshqarish tajribasi edi. Kelgusida sogʻlom qandolatchilik madaniyatini oʻqitish va rivojlantirishga koʻproq vaqt ajratmoqchiman. Biz, shuningdek, Oʻzbekistonda mazali va foydali shirinliklarni targʻib qilish uchun Toshkentda Healthy Cakes'ni ishga tushirishni reja qilmoqdamiz.

– Hali amalga oshmagan orzularingiz bormi?

Ular juda koʻp. Hozircha amalga oshmagan, ammo juda real boʻlganlaridan biri – bu somele kasbini oʻrgatish. Meni sharobning ajoyib dunyosi juda qiziqtiradi: Gruziyada uch yil davomida sharobchilar bilan muloqot qilish boʻyicha noyob tajribani qoʻlga kiritdim va bu mening keyingi qadamim boʻlishi mumkin.





# Как авиация повлияла на мир моды и что мы знаем о форме экипажа

## Aviatsiya moda olamiga qanday ta'sir ko'rsatdi va biz ekipaj formasi haqida nimalarni bilamiz



*Авиационная мода – это отражение культурных и исторических изменений и вместе с тем символ бренда и профессионализма. С момента появления первых бортпроводников в 1930-х годах форма экипажа претерпела значительные изменения, переходя от практичных, но строгих нарядов к функциональным костюмам. Сегодня это не только элемент имиджа авиакомпании, но и важный аспект безопасности и комфорта. Мы рассмотрим процесс зарождения авиационной моды, ее влияние на мир и узнаем, почему форма экипажа не так проста, как может показаться на первый взгляд.*

*Aviatsiya modasi – madaniy va tarixiy o'zgarishlarning ifodasi, shu bilan birga brend va kasbiy mahorat ramzi sanaladi. 1930-yillarda birinchi bort kuzatuvchilari paydo bo'lganidan beri ekipaj formasi sezilarli o'zgarishlarga duch keldi, ishbop, ammo qat'iy kiyimlardan funksional liboslarga o'tdi. Bugungi kunda ekipaj formasi nafaqat aviakompaniya qiyofasining bir qismi, balki xavfsizlik va qulaylikning muhim jihati hamdir. Biz aviatsiya modasining qanday paydo bo'lganligini, dunyoga qanday ta'sir o'tkazganligini va nima uchun ekipaj formasi bir qarashda ko'ringanidek oddiy emasligini ko'rib chiqamiz.*







## НЕМНОГО ИСТОРИИ

Стиль «авиатор» зародился в США в 20–40-х годах прошлого века в связи с невероятным интересом к авиации. Всем хотелось примерить на себя образ героев войны и покорителей неба. Глобальный интерес общества к форме летчиков породил массовое производство, которое привлекало не только внешним видом, но и практичностью.

Шли годы, и гардеробы молодежи пополнялись элементами формы лётчиков все больше и больше. Это был уже способ выразить своё свободолюбие и индивидуальность. Так в 50-е годы мода на стиль «авиатор» окончательно укрепила свои позиции среди простых людей.

В следующее десятилетие стиль развивался и эволюционировал. Новые технологии и материалы способствовали тому, чтобы он стал еще более удобным и функциональным. Куртки начали производить из водоотталкивающих материалов, что позволило им противостоять не только влаге, но и ветрам.

По-настоящему модной авиационная одежда стала в 80-е годы. Дизайнеры привнесли свое видение в классику и разбавили сдержанную палитру яркими цветами и нестандартным кроем. Все неформальные сообщества считали своим долгом приобрести ботинки, куртки, очки, которые были на пике моды.

Сегодня авиамотив уже стал классикой. Предлагаем окунуться в историю элементов одежды, с которыми мы сталкиваемся ежедневно, порой не зная об их происхождении.

## TARIXGA NAZAR

"Aviator" uslubi AQShda oʻtgan asrning 20-40-yillarida aviatsiyaga beqiyos qiziqish tufayli paydo boʻlgan. Hamma oʻzini urush qahramonlari va osmonni zabt etuvchilar qiyofasida koʻrishni xohlardi. Jamiyatning uchuvchilar kiyimiga boʻlgan global qiziqishi uni ommaviy ravishda ishlab chiqarilishiga olib keldi. Bu kiyim nafaqat tashqi koʻrinishi, balki qulayligi bilan ham diqqatni tortgan edi.

Yillar oʻtib, yoshlarning javonlariga uchuvchilar formasining elementlari tobora koʻproq qoʻshila boshladi. Bu endi oʻz erkinligini va oʻziga xoslikni ifodalash usuli boʻlib qolgan edi. Shunday qilib, 50-yillarda "aviator" uslubidagi moda oddiy odamlar orasida oʻz mavqeini batamom mustahkamladi.

Keyingi oʻn yillikda uslub rivojlanib, takomillashdi. Yangi texnologiyalar va materiallar aviatsiya uslubini yanada qulay va funksional boʻlishiga imkon berdi. Kurtkalar suv oʻtkazmaydigan materiallardan ishlab chiqarila boshlandi, bu ularga namlik va shamolga chidamli boʻlish imkonini berdi.

80-yillarda aviatsiya kiyimlari haqiqiy modaga aylandi. Dizaynerlar klassik uslubga oʻz qarashlarini olib kirishdi, vazmin ranglarni yorqin ranglar va nostandart bichimlar bilan boyitishdi. Barcha norasmiy guruhlar moda choʻqqisida boʻlgan poyabzal, kurtka, koʻzoynak sotib olishni oʻzlarining burchi, deb bilishdi.Bugungi kunda aviatsiya uslubi allaqachon klassikaga aylandi. Endi biz har kuni duch keladigan, baʼzan kelib chiqishi haqida bilmaydigan kiyimning har bir elementi tarixiga chuqurroq nazar tashlaymiz.





## РАЗВИТИЕ АВИАМОДЫ

Пилотный стиль имеет множество вариаций и узнаваем по накладным карманам, воротничкам, манжетам, нашивкам и многим другим деталям.

Всё началось с комбинезонов, которые в 20-е годы завоевали сердца модников. Так, летние комбинезоны лётчиков легли в основу авиационного стиля благодаря не только внешнему виду, но и практичности.

Одна из самых популярных деталей гардероба любителей стиля «авиатор» появилась в 30-х годах при неожиданных обстоятельствах. Пилоты жаловались на ослепляющий солнечный свет при полётах, и в 1936 году военный поставщик оптики – компания Bausch & Lomb получила заказ на разработку дизайна новых солнцезащитных очков, которые помогли справиться с проблемой. От предыдущих версий эти модели отличали более тёмные линзы большего размера, которые защищали лётчиков от солнца и избавляли от неприятных ощущений. Так появилась ставшая классикой модель очков, известная как «Ray-Ban Aviators» или просто «авиаторы».

Примерно в это же время в моду вошёл и всеми любимый бомбер. Когда авиация только зарождалась, кабины пилотов были открыты, и погодные условия, температура за бортом становились для них настоящим испытанием. На тот момент для них шили длинные пальто из натуральной кожи, что было не очень удобно. В конце 30-х годов американские военные выпустили куртку с плотно прилегающими к телу поясом и манжетами, что позволяло избегать продувания. Начиная с 50-х годов бомбер стал набирать популярность среди выпускников частных школ, позднее модель куртки полюбилась представителям субкультур, а на данный момент это неотъемлемая часть гардероба многих людей. Разнообразие цветов, фактур и декора позволяет подобрать бомбер на все случаи жизни.





## AVIAMODANING RIVOJLANISHI

Uchuvchi uslubi juda ko'p variantlarga – qoplama cho'ntaklar, yoqalar va manjetlar, nishonlar va boshqa detallarga ega, ularning kelib chiqishini biz uslubning paydo bo'lishidan boshlab kuzatishimiz mumkin.

Hammasi 20-yillarda modachilarning qalbini zabt etgan kombinezonlardan boshlandi. Shunday qilib, uchuvchilarning yozgi kombinezonlari nafaqat tashqi ko'rinishi, balki qulayligi tufayli aviatsiya uslubini joriy etishning asosiga aylandi.

"Aviator" uslubi muxlislari javonining eng mashhur qismlaridan biri 30-yillarda, kutilmagan sharoitlarda paydo bo'ldi. Uchuvchilar parvoz paytida quyosh nurlari tufayli bosh aylanishi, ko'ngil aynishi va noqulaylikdan shikoyat qilishdi. 1936-yilda harbiy optika yetkazib beruvchisi Bausch & Lomb bu muammoni bartaraf etishga yordam beradigan yangi quyoshdan himoyalovchi ko'zoynak dizaynini ishlab chiqish uchun buyurtma oldi. Yangi modellar oldingilariga qaraganda kattaroq o'lchamdagi to'qroq linzalar bilan ajralib turardi, bu esa uchuvchilarga quyoshdan himoyalanishga va noxush his-tuyg'ularni boshdan kechirmaslikka yordam berdi. Shunday qilib, "Ray-Ban Aviators" yoki oddiygina "Aviatorlar", deb nomlanuvchi ko'zoynak modeli paydo bo'ldi va u klassikaga aylandi.

Taxminan shu paytda hammaning sevimli bomberi paydo bo'ldi. Aviatsiyaning ilk davrlarida uchuvchilar kabinalari ochiq bo'lib, ob-havo sharoitlari, bort tashqarisidagi harorat haqiqiy sinov edi. O'sha paytda uchuvchilar uchun tabiiy teridan uzun palto tikishardi, bu unchalik qulay emas edi. 30-yillarning oxirida Amerika harbiylari shamol o'tkazmaydigan, tanaga mahkam yopishib turadigan kamarli va manjetli kurtkalarni ishlab chiqardilar. 50-yillardan boshlab bomber xususiy maktab bitiruvchilari orasida urf bo'ldi, keyinchalik kurtka modelini submadaniyat vakillari kiyishdi va hozirda u ko'plab odamlar uchun kiyim javonining bir qismiga aylandi. Ranglar, fakturalar va nishonlarning xilma-xilligi hayotning har qanday holati uchun kurtka tanlash imkonini beradi.




## О ФОРМЕ ПИЛОТОВ И БОРТПРОВОДНИКОВ

Первые гражданские авиалинии появились в 20-е годы, и изначально профессия бортпроводников была исключительно мужская. Форма стюардов была почти идентична форме пилотов. В 30-е годы женщины разбавили мужской коллектив, и первая бортпроводница – американка Эллен Черч – придумала свой наряд для перелётов сама. Позднее авиакомпании начали размышлять на тему формы девушек-стюардесс, мнения разнились от праздничных вариантов до классически сдержанных, что мы наблюдаем сейчас. Время показало, что важно отражать ценности авиакомпаний и передавать смысл работы бортпроводников, которые в первую очередь отвечают за нашу безопасность.

На сегодняшний день форма экипажа отличается у разных стран и иногда выбивается из стандартов исходя из культурных и традиционных особенностей. Форма авиакомпании Centrum Air представляет собой сдержанный классический костюм глубокого синего цвета. У бортпроводниц она имеет вариации с юбкой-карандаш ниже колена или классическими брюками, которые позволяют образу быть сдержанным, представительным и мобильным одновременно. Оба варианта дополнены элегантным платком, который не отвлекает на себя внимание, а лишь добавляет живости и является далеко не простым аксессуаром.

## UCHUVCHILAR VA BORTKUZATUVCHILAR FORMASI TO‘G‘RISIDA

Birinchi fuqaro aviakompaniyalari 20-yillarda paydo bo‘lgan va dastlab bortkuzatuvchilik kasbi faqat erkaklar uchun edi. Styuardlarning formasi uchuvchilarning formasi bilan deyarli bir xil edi. 30-yillarda ayollar bortkuzatuvchilar jamoasiga qo‘shildilar va birinchi ayol bortkuzatuvchi - amerikalik Ellen Cherch - parvozlar uchun o‘z kiyimini o‘zi o‘ylab topdi. Keyinchalik aviakompaniyalar styuardessa qizlar kiyimi haqida fikr yurita boshladilar va fikrlar bayramona variantlardan tortib, biz hozir ko‘rib turgan klassik va vazmin variantlargacha farq qildi. Vaqt aviakompaniyalarning qadriyatlarini aks ettirish va birinchi navbatda bizning xavfsizligimiz uchun mas’ul bo‘lgan bortkuzatuvchilar ishining mohiyatini yetkazish muhimligini ko‘rsatdi.

Bugungi kunda, bir mamlakatning ekipaj formasi boshqa mamlakatnikidan farq qiladi va ba’zan madaniy, an’anaviy jihatlardan kelib chiqqan holda standartlardan chetga chiqadi. Centrum Air aviakompaniyasining formasi klassik va vazmin, chuqur ko‘k rangdagi firma kostyumini namoyish etadi. Bortkuzatuvchilarning formasi tizzadan pastga tushadigan yubka-qalam yoki klassik shim bilan turli variantlarga ega bo‘lib, ular tashqi ko‘rinishni bir vaqtning o‘zida vazmin, salobatli va harakatchan bo‘lishini ta’minlaydi. Ikkala variant ham e’tiborni tortmaydigan nafis ro‘molcha bilan to‘ldirilgan - bu faqat jonlilik qo‘shadi, u oddiy aksessuar emas.









## HAMMASI HAM OSON EMAS

Bortkuzatuvchi ayollarning bo'yin ro'mollari 30-yillardayoq uchuvchilar kiyimining muhim elementi sifatida o'z o'rnini mustahkamlagan. Bu kiyim qismi bir qarashda shunchaki bezakdek ko'rinsa-da, aslida juda oz kishi biladigan muhim vazifani bajaradi.

Tutun paydo bo'lgan holatda, u og'iz va burunni berkitadigan qutqaruv niqobiga aylanishi mumkin. Falokat yuz bergan taqdirda esa, jarohatlanganlarning yaralarini bog'lash uchun ishlatilishi mumkin. Shunday qilib, bu aksessuar nafaqat kompaniya imijining bir qismi, balki insonlar hayotini saqlab qoluvchi vosita hamdir.

Centrum Air aviakompaniyasining bortkuzatuvchisi Amaliya Dushaskaya bizga uchuvchilar kiyimining boshqa xususiyatlari haqida ham so'zlab berdi:

> *Bir qarashda ko'zga tashlanmaydigan muhim jihat - uchuvchilar kiyimi nima uchun kerak va nima sababdan biz uni kiyamiz. Biz, albatta, yo'lovchilarga o'xshab kiyinishimiz mumkin edi, lekin bizning kiyimimiz - alohida belgi vazifasini o'taydi. Favqulodda vaziyatlarda biz yo'lovchilardan ajralib turamiz va butun e'tibor bizga qaratiladi, shunda odamlar bizga murojaat qilishlari, biz esa o'z navbatida yordam ko'rsatishimiz mumkin.*

Kiyim vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Ilgari baland poshnali tufli va yubkalar majburiy bo'lgan bo'lsa, endi qoidalar soddalashtirilgan va ba'zi kompaniyalar qulay, bir xil va firma belgisi tushirilgan krossovkalarda uchishga ruxsat berishmoqda. Ba'zi mamlakatlarga biz yubka emas, faqat shimda uchamiz. Mavsumga qarab issiq sharflar, paltolar va qo'lqoplar ham kiritiladi.

Ma'lum bo'lishicha, har birimizning kiyim javonimizda aviatsiya formasidan ilhomlangan biror narsa bor ekan, va bu bizni aviatsiyaga yanada yaqinlashtiradi.

## НЕ ВСЕ ТАК ПРОСТО

Платок на шее бортпроводниц закрепил свою позицию как важный элемент формы еще в 30-е годы. Эта деталь гардероба только на первый взгляд кажется лишь украшением, а на деле имеет важный функционал, о котором знают немногие.

Так, в случае задымления он может стать спасательной маской, которая прикроет рот и нос, а при крушении его могут использовать для перевязывания раны пострадавшим. Таким образом, аксессуар является не только частью корпоративного имиджа, но и, при необходимости, средством спасения жизней людей.

Бортпроводница авиакомпании Centrum Air Амалия Душацкая рассказала нам и о других особенностях формы:

> *Мы бы, конечно, могли быть одеты, как пассажиры, но наша форма – сигнальный предмет. В случае нестандартной ситуации весь фокус внимания должен быть направлен на нас, чтобы к нам могли обратиться, а мы, в свою очередь, – оказать помощь.*

Время идёт, и если раньше были обязательны каблуки и юбки, то сейчас правила упрощаются и некоторые компании позволяют летать в кроссовках – удобных, одинаковых и фирменных. В некоторые страны мы летаем только в брюках. Посезонно внедряются тёплые шарфы, пальто, перчатки.

Как оказалось, у каждого из нас есть в гардеробе элемент, вдохновленный авиационной формой, и теперь вы стали ещё ближе к авиации.








Белоснежные пляжи Салалы или чайные плантации Шри-Ланки, богатый подводный мир Шарм-эль-Шейха или небоскребы Дубая – выберите отдых по душе и отметьте Новый год в путешествии.

Salalaning qordek oppoq plyajlari yoki Shri-Lankaning choy plantatsiyalari, Sharm-al-Shayxning boy suv osti dunyosi yoki Dubayning osmonoʻpar binolari – oʻzingizga yoqqan taʼtilni tanlang va Yangi yilni sayohatda nishonlang.

## Это ваш тёплый Новый год.

Bu sizning yoqimli Yangi yilingiz boʻladi.




















# NEO INSURANCE

## Успешная компания на рынке страхования

## Sug‘urta bozoridagi muvaffaqiyatli kompaniya

Страховая компания NEO Insurance, работающая на рынке всего год, уже достигла значительных успехов. Компания гордится высоким рейтингом платежеспособности (uz) A++, что свидетельствует о финансовой устойчивости и готовности выполнять обязательства перед клиентами.

Bozorda bir yildan beri faoliyat yuritayotgan NEO Insurance sug‘urta kompaniyasi allaqachon sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi. Kompaniya yuqori to‘lov qobiliyati reytingi (uz) A++ bilan faxrlanadi, bu uning moliyaviy barqarorligi va mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajarishga tayyorligidan dalolat beradi.

### Миссия NEO Insurance

Наша главная задача – комфорт клиентов и выгодные условия страхования. Мы стремимся обеспечивать финансовую защиту населения и предлагать достойные условия для партнеров и сотрудников. В нашей работе три ключевых элемента: забота о клиентах, взаимовыгодное сотрудничество и уважение к инициативам сотрудников.

### Цифровизация и профессиональная команда

Несмотря на молодость, наш опыт варьируется от 3 до 20 лет. Мы – цифровая компания, активно внедряющая инновации. За год мы автоматизировали процессы и создали сайт для оформления полисов онлайн, а также мобильное приложение для управления страховыми случаями.

### Выплаты и социальная ответственность

На сегодняшний день мы выплачиваем более 8 миллиардов сумов, обеспечив страховое возмещение более 800 клиентам. Наши выплаты варьируются от компенсации ущерба за автомобиль до оплаты и проведения сложных операций для сохранения жизни и здоровья застрахованных.

### Расширение присутствия и поддержка клиентов

За первый год мы открыли 52 филиала по всей стране и создали круглосуточный Call-центр, предоставляющий консультации на трех языках.

### Надежное партнерство

NEO Insurance выстроила прочные отношения с ведущими компаниями в различных секторах экономики, включая туризм, промышленность, строительство, образование и здравоохранение. Мы активно сотрудничаем с предприятиями и организациями, чтобы предлагать нашим клиентам лучшие условия страхования.

### Добровольное медицинское страхование

Мы активно развиваем программу ДМС, сотрудничая с более чем 500 клиниками. Наша цель – обеспечить надёжную защиту для клиентов и создать комфортный доступ к медицинским услугам.

### Инновации и перестрахование

NEO Insurance внедряет новые программы, включая страхование домашних питомцев и от потери работы. Мы увеличили уставной капитал и планируем расширение как внутри страны, так и за её пределами.

### Взгляд в будущее

NEO Insurance – амбициозная компания, стремящаяся к высшим стандартам в страховании. Мы продолжаем укреплять доверие клиентов и партнеров, предоставляя надежные решения.

### NEO Insurance missiyasi

Bizning asosiy vazifamiz – mijozlar uchun qulaylik va sug‘urtalashning foydali shartlari. Biz aholini moliyaviy himoya qilishni ta’minlashga, hamkorlar va xodimlar uchun munosib sharoitlarni taklif qilishga intilamiz. Bizning ishimizda uchta asosiy element mavjud: mijozlarga g‘amxo‘rlik, o‘zaro manfaatli hamkorlik va xodimlarning tashabbuslarini hurmat qilish.

### Raqamlashtirish va professional jamoa

Yosh bo‘lishimizga qaramay, bizning tajribamiz 3 yildan 20 yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Biz – innovatsiyalarni faol ravishda joriy etuvchi raqamli kompaniyamiz. Bir yil davomida biz jarayonlarni avtomatlashtirdik va onlayn polislarni rasmiylashtirish uchun sayt, shuningdek, sug‘urta hodisalarini boshqarish uchun mobil ilova yaratdik.

### To‘lovlar va ijtimoiy javobgarlik

Bugungi kunda biz 800 dan ortiq mijozlarga sug‘urta tovonini ta’minlab, 8 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ to‘layapmiz. Bizning to‘lovlarimiz avtomobillarga yetkazilgan zararni qoplashdan tortib, sug‘urtalangan shaxslarning sog‘lig‘ini va hayotini saqlash uchun murakkab operatsiyalarni amalga oshirishgacha bo‘lgan to‘lovlarni o‘z ichiga oladi.

### Mijozlar ishtirokini kengaytirish va ularni qo‘llab-quvvatlash

Birinchi yili biz butun mamlakat bo‘ylab 52 ta filial ochdik va uch tilda maslahat beradigan 24 soatlik koll-markazni yaratdik.

### Ishonchli hamkorlik

NEO Insurance iqtisodiyotning turli sohalaridagi, jumladan, turizm, sanoat, qurilish, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi yetakchi kompaniyalar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatdi. Biz mijozlarimizga eng yaxshi sug‘urta shartlarini taklif qilish uchun korxona va tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilmoqdamiz.

### Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta

Biz 500 dan ortiq klinikalar bilan hamkorlik qilib, DMS dasturini faol rivojlantirmoqdamiz. Bizning maqsadimiz – mijozlarga ishonchli himoyani ta’minlash va tibbiy xizmatlardan qulay foydalanish imkoniyatini yaratish.

### Innovatsiyalar va qayta sug‘urtalash

NEO Insurance yangi dasturlarni, jumladan, uy hayvonlarini sug‘urtalashni, ish joyini yo‘qotishdan sug‘urtalashni joriy etmoqda. Biz ustav kapitalini oshirdik va mamlakat ichida ham, undan tashqarida ham kompaniyamizni kengaytirishni rejalashtirmoqdamiz.

### Kelajakka nazar

NEO Insurance – sug‘urta sohasida yuqori standartlarga intiluvchi kompaniya. Biz ishonchli yechimlarni taqdim etish orqali mijozlar va hamkorlar ishonchini mustahkamlashda davom etamiz.

Телефон центра поддержки клиентов:

99871 202 55 66

neoinsurance.uz
neoinsurance.uz
neoinsurance.uz



# Авиаспоттинг: как страсть к самолётам становится увлекательным хобби

## Aviaspotting: samolyotlarga boʻlgan qiziqish qanday qilib maroqli xobbiga aylanadi




*Согласитесь, самолёты – это не просто транспорт, а величественные машины, которые завораживают своей мощью и элегантностью. Наблюдать за ними – целое искусство, которым увлечены многие люди по всему миру. Именно эта страсть к авиации рождает увлечение под названием авиаспоттинг – хобби для тех, кто стремится запечатлеть уникальную красоту самолётов в полёте. Два года назад это популярное занятие было официально разрешено в Узбекистане, и мы рассказываем о тех, кто превратил свою любовь к «стальным птицам» в настоящее приключение.*

*Tan olish kerak, samolyotlar shunchaki transport vositasi emas, balki oʻz qudrati va koʻrkamligi bilan jalb etuvchi ulugʻvor mashinalar hisoblanadi. Ularni kuzatish butun dunyo boʻylab koʻplab odamlarni oʻziga birlashtirgan alohida sanʼatga aylandi. Aviatsiyaga boʻlgan aynan shu ishtiyoq parvozdagi samolyotlarning betakror goʻzalligini suratga olishga intilganlar uchun aviaspotting, deb nomlanuvchi xobbini keltirib chiqardi. Ikki yil oldin Oʻzbekistonda ham bu ommalashgan mashgʻulotga rasman ruxsat berildi, hozir biz "poʻlat qushlar"ga boʻlgan muhabbatini haqiqiy sarguzashtga aylantirganlar haqida hikoya qilamiz.*





**Дилмурод Ташмухамедов**
*Специалист по авиа- и мультимодальным перевозкам, фотограф, авиаспоттер*

**Dilmurod Toshmuhamedov**
*Aviatsiya va multimodal tashuvlar boʻyicha mutaxassis, fotosuratchi, aviaspotter*

Я увлекаюсь авиаспоттингом уже второй год, но первые попытки были еще в 2013 году. Узнал о том, что у нас есть споттерское движение, благодаря соцсетям – в инстаграме наткнутся на профили споттеров из Узбекистана. А главная причина моего выбора – любовь к авиации. Думал, что это свойственно только мужской половине, но выяснилось, что женщины тоже небезразличны к самолётам. Удивился, что есть очень талантливые молодые девушки с аналогичным хобби.

С точки зрения авиаспоттера меня привлекает то, что у вашей авиакомпании все самолёты всегда ухожены. Они прекрасны. Особенно привлекает разнообразие ливрей – дизайн фюзеляжа внешней части авиалайнера. Когда судно прилетает в специальной ливрее в светлое время суток, да еще при ясной погоде, – это праздник для споттеров.

Aviaspotting bilan ikki yildan beri shugʻullanaman, ammo dastlabki urinishlarim 2013-yildayoq boʻlgan edi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali bizda ham spotterlar harakati borligidan xabar topdim. Instagramda Oʻzbekistonlik spotterlarning profillariga duch keldim. Tanlovimning asosiy sababi esa — aviatsiyaga boʻlgan muhabbatim. Avvaliga bu faqat erkaklarga xos qiziqish deb oʻylagandim, lekin ayollar ham samolyotlarga befarq emasliklarini angladim. Xuddi shunday xobbiga ega boʻlgan juda isteʼdodli yosh qizlar borligini koʻrib hayron qoldim.

Aviaspotting nuqtai nazaridan, meni sizning aviakompaniyadagi barcha samolyotlarning doimo tozaligi jalb qiladi. Ular juda ajoyib. Ayniqsa, livreyalar — samolyot tashqi qismining fyuzelyaj dizayni xilma-xilligi eʼtiborni tortadi. Kunning yorugʻ vaqtida, buning ustiga havo ochiq boʻlganda maxsus livreyada uchib kelgan havo kemasi — spotterlar uchun bayram.

Мне повезло, что моя работа связана с воздушными грузоперевозками и часто приходится ездить в аэропорт. Камера всегда со мной. Думаю, что авиаспоттинг можно отнести к некоему виду спорта. Это напоминает охоту и нужно постоянно носить с собой «оружие» – полуторакилограммовый фотоаппарат.

Из трудностей я бы отметил то, что у нас нет специально обустроенных мест для авиаспоттинга. Здорово, что аэропорт находится в черте города и можно фотографировать самолёты с различных ракурсов при посадке и взлёте.

Начинающим я бы порекомендовал изучить основы фотографии, особенности работы с естественным светом и базовые навыки обращения с фоторедакторами. Не стоит сразу покупать дорогой фотоаппарат – не ведитесь на уловки маркетологов.

Сам процесс порой непредсказуем: иногда хватает часа для удачного кадра, а порой для того же результата необходимо потратить весь день. Знаю коллег по цеху, которые «ловят» самолёты с полуночи и до рассвета. Многое зависит от расписания прилётов и вылетов.

Omadim bor ekan, ishim havoda yuk tashish bilan bog'liq bo'lganligi uchun tez-tez aeroportga borishimga to'g'ri keladi. Kamera ham doim yonimda. Aviaspottingni sportning bir turiga kiritish mumkin, deb o'ylayman. Bu ovni eslatadi va doimo o'zingiz bilan "qurol" – bir yarim kilogramm og'irlikdagi fotoapparatni olib yurishingiz kerak.

Qiyinchiliklar haqida gapiradigan bo'lsak, bizda aviaspotting uchun maxsus jihozlangan joylar yo'q. Yaxshi tomoni shundaki, aeroport shahar ichida joylashgani tufayli uchish-qo'nish vaqtida samolyotlarni turli rakurslardan suratga olish mumkin.

Yangi boshlayotganlarga fotografiya asoslarini, tabiiy yorug'lik bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini va fotoredaktorlardan foydalanishning dastlabki ko'nikmalarini o'rganishni tavsiya qilaman. Darhol qimmatbaho fotoapparat sotib olishga shoshilmang – marketologlarning hiyla-nayranglariga uchmang.

Jarayonning o'zini ko'pincha oldindan aytib bo'lmaydi, ba'zan yaxshi kadr olish uchun bir soat kifoya qilsa, ba'zida xuddi shu natijaga erishish uchun butun kunni sarflashga to'g'ri keladi. Yarim tundan tong otguncha samolyotlarni "tutadigan" hamkasblarimni bilaman. Ko'p narsa uchib kelish va uchib ketish jadvaliga bog'liq.






Особенно приятны моменты, когда нас приглашают на официальные весенние и осенние споттинги, которые устраивает международный аэропорт. Замечательная атмосфера мероприятий позволяет встретиться со старыми друзьями и обрести новые знакомства, поделиться радостью и опытом с единомышленниками.

Я рад, что смог принять участие в нескольких мероприятиях, которые проводила компания Centrum Air. Было интересно снимать процессы посадки новых самолётов, технического обслуживания и вести съемку погрузки и выгрузки грузовых авиалайнеров. Незабываем и опыт общения с пилотами и бортпроводниками, но больше всего запомнился процесс съёмки в кабине пилота. Тем, кто хотел бы стать частью нашей команды, скажу, что стоит отбросить сомнения, попробовать поснимать хотя бы на телефон. Не бойтесь начать, делитесь своими работами и наслаждайтесь процессом.

Ayniqsa, bizni xalqaro aeroport tomonidan o'tkaziladigan rasmiy bahorgi va kuzgi spottinglarga taklif qilishlari juda yoqadi. Tadbirlardagi ajoyib muhit eski do'stlar bilan uchrashish va yangi tanishlar orttirish, shuningdek, hamfikrlar bilan quvonch va tajribalarni baham ko'rish imkonini beradi.

Men, Centrum Air kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan bir nechta tadbirlarda qatnasha olganimdan mamnunman. Yangi samolyotlarning qo'nishi, texnik xizmat ko'rsatish hamda yuk samolyotlariga yuk ortish va tushirish jarayonlarini suratga olish juda qiziqarli kechdi. Uchuvchi va bortkuzatuvchilar bilan suhbatlashish ham unutilmas tajriba bo'ldi. Lekin, uchuvchi kabinasidagi suratga olish jarayoni hammadan ko'proq esda qoldi. Bizning jamoamiz safiga qo'shilishni istaganlarga, har qanday ikkilanishlarni bir chetga surib, hech bo'lmaganda telefon orqali suratga olishni taklif qilaman. Boshlashdan aslo cho'chimang, suratlarni boshqalar bilan baham ko'ring va jarayondan zavq oling.



**София Николаева**
*Ученица школы*

**Sofiya Nikolayeva**
*Maktab o'quvchisi*

Мой путь в авиаспоттинге длится уже около двух лет. Пришла к этому достаточно спонтанно, когда основные хобби были исключены по причине здоровья либо отсутствия времени. Узнать об авиаспоттинге мне помогли социальные сети, произошло это задолго до решения им заниматься. Как человека, который увлекается авиацией с самого детства, меня всегда интересовали видеоролики и красивые фотографии самолётов. Тогда я подумала: почему бы не заняться этим?

Познакомилась с ребятами – будущими "коллегами по цеху" – в процессе поиска информации об авиаспоттинге в Узбекистане. Больше всего в этом деле меня привлекает то, что можно очень широко размахнуться в творческом плане, как и любом направлении фотографии. Но главным привлекающим объектом, конечно же, являются самолёты.

Aviaspottingdagi faoliyatim ikki yildan beri davom etmoqda. Asosiy qiziqishlarimdan sog'ligim yoki vaqtim yetishmasligi sababli cheklanib qolganimdan so'ng, bu sohaga tasodifan kirib keldim. Aviaspotting haqida ijtimoiy tarmoqlar orqali bilib oldim. Bu narsa u bilan shug'ullanishga qaror qilishimdan ancha avval sodir bo'lgan edi. Bolalikdan aviatsiyaga qiziqadigan inson sifatida doimo samolyotlar aks etgan video va chiroyli suratlarini tomosha qilishni yoqtirardim. Shunda o'ylab qoldim: nima uchun aviaspotting bilan shug'ullanmas ekanman?

O'zbekistondagi aviaspotting haqida ma'lumot qidirish jarayonida bo'lajak hamkasblarim bilan tanishdim. Aviaspottingda meni ko'proq qiziqtiradigan narsa shundaki, fotografiyaning har qanday yo'nalishida bo'lgani kabi bu yerda ham ijodiy jihatdan juda keng miqyosda harakat qilish mumkin. Ammo, asosiy jalb qiluvchi obyekt, albatta, samolyotlar hisoblanadi.









В этом хобби я могу показать себя с разных сторон, оно помогло мне раскрыться и начать легко общаться с другими людьми, давать советы и просто заниматься тем, что нравится.

Важный момент – правильно подготовить документы, чтобы получить допуск и заниматься фотосъёмкой самолётов официально, но на этом этапе трудности не возникают. Все, что для этого необходимо, – это ваш паспорт. В случае нарушений могут вызвать охрану, но могут для начала предупредить и попросить удалиться.

Новичкам могу посоветовать лишь одно: делайте фотографии, как вам нравится, изучайте точки и направления солнца, всегда сохраняйте дружелюбную атмосферу в процессе съёмки и общении с ребятами. Мы всегда готовы помочь, дать советы каждому и научить пользоваться фототехникой.

Для начала лучше взять полупрофессиональный фотоаппарат, но подобрать хороший объектив с хорошим фокусным расстоянием. В большинстве случаев от него будет зависеть качество снимков и удобство фотографирования. Для того чтобы быть ближе к авиации, необязательно работать на борту. Как мы выяснили, иногда можно реализовать мечту, оставаясь на земле, и посмотреть на мир другими глазами.

Bu xobbi orqali men oʻzimni har tomonlama koʻrsata olaman, u koʻzga koʻrinishimga, boshqa odamlar bilan oson muloqot qilishimga, maslahatlar berishimga hamda shunchaki, oʻzimga yoqqan ish bilan shugʻullanishimga yordam berdi.

Yana bir muhim jihat — ruxsat olish va samolyotlarni rasmga olish bilan rasmiy shugʻullanish uchun hujjatlarni toʻgʻri tayyorlash kerak. Lekin, bu bosqichda qiyinchiliklar yuzaga kelmaydi. Buning uchun faqat pasportingiz kerak boʻladi. Qoidabuzarlik yuz berganda qoʻriqchilarni chaqirishlari mumkin, ammo dastlab ogohlantirish berib, ketishingizni soʻrashlari ham mumkin.

Yangilarga faqat bitta maslahatim bor: oʻzingizga yoqqanidek suratga olavering, quyoshning nuqtalari va yoʻnalishlarini oʻrganing, suratga olish jarayonida va bolalar bilan muloqotda doimo doʻstona muhitni saqlang. Biz har doim koʻmaklashishga, har bir kishiga maslahat berishga va fototexnikadan foydalanishni oʻrgatishga tayyormiz.

Dastlab yarim professional fotoapparat olish, ammo, fokus masofasi yaxshi boʻlgan yaxshi obyektiv tanlash kerak. Koʻp hollarda suratlar sifati va suratga olish qulayligi aynan unga bogʻliq boʻladi. Aviatsiyaga yaqinroq boʻlish uchun samolyot bortida ishlash shart emas. Biz baʼzan yerda turib ham orzularni roʻyobga chiqarish va dunyoga boshqacha nigoh bilan qarash mumkinligini angladik.








**Мухаммадрасул Мухитдинов**
*Предприниматель*

**Muxammadrasul Muxitdinov**
*Tadbirkor*

Я занимаюсь бизнесом, а в авиаспоттинг попал около года назад. Любовь к самолётам – это у нас семейное: отец всегда любил наблюдать за ними, и мне передался его интерес. После окончания вуза я неподалёку от аэропорта и ходил фотографировать самолёты в конце рабочего дня. Сначала из оборудования у меня был только телефон, я стал вести инстаграм и телеграм-канал, куда выкладывал фото. Позже взял простенький фотоаппарат и объектив за небольшую сумму – около трех миллионов сумов. Планирую в ближайшее время обновить технику – для съёмки в ночное время нужен ещё один объектив. Пока у меня в основном дневные фото.

Biznes bilan shug'ullanaman, aviaspottingga esa taxminan bir yil oldin keldim. Samolyotlarga bo'lgan muhabbat – bizning oilaviy xislatimiz: otam doim ularni kuzatishni yoqtirardi va uning bu qiziqishi menga ham o'tgan.

Universitetni tugatganimdan so'ng, aeroport yaqinida ishladim va ish kunim oxirida samolyotlarni suratga olish uchun borar edim. Dastlab faqat telefondan foydalanganman. Instagram va Telegram kanallar ochib, u yerga suratlarni joylashni boshlagandim. Keyinchalik, taxminan uch million so'm sarflab, uncha qimmat bo'lmagan oddiy fotoapparat va obyektiv sotib oldim. Yaqin orada texnikamni yangilashni rejalashtiryapman – tunda suratga olishni xohlayman, buning uchun esa yana bir obyektiv kerak bo'ladi. Hozircha men asosan kunduzi suratga olaman.

В процессе я встретил единомышленников, среди которых были и основатели авиаспоттинга в Узбекистане, и новички. Со всеми познакомился уже в чате авиаспоттеров – нас там около 70 человек. Мне посоветовали ресурсы, где можно делиться фотографиями, и помогли с покупкой фотоаппарата – посоветовали, какой лучше подобрать для начала, как выбирать ракурс.

Авиаспоттинг занимает важную часть моей жизни, он помогает отвлечься от будней. Когда наблюдаю за посадкой и взлётом самолётов, отдыхаю от всего, нахожу внутренний покой. И это не только про отдых, но и про поиск – мы всегда хотим снять что-то новое, поймать интересный кадр, редкую модель авиалайнера. Да и сложно описать состояние, когда над вашей головой пролетает самолёт – это непередаваемое ощущение, порой до мурашек по коже.

Важнейшим событием для меня стала возможность побывать на авиашоу в Чирчике. Всех желающих, в том числе авиаспоттеров, пригласили на авиабазу, где мы могли наблюдать за военными самолётами, вертолётами, истребителями, транспортёрами – эмоции от мероприятия были невероятные!

Bu jarayonda men hamfikrlarimni uchratdim, ular orasida O'zbekistondagi aviaspotting asoschilari ham, yangi kelganlar ham bor. Barchasi bilan aviaspotterlar chatida tanishdim – biz u yerda 70 ga yaqin kishimiz.

Chatda menga fotosuratlarimni joylashtirishim mumkin bo'lgan resurslar borasida maslahat berishdi, dastlab qanday fotoapparat sotib olish, rakursni qanday tanlash borasidagi tavsiyalar bilan o'rtoqlashishdi.

Aviaspotting hayotimda muhim pog'ona bo'lib, kundalik ishlardan chalg'ishimga yordam beradi. Samolyotlarning uchishi va qo'nishini kuzatar ekanman, hamma narsani unutib orom olaman, ichki xotirjamligimni topaman. Bu nafaqat dam olish, balki izlanish ham – biz doimo yangi narsalarni, qiziqarli kadr va kam uchraydigan avialayner modelini suratga olishga intilamiz. Boshingiz uzra samolyot uchib o'tayotganda paydo bo'ladigan holatni tasvirlash mushkul – bu ta'riflab bo'lmaydigan tuyg'u, ba'zan butun tanangizni jimirlatib yuboradi.

Chirchiqdagi aviashouda qatnashish men uchun muhim voqea bo'ldi. Aviabazaga barcha xohlovchilar, shu jumladan, aviaspotterlar ham taklif qilindi. U yerda biz harbiy samolyot, vertolyot, qiruvchi samolyot va harbiy yuk tashuvchi samolyotlarni kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldik – tadbir xotiramizda aql bovar qilmas taassurotlarni qoldirdi.






Xobbi bilan bog'liq qiyinchiliklar haqida gapiradigan bo'lsak, ular juda oz, odatda bu – aeroportda xavfsizlik kuchaytirilgan paytdagi maxsus rejim. Bizni to'xtatib, hozircha suratga olish mumkin emasligini eslatib qo'yishadi, biz buni tushunamiz. Oddiy kunlarda esa muammosiz suratga olish mumkin, faqat qo'riqchilarni suratga olish va to'siqdan oshib o'tish mumkin emas. Hammamiz qoidalarni bilamiz va yangi kelganlarga darhol buni tushuntiramiz, shuning uchun ham muammolar yuzaga kelmaydi. Ayniqsa, 2022-yilda qaror qabul qilinib, aviaspotting qonuniylashtirilganidan keyin hammasi osonlashdi. Omad bizga kulib boqdi, deb hisoblaymiz – qo'shni mamlakatlarning barchasi ham ushbu faoliyat turini qonuniylashtirmagan. Kutilmagan vaziyatlar ham ro'y berib turadi: ob-havo sharoiti tufayli qo'nish joyi o'zgarganda spotting uchun joyni almashtirishga ulgurolmaysan. Bu biroz dilni xira qilishi mumkin. Biroq, bunday vaziyatlarning ijobiy tomonlari ham bor. Aynan bugun omadim chopib, kamdan-kam uchraydigan Boeing-787 modelini ko'rishga muyassar bo'ldim. U Bishkekdan uchib keldi, hech kim buni kutmagandi, men esa tasodifan va ayni vaqtida, kerakli joyda edim.

Yangi boshlayotganlarni esa maxsus bilimlarga ega bo'lishning hojati yo'q, samolyotlarga bo'lgan muhabbatning o'zi yetarli, deb tinchlantirmoqchiman. Amaliyot ko'nikmalarni yaxshilashga va vaqt o'tishi bilan kutilgan natijalarga erishishga yordam beradi. Tajriba orttirish va ko'proq suratga olish kerak. Kompozitsiya haqidagi va kadrni qanday qurish bo'yicha bazaviy ma'lumotlarni o'qishingiz mumkin. Agar maxsus jihoz va professional fotoapparat bo'lmasa, boshlash uchun telefonning o'zi kifoya qiladi.

Ko'p o'ylanib o'tirmang, agar samolyotlarni yoqtirsangiz — suratga olishni boshlang.




Если говорить о сложностях в нашем хобби, – их немного, обычно это особый режим в аэропорту, когда усилена безопасность. Нас останавливают, предупреждают о том, что на данном этапе съёмка невозможна, а в обычные дни можно снимать без проблем. Правда, запрещено фотографировать охрану, залезать за ограждение, но мы в курсе правил и новичкам всё сразу объясняем, поэтому сложностей и трудностей не возникает. Стало значительно проще после узаконившего авиаспоттинг постановления, принятого в 2022 году. Считаем, нам повезло – не все соседние страны узаконили данный вид деятельности.

Случаются непредвиденные ситуации: обидно, что порой не успеваешь сменить локацию для споттинга, когда из-за погоды меняется место посадки. Это может расстроить, но у таких моментов бывают и плюсы. Буквально сегодня я вышел наудачу и заснял редкую модель – Boeing-787. Он прилетел из Бишкека, и никто не ожидал этой посадки, я случайно оказался в нужном месте и в нужное время.

Начинающих хотелось бы успокоить: необязательно обладать специальными знаниями, хватит и любви к самолётам. Практика поможет улучшить навыки и со временем получать желаемый результат, нужно набираться опыта и много снимать. Можно почитать базовую информацию о композиции и о том, как выстраивать кадр. Если нет техники и профессионального фотоаппарата, для начала хватит и телефона.

И не надо долго думать, если любите самолёты – дерзайте!

Hayot Bank

# Исламские финансовые продукты –

## новое слово в банковских услугах Узбекистана



## Islomiy moliyaviy mahsulotlar – O‘zbekiston bank xizmatlaridagi yangi yo‘nalish



Исламские банковские продукты набирают популярность во всем мире, и их рост впечатляет. За последние годы активы исламских банков стабильно увеличиваются на 10–15% ежегодно. Эта тенденция стала важной частью мирового финансового рынка, привлекая как инвесторов, так и потребителей своей прозрачностью и соответствием этическим принципам.

В Узбекистане исламские финансовые продукты также нашли свою нишу, предлагая привлекательные альтернативы традиционным банковским услугам. К примеру, мурабаха (рассрочка) и такофул (исламское страхование) уже давно конкурируют с привычными кредитными и страховыми предложениями. АО «HAYOT BANK» идёт в ногу с этой тенденцией, активно внедряя инновационные исламские финансовые инструменты.

**Собиров Элдор Зафарович**

*Заместитель председателя правления АО «HAYOT BANK»*



### Наши предложения на сегодняшний день:

**Расчётно-кассовое обслуживание**

Мы предлагаем комплексное обслуживание для физических и корпоративных клиентов: открытие и ведение счетов, валютные операции и переводы. Все наши услуги соответствуют законодательству Республики Узбекистан и нормам шариата.

**Лизинг (иджара мунтахия биттамлик)**

Это исламский аналог классического лизинга с правом последующего выкупа имущества. Мы помогаем приобрести транспортные средства, спецтехнику или недвижимость для предпринимательской деятельности с выгодными условиями.

**Доверительное управление (мудараба)**

Ищете способ выгодно инвестировать свои средства, но не хотите заниматься управлением? Наш продукт мудараба – идеальное решение для вас. Вы вносите деньги, а наш банк с использованием своего опыта и профессионализма инвестирует их. Полученная прибыль распределяется между вами и банком по заранее оговорённым условиям.

**Карты для паломников**

Предлагаем дебетовые карты UZCARD DUO и совместную карту UZCARD-Mastercard. Для паломников, совершающих хадж или умру, есть особые привилегии: бесплатное обслуживание и снятие наличных в банкоматах Саудовской Аравии.

**«Hayot Ijara» – удобный лизинг и рассрочка**

Наша дочерняя компания «Hayot Ijara» предоставляет возможность приобретения автомобилей в лизинг и рассрочку. В скором будущем мы планируем расширить линейку продуктов, включив в неё недвижимость и потребительские товары.

### Перспективы развития исламского банкинга в Узбекистане

В республике активно создается правовая основа для развития исламских финансов. Мы с оптимизмом смотрим в будущее, ожидая принятия новых законов, которые откроют возможности для дальнейшего расширения линейки продуктов и привлечения дополнительных инвестиций. АО «HAYOT BANK» – ваш надёжный партнёр в мире исламских финансов.

Islomiy bank mahsulotlari butun dunyoda tobora ommalashib, hayratlanarli sur’atda o‘sib bormoqda. So‘nggi yillarda islom banklarining aktivlari har yili 10-15 foizga barqaror oshmoqda. Ushbu tendensiya o‘zining shaffofligi va axloqiy tamoyillarga muvofiqligi tufayli ham investorlarni, ham iste’molchilarni jalb etgan holda jahon moliya bozorining muhim qismiga aylandi.

O‘zbekistonda ham islomiy moliyaviy mahsulotlar o‘z o‘rnini topib, an’anaviy bank xizmatlariga jozibador muqobillarni taqdim etmoqda. Murabaha (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) va takoful (islomiy sug‘urta) kabi mahsulotlar allaqachon odatiy kredit va sug‘urta takliflari bilan raqobatlashmoqda. "HAYOT BANK" AJ innovatsion islomiy moliyaviy vositalarni faol joriy etib, ushbu tendensiyaga hamohang ravishda rivojlanmoqda.

**Sobirov Eldor Zafarovich**

*«HAYOT BANK» AJ boshqaruv raisi o‘rinbosari*

### Bizning bugungi kundagi takliflarimiz:

**Hisob-kitob-kassa xizmati**

Biz jismoniy shaxslar va korporativ mijozlar uchun keng qamrovli xizmatlarni taklif etamiz: hisobvaraq ochish va yuritish, valyuta operatsiyalari va pul o‘tkazmalari. Xizmatlarimiz O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va shariat me’yorlariga to‘liq mos keladi.

**Lizing (Ijara Muntahiya Bittamlik)**

Bu keyinchalik mol-mulkni sotib olish huquqi bilan klassik lizingning islomiy muqobilidir. Biz sizga qulay ijara shartlari bilan tadbirkorlik faoliyati uchun avtotransport vositalari, maxsus texnika yoki ko‘chmas mulk sotib olishda ko‘maklashamiz.

**Ishonchli boshqaruv (Mudaraba)**

Mablag‘laringizni investitsiya qilish yo‘lini qidiryapsizmi, lekin boshqaruv bilan shug‘ullanishni xohlamayapsizmi? Bizning "Mudaraba" mahsulotimiz aynan siz uchun. Siz mablag‘ kiritasiz, bankimiz esa o‘z tajribasi va professionalligidan foydalangan holda investitsiya qiladi. Olingan foyda siz va bank o‘rtasida oldindan kelishilgan shartlar asosida taqsimlanadi.

**Ziyoratchilar uchun kartalar**

UZCARD DUO debet kartalarini va UZCARD-Mastercard qo‘shma kartasini taklif etamiz. Haj yoki umra ziyoratini amalga oshiruvchilar uchun imtiyozlar mavjud: Saudiya Arabistoni bankomatlarida bepul xizmat ko‘rsatish va naqd pul yechib olish.

**"Hayot Ijara" – qulay lizing va muddatli to‘lov**

"Hayot Ijara" sho‘ba korxonamiz avtomobillarni lizing va bo‘lib to‘lash asosida sotib olish imkoniyatini taqdim etadi. Yaqin kelajakda biz ko‘chmas mulk va iste’mol tovarlarini o‘z ichiga olgan mahsulotlarni kengaytirishni rejalashtirmoqdamiz.

### O‘zbekistonda islomiy bankingni rivojlantirish istiqbollari

O‘zbekistonda islomiy moliyani rivojlantirish uchun huquqiy asos faol yaratilmoqda. Mahsulotlar turlarini yanada kengaytirish va qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini ochadigan yangi qonunlar qabul qilinishini kutib, kelajakka umid bilan qaraymiz. "HAYOT BANK" AJ islomiy moliya olamidagi ishonchli hamkoringizdir.

CENTRUM
HOLDING

# Centrum – это вы

Вокруг вас крутится всё: планеты, звёзды,
самолёты, мечты, путешествия, весь мир.

Вы – в центре Вселенной.
Вы – в центре Centrum.

## Мы – семья брендов, формирующих национальную туристическую экосистему, и крупнейший поставщик логистических услуг

### CENTRUMAIR

**Крупнейшая частная авиакомпания Узбекистана**
с самым современным парком воздушных судов

Мы перевезли
**500 000+**
пассажиров

Мы выполнили
**3000+ полетов**

**Наш флот**

2024
**6 самолетов**
4x Airbus A320-200
2x Airbus A321 Neo
1x Airbus A319-VIP

**Бизнес-джет**

2025
**14 самолетов**
5x Airbus 320-200
2x Airbus 321-200
2x Airbus 320 Neo
3x Airbus 321 Neo
2x Airbus 330-300

### MY FREIGHTER

**Ведущая грузовая авиакомпания в регионе,**
основанная в Узбекистане

В 2024 году выполнено
**1000+ рейсов**

Проведено в полёте
**8000+ часов**

**Наш флот**

2024
**6 самолетов**
6x B767-300 ERBCF

**60%** грузов Узбекистана в 2023 году было перевезено нашими рейсами

2025
**13 самолетов**
11x B767-300 ERBCF
2x A330-300

### CENTRUM

**Динамично развивающийс 3PL-оператор,**
перевозящий грузы по всему миру

**7000+**
40 футовых контейнеров

**350+**
автоприцепов и контейнеровозов

**500+**
железнодорожных платформ

### UZLOGISTIC

**Часть группы компаний Centrum Holding,**
специализирующаяся на перевозке автомобилей и автокомпонентов

Закрытый склад в Ташкенте площадью
**6600 м²**

Контейнерный терминал в Ангрене площадью
**8 га.**

Склад в Ахтачи площадью
**11 га.**

### CENTRUM HOLIDAYS

**Туроператор нового поколения,**
который предоставляет сервис 360 каждому клиенту



Wolt

**Eng sevimli yetkazib berish ilovasini sinab ko'ring!**

Любимое приложение для доставки!



**Tssss...**

Agar siz ushbu sahifaga yetib kelgan bo'lsangiz, chegirma uchun **WOLTAIR40** promo-kodi bilan 40 000 sovg'a oling.

**Псссс...**

Если вы дошли до этой страницы, получите промокод **WOLTAIR40** на 40 000 сум в качестве подарка.






Agar sizda internet bo'lsa, ilovani QR kod orqali yuklab oling.

а если у вас есть интернет, загрузите приложение с помощью QR-кода.

Muhim: Faqat yangi foydalanuvchilar WOLTAIR40 kodi bilan 40 000 so'm chegirma olishlari mumkin. Chegirma kodining amal qilish muddati – 30 kun. 15.02.2025 ga qadar amal qiladi va boshqa chegirmalar bilan birlashtirilmaydi.

Важно: Только новые пользователи могут использовать код WOLTAIR40 со скидкой 40 000 UZS в течение 30 дней. Действителен до 15.02.2025 и не может быть комбинирован с другими скидками.

Hayot Bank

Откройте кобейджинговую карту

# UZCARD × Mastercard

за 5 минут




- Бесплатное обслуживание и снятие наличных в банкоматах Саудовской Аравии
- Пополнение карты в национальной валюте - сум
- Оплата в системах UZCARD и Mastercard в 210 странах мира

Номер горячей линии

**1230**

РЕКЛАМА